

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

---

**S.SH. MAMANAZAROV**

# **BIG DATANING FUQAROLIK-HUQUQIY REJIMI**

*Monografiya*

Toshkent – 2025

**UO'K: 347.77:004.6(035.3)(575.1)**

**KBK 67.404+32.811.4**

**M 23**

**Taqrizchilar:**

**S. Gulyamov** – yuridik fanlar doktori, prof.;

**B. Ahmadjonov** – yuridik fanlar nomzodi, dots.

**Mamanazarov, S.Sh.**

**M 23`**

**Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimi** [Matn]:  
monografiya / Mamanazarov Sardor Shuxratovich. – T.:  
TDYU nashriyoti, 2025. – 160 b.

Monografiyada ilk bor Big Data (katta ma'lumotlar)ning fuqarolik-huquqiy rejimi bilan bog'liq ilmiy va amaliy muammolari yangicha yondashuv asosida kompleks tarzda tadqiq etilgan. Muallif ilmiy-nazariy va amaliy asoslar orqali Big Data sohasiga oid huquqiy normalarni takomillashtirish zaruratini asoslab, amaldagi fuqarolik qonunchiligiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taklif etadi. Monografiyada ilgari surilgan takliflar, umumlashtirilgan xulosa va qoidalar Big Data doirasida ma'lumotlarni himoya qilish hamda maxfiylikni ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirishda qo'llanishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, "Xalqaro xususiy huquq", "Fuqarolik huquqi", "Kiber huquq", "Xalqaro tijorat huquqi", "Intellektual mulk huquqi" fanlarini o'qitish va ushbu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, o'quv kurslari dasturlari yaratish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarida va fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda samarali foydalanish mumkin.

*Mazkur monografiya Toshkent davlat yuridik universiteti Tadqiqot etikasi kengashining 2025-yil 15-aprel 4-sonli majlis bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.*

Mazkur monografiya Toshkent davlat yuridik universiteti va "INTERLEX LAW FIRM" advokatlik firmasi o'rtasida 27.03.2025-yilda tuzilgan 23-sonli xo'jalik shartnomasiga asosan tayyorlangan va nashr etilgan.

**ISBN 978-9910-554-04-9**

© **Mamanazarov Sardor Shuxratovich, 2025**

© **Toshkent davlat yuridik universiteti, 2025**

# MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	4
<b>I BOB. BIG DATA TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA HUQUQIY TABIATI</b>	
1.1-§. Big Data tushunchasi, xususiyatlari va an'anaviy ma'lumotlardan farqlari .....	8
1.2-§. Big Dataning huquqiy tabiatiga oid umumiy konsepsiyalar va qarashlar .....	18
1.3-§. Big Data doirasida shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi va mohiyati .....	32
<b>II BOB. BIG DATA DOIRASIDA MULK HUQUQI, INTELLEKTUAL MULK HUQUQI: ZAMONAVIY KONSEPSIYALAR VA YONDASHUVLAR</b>	
2.1-§. Big Data doirasida mulk huquqiga oid qarashlar va konsepsiyalar .....	47
2.2-§. Big Data kontekstida intellektual mulk huquqlariga oid yondashuvlar .....	71
<b>III BOB. BIG DATA DOIRASIDA MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH VA MAXFIYLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ASOSIY QOIDALAR</b>	
3.1-§. Big Data tahlilida ma'lumotlarni himoya qilishda tamoyillarning o'rni .....	89
3.2-§. Big Data tahlilida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shartlari va shartnomaviy munosabatlar .....	105
3.3-§. Big Data tahlilida shaxsiy ma'lumotlarning huquqiy himoyasini ta'minlash omillari .....	116
<b>XULOSA</b> .....	128
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	137

## KIRISH

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar orasida raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq mulkiy munosabatlar tobora muhim o'rin tutmoqda. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi natijasida vujudga keladigan yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solish, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining ma'lumotlarga doir huquqlari doirasini belgilash va himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Big Data fuqarolik huquqining eng zamonaviy va yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan sohaslaridan biri hisoblanadi. Dunyoda Big Data texnologiyalari rivojlanishi bilan ma'lumotlar hajmi va xilma-xilligi misli ko'rilmagan darajada oshib bormoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, 2023-yilga kelib, Big Data va tahliliy yechimlar bozori 274 milliard dollarga yetgan. O'z navbatida, Big Data, uning elementlari va Big Data tahlili natijasida yaratilgan yangi bilim va ma'lumotlarni intellektual mulk obyektlari sifatida muhofaza qilish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi Big Data doirasidagi huquqiy munosabatlarni yangicha mazmun bilan to'ldirdi va mulkiy munosabatlar sohasida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishida, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son hamda 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-son qarorlarida Big Data infratuzilmasini rivojlantirish, uning huquqiy tartibga solinishini ta'minlash, ma'lumotlarni zamonaviy usullar bilan ishlov berish markazlarini tashkil etish kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekistonda Big Data texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr-

dagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham Big Data infratuzilmasini rivojlantirish, uning huquqiy tartibga solinishini ta’minlash, ma’lumotlarga zamonaviy usullar bilan ishlov berish markazlari tashkil etish kabi vazifalar belgilangan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda har soniyada 2,5 million gigabayt ma’lumotlar yaratiladi va bu ko‘rsatkich har yili 40 %ga oshmoqda. 2025-yilga kelib, global ma’lumotlar hajmi 175 zettabaytga yetishi kutilmoqda. Bu ma’lumotlarning sezilarli qismi, turli baholashlarga ko‘ra, 20 foizdan 30 foizgachasini shaxsiy ma’lumotlar tashkil etadi. Big Data texnologiyalari bu boradagi muhim yechimlardan biri bo‘lib, ular terabaytlab va hatto petabaytlab ma’lumotlarni real vaqt rejimida analiz qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi bilan Big Data maqsadlarida to‘planayotgan ma’lumotlar, ayniqsa, shaxsiy ma’lumotlar hajmi keskin ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yil oxirida vazirlik va idoralarning 318 ta axborot tizimi va 84 ta ma’lumotlar bazasida 17 million 822 ming fuqaroning shaxsiy ma’lumotlari mavjud bo‘lgan. Bu kabi shaxsiy ma’lumotlarning katta hajmda to‘planishi va tahlil qilinishi natijasida fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligi, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi va himoyasi xavf ostida qolmoqda. Shu bois mamlakatimizda subyektlarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi, qonuniy himoyasini ta’minlashga oid masalalar dolzarb hisoblanib, tegishli tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

O‘zbekistonda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2019-yil 2-iyulda “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan bo‘lib, mazkur qonunda shaxsga doir ma’lumotlar to‘plash, ishlov berish, uzatish hamda ulardan foydalanishni tartibga soluvchi normalar belgilangan. Lekin Big Data texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda qonundagi normalar yetarli emas. Big Data elementlarining huquqiy maqomi, ularni himoya qilish mexanizmlari, ma’lumotlardan foydalanish masalalari ham zamonaviy yondashuvlar talab qiladi.

Big Data doirasidagi huquqiy munosabatlarning rivojlangan iqtisodiyot talablariga hamohang ravishda huquqiy tartibga solinmaganligi mamlakatimizda mulkiy munosabatlar rivojlanishi yo'lida o'z salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bunday vaziyatda mazkur mulkiy munosabatlarning normal va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida ma'lumotlarning "tegishli"ligini belgilovchi samarali huquqiy tizim yaratish talab etiladi. Shunday huquqiy tizimning nazariy asoslarini ishlab chiqish va yangi huquqiy konstruksiyalar yaratish jarayonida rivojlangan mamlakatlarning qonunchilik amaliyotini o'rganish hamda tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR), AQSh Federal savdo komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Adolat Big Data: algoritmlar, diskriminatsiya va maxfiylik" yo'riqnomasi, Xitoy Xalq Respublikasining 2021-yil 1-noyabrdan kuchga kirgan "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, Yaponiya va Singapurda ma'lumotlar muhofazasi borasida mukammal qonunchilik bazasi va amaliyot mavjudligi bu boradagi ilg'or tajribalarni o'rganishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Big Data texnologiyalarining rivojlanishi tobora kengroq tus olmoqda. Ma'lumotlarning exponensial o'sishi ularni tahlil qilish va ishlov berishning yangi usullarini talab qiladi. Big Data loyihalarida turli manbalardan olingan ma'lumotlar birlashtiriladi va qayta ishlanadi, bu esa intellektual mulk huquqlarini aniqlash va himoya qilishda muammolar keltirib chiqaradi. Shu sababli ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Big Data kontekstida intellektual mulk huquqlarini tartibga soluvchi yangi, yanada samarali huquqiy mexanizmlar ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borishni hozirgi tezkor axborot davri talab etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda O'zbekistonda Big Dataning rivojlanishi, ulardan foydalanish jarayonida shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xalqaro standartlar va eng yaxshi amaliyotlarni hisobga olish zarur.

Ushbu monografiya Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimini belgilash, ma'lumotlar xavfsizligi va sifatini nazorat qilish, ularga

nisbatan mulkiy huquqlar doirasini aniqlash, intellektual mulk huquqlari bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish, cheklanmagan axborot huquqlari, ma'lumotlarga nisbatan mulkdorlik va nazoratchining huquqiy maqomini belgilash kabi dolzarb masalalarni kompleks tadqiq etishga bag'ishlangan.

Monografiyaning maqsadi Big Data sohasidagi huquqiy munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tabiatini aniqlash hamda ularni huquqiy tartibga solishning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish, subyektlarning ma'lumotlari himoyasi va maxfiyligini huquqiy ta'minlash bo'yicha tegishli taklif-tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

Ushbu monografiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi Big Data bilan bog'liq huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish, milliy huquq tizimini zamonaviy xalqaro standartlarga moslashtirish, shuningdek, raqamli iqtisodiyot munosabatlarini samarali tartibga solishga xizmat qiladi.

# I BOB. BIG DATA TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA HUQUQIY TABIATI

## 1.1-§. Big Data tushunchasi, xususiyatlari va an'anaviy ma'lumotlardan farqlari

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillash-tirish konsepsiyasi<sup>1</sup>da fuqarolik-huquqiy munosabatlarda axborot-kom-munikatsiya texnologiyalarini qo'llashning huquqiy asoslarini shakllanti-rish, xususan, ma'lumotlarning sezilarli massivlarini (Big Data) yig'ish va ishlov berishni huquqiy tartibga solish vazifasi belgilandi.

Big Dataning iqtisodiyot va jamiyatga sezilarli ta'siri qayd etilmoqda<sup>2</sup>. Bugunga kelib, Big Data (katta hajmli ma'lumotlar) tushunchasi axborot texnologiyalari sohasida keng qo'llanayotgan terminlardan biriga aylandi. Ushbu termin dastlab texnologik doirada paydo bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik huquqiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Katta hajmdagi raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni tahlil qilish natijalaridan foydalanish iqtisodiy jarayonlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Doimiy yangilanib turadigan Big Datani to'plash, qayta ishlash va tezkor tahlil qilish imkoniyati fuqarolik muomalasi ishtirokchilariga ustunlik beradi, shu munosabat bilan bu borada fuqarolik-huquqiy munosabatlar shakllanadi, bu esa ularning yuridik tabiati va mazmunini tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi<sup>3</sup>. Bugungi kunda Big Data texnologiyalari sun'iy intellekt texnologiyalari bilan uzviy bog'liq, shuning uchun Big Data texnologiyalarining rivojlanishi sun'iy intellektni rivojlantirish yo'nalishi bilan birlashtirilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2019-yildagi F-5464-son farmoyishi.

<sup>2</sup> Big Data, Big Impact: New Possibilities for International Development. World Economic Forum. 2012 // URL: [https://www3.weforum.org/docs/WEF\\_TC\\_MFS\\_BigDataBigImpact\\_Briefing\\_2012.pdf](https://www3.weforum.org/docs/WEF_TC_MFS_BigDataBigImpact_Briefing_2012.pdf) (дата обращения: 03.05.2023).

<sup>3</sup> Аюшеева И.З. Большие данные: проблемы определения гражданско-правового режима. Lex russica. 2023. Т. 76. № 10. С. 125–134. DOI: 10.17803/1729-5920.2023.203.10.125-134

<sup>4</sup> Войниканис Е.А. Регулирование больших данных и право интеллектуальной собственности: общие подходы, проблемы и перспективы развития // Закон. 2020. № 7. – С. 135–156.

Fuqarolik qonunchiligi normalarida Big Dataga oid munosabatlarga doir alohida qoidalar yo'q, shu munosabat bilan fuqarolik huquqlari obyekt sifatida Big Dataning yuridik tabiatini aniqlash, Big Datani saqlash, to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va uzatish haqidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, shaxsiy nomli huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, o'zbek olimlari va jamoatchiligi hamda milliy qonunchilikda Big Data tushunchasi nomlanishi bo'yicha yakdil yondashuv mavjud emas. Ko'pchilik olimlar va soha mutaxassislari "*Big Data*" tariqasida qo'llasa-da, ayrimlar "*katta hajmdagi ma'lumotlar*"<sup>5,6</sup>, "*salmoqli ma'lumotlar*"<sup>7</sup>, "*katta ma'lumotlar*" tarzida ko'rib chiqadi.

Aksariyat qonunchilik hujjatlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlarida<sup>8</sup> *Big Data* tariqasida qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Shu bois Big Data tushunchasi neologizm<sup>9</sup> bo'lganligini inobatga olib, tadqiqot mavzusi nomlanishi va butun tadqiqot ishi davomida "*Big Data*" tarzida qo'llashga qaror qildik.

"*Big Data*" atamasi kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud bo'lsa-da, uning kelib chiqishida, odatda, 1990-yillarda Silicon Graphics kompaniyasida ishlab kelgan kompyuter olimi Jon Mashiga nisbat beriladi.

1998-yilda Mashi USENIX tashkiloti (operatsion tizimlar ishlab chiquvchilari uchun texnik hamjamiyat) tomonidan tashkil etilgan

---

<sup>5</sup> <https://scienceweb.uz/publication/14984>

<sup>6</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Katta\\_hajmli\\_ma%CA%BClumot](https://uz.wikipedia.org/wiki/Katta_hajmli_ma%CA%BClumot)

<sup>7</sup> <https://www.xabar.uz/tahlil/dunyoni-ozgartiruvchi-texnologiya-biz-uchun>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4751561>, <https://lex.uz/docs/-5123682>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

<sup>9</sup> Neologizmlar (yun. neos. – yangi, logos – so'z) – jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o'tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, o'zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, reyting, tender so'zlari hozirgi kunda umumiste'moldagi so'zlarga aylanmoqda. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar>

tadbirda *“Big Data and the Next Wave of InfraStress”* (“Big Data va infratuzilmaga kelgusi bosim to‘lqini”) mavzusida taqdimot o‘tkazgan<sup>10</sup>. Unda u katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqarish va ishlov berish bilan bog‘liq muammolarni muhokama qilgan hamda ularni *“Big Data”* deb atagan<sup>11</sup>.

Biroq ba’zi tadqiqotchilar Big Data tushunchasi Mashhi tomonidan qo‘llanishidan oldinroq paydo bo‘lganini ta’kidlashadi. Masalan, 1997-yildagi bir ilmiy maqolada NASA olimlari katta hajmdagi geokosmik ma’lumotlarni tavsiflash uchun Big Data atamasidan foydalanishganini ko‘rish mumkin.

Bu atama internetdan foydalanuvchilar, qurilmalar va tashkilotlar tomonidan yaratilgan ma’lumotlar hajmi eksponensial ravishda oshishi bilan 2000-yillarning boshlarida keng ommalashdi. 2001-yilda Meta Group (hozirgi Gartner) kompaniyasi tahlilchisi Dag Leyni Big Dataning imkoniyatlari va muammolarini tavsiflash uchun “3V” tushunchasini (Volume – hajm, Velocity – tezlik va Variety – xilma-xillik) taklif qildi<sup>12</sup> va bu atamani yanada mashhur qildi. Zikopoulos ham Dag Leyning fikrlarini tasdiqlab, ushbu uch xususiyatini e’tirof etadi va Big Dataga ta’rif beradi<sup>13</sup>. Gantz va Reinsel esa bu ta’rifni yana bir xususiyat, ya’ni bitta V – qiymat (value) sifati bilan to‘ldiradi<sup>14</sup>.

Big Data asosli qarorlar qabul qilish uchun (data-driven) ishlatiladi. Ularni to‘plash va tahlil qilish uchun maxsus texnologiyalar, uskunalar qo‘llanadi<sup>15</sup>.

AQSh olimlari Boyd va Crawford Big Data tushunchasini juda katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plami sifatida ta’riflab, uning asosiy xususiyatlarini Leyni singari – hajm, tezlik va xilma-xillikni ajratib

---

<sup>10</sup> Mashhi, J. (1998). Big Data and the Next Wave of InfraStress. USENIX Annual Technical Conference

<sup>11</sup> [http://usenix.org/publications/library/proceedings/usenix99/invited\\_talks/mashey.pdf](http://usenix.org/publications/library/proceedings/usenix99/invited_talks/mashey.pdf)

<sup>12</sup> Laney, D. (2001). 3D data management: Controlling data volume, velocity and variety. META group research note, 6(70), 1.

<sup>13</sup> Zikopoulos, P. C., Eaton, C., deRoos, D., Deutsch, T., & Lapis, G. (2012). Understanding Big Data: Analytics for enterprise class hadoop and streaming data. McGraw-Hill Osborne Media.

<sup>14</sup> Gantz, J., & Reinsel, D. (2011). Extracting value from chaos. IDC iView, 1142(2011), 1-12. <https://www.emc.com/collateral/analyst-reports/idc-extracting-value-from-chaos-ar.pdf>

<sup>15</sup> Макаров А., Зуйкова А. Что такое Big Data и как они устроены // Блог сайта «Яндекс. Практикум». URL: <https://practicum.yandex.ru/blog/chto-takoe-big-data/> (дата обращения: 03.05.2023).

ko'rsatishadi<sup>16</sup>. Ular Big Dataning nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarga ham ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashadi.

Rus olimi L.Yu. Vasilevskaya Big Datani nafaqat raqamli ma'lumot, balki sun'iy intellekt texnologiyalari sifatida ham belgilaydi – ma'lumotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish va tarqatish jarayonlari, usullari hamda ma'lumotlar bazalarini boshqarish shu texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi<sup>17</sup>.

Boshqa bir rus olimi A.I. Savelev Big Datani dinamik o'zgaruvchan ma'lumotlar massivi sifatida belgilaydi. U katta hajmi va avtomatlash-tirilgan vositalar yordamida samarali va tezkor qayta ishlash imkoniyati tufayli qimmatli hisoblanishini qayd etadi<sup>18</sup>.

Yevropa olimlari Mayer-Schönberger va Cukier Big Data tushunchasini chuqurroq o'rganishgan. Ular Big Datani insoniyat tarixidagi eng muhim resurslardan biri sifatida baholashadi<sup>19</sup>. Mualliflar Big Dataning ijtimoiy munosabatlar, biznes va davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirishini bashorat qilishadi.

Rossiyalik olim A.K. Jarov Big Data atamasining paydo bo'lishini axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'lab, ma'lumotlar hajmi keskin oshishi va ularni ishlov berishning yangi usullari Big Data konsepsiyasining shakllanishiga zamin yaratganligini qayd etadi<sup>20</sup>. Bundan tashqari, olim Big Dataning huquqiy jihatlariga ham e'tibor qaratadi va uning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, intellektual mulk huquqi kabi sohalarga ta'sirini tahlil qiladi.

Big Data tushunchasining texnologik kontekstda ham turli ta'riflari mavjud. Masalan, Gartner Big Datani shunday ta'riflaydi: "Big Data – bu katta hajm, katta tezlik va/yoki katta xilma-xillikka

---

<sup>16</sup> Boyd, D., & Crawford, K. (2012). Critical questions for Big Data: Provocations for a cultural, technological, and scholarly phenomenon. *Information, communication & society*, 15(5), 662-679

<sup>17</sup> Василевская Л.Ю., Подузова Е. Б., Тасалов Ф. А. Цифровизация гражданского оборота: Big Data в механизме гражданско-правового регулирования (цивилистическое исследование): монография: в 5 т. Т. 5 / отв. ред. Л. Ю. Василевская. – М.: Проспект, 2023. – С. 13–14.

<sup>18</sup> Савельев А.И. Направления регулирования больших данных и защита неприкосновенности частной жизни в новых экономических реалиях // Закон. 2018. № 5. – С. 122–144.

<sup>19</sup> Mayer-Schönberger, V., & Cukier, K. (2013). *Big Data: A revolution that will transform how we live, work, and think*. Houghton Mifflin Harcourt

<sup>20</sup> Жаров, А.К. (2019). "Правовое регулирование больших данных (Big Data)". *Вестник Московского университета. Серия 11. Право*, (5), 84–109.

ega axborot aktivlari bo'lib, ular arzon va innovatsion ishlov berish shakllarini talab qiladi, bu esa qaror qabul qilishni yaxshilash, jarayonlarni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi"<sup>21</sup>.

Shuningdek, Hashem "Big Data – bu tobora o'sib borayotgan juda katta hajmdagi ma'lumotlar to'plami bo'lib, an'anaviy ma'lumotlar bazasi texnologiyalari bunday ulkan ma'lumotlarni yig'olmaydi, saqlolmaydi, boshqarolmaydi va tahlil qila olmaydi"<sup>22</sup>, deya ta'kidlaydi. Cox va Ellsworth Big Datani vizualizatsiya qilish uchun mo'ljallangan katta miqdordagi ilmiy ma'lumotlar sifatida ta'riflashadi<sup>23</sup>.

Bizningcha, Big Data – bu raqamli texnologiyalar yordamida turli manbalardan yig'ilgan, an'anaviy usullar bilan foydalanish, ishlov berish, saqlash va tahlil qilish imkoniyatidan yuqori bo'lgan, katta tezlikda o'sib borayotgan va xilma-xil tuzilmaga ega ma'lumotlar to'plamidir.

Ushbu mazmundagi jumlaning, shuningdek, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi birinchi qismi o'n beshinchi xatboshisi hamda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisiga kiritish maqsadga muvofiq.

Huquqiy kontekstda Big Data tushunchasi ko'pincha shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, intellektual mulk huquqlari, raqobat huquqi kabi sohalar bilan bog'liq holda qo'llanadi. AQSh huquqshunos olimi Daniel Solove Big Dataning shaxsiy hayot daxlsizligi va ma'lumotlar konfidensialligiga ta'sirini ta'kidlaydi<sup>24</sup>. U Big Data texnologiyalarining rivojlanishi natijasida shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va ishlov berish imkoniyatlari sezilarli darajada oshgani, bu esa yangi huquqiy muammolar keltirib chiqarayotganini qayd etadi.

---

<sup>21</sup> Gartner. (2012). IT Glossary: Big Data. Gartner.com.

<sup>22</sup> Hashem, I.A.T., Yaqoob, I., Anuar, N.B., Mokhtar, S., Gani, A., & Ullah Khan, S. (2015). The rise of "Big Data" on cloud computing: Review and open research issues. *Information Systems*, 47, 98–115. <https://doi.org/10.1016/j.is.2014.07.006>

<sup>23</sup> Cox, M., & Ellsworth, D. (1997). Application-controlled demand paging for out-of-core visualization. In *Proceedings of the 8th Conference on Visualization '97* (pp. 235-244). IEEE Computer Society Press.

<sup>24</sup> Solove, D. J. (2013). Introduction: Privacy self-management and the consent dilemma. *Harv. L. Rev.*, 126, 1880

Big Data tushunchasining asosiy belgilari va xususiyatlarini tavsiflashda, odatda, “3V” yoki “5V” modellari qo‘llanadi. “3V” modeli hajm (volume), tezlik (velocity) va xilma-xillik (variety) kabi uchta asosiy xususiyatni o‘z ichiga oladi. Keyinchalik bu modelga ishonchlilik (veracity) va qiymat (value) kabi qo‘shimcha xususiyatlar ham qo‘shildi hamda “5V” modeli shakllandi.

Hajm (volume) Big Dataning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Boyd va Crawford Big Data tushunchasini an’anaviy ma’lumotlar bazalaridan farqli ravishda, petabayt va eksabayt kabi o‘lchovdagi ma’lumotlar to‘plamini ifodalash uchun qo‘llashni taklif qilishadi<sup>25</sup>.

De Mauro Big Data hajmining yildan-yilga eksponensial tarzda o‘sib borayotgani va bu tendensiya kelajakda ham davom etishini ta’kidlaydi<sup>26</sup>.

Big Data hajmining kattaligi uning huquqiy tartibga solinishida muhim ahamiyat kasb etib, bunday katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash, saqlash va ishlov berish jarayonida shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, ma’lumotlarning maxfiyligi kabi masalalar alohida e’tibor talab qiladi.

Tezlik (velocity) Big Dataning yana bir muhim xususiyati bo‘lib, u ma’lumotlarning tez sur’atlar bilan to‘planishi, qayta ishlanishi va tahlil qilinishini anglatadi. AQShlik olimlar Gandomi va Haider Big Data tezligini real vaqt rejimida ma’lumotlarni ishlov berish imkoniyati bilan bog‘lashadi<sup>27</sup>.

Big Data tezligining huquqiy jihatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ma’lumotlarning tez sur’atlarda qayta ishlanishi, bir tomondan, tezkor qarorlar qabul qilish imkonini bersa, boshqa tomondan, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va ma’lumotlar sifatini ta’minlash kabi qator huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

---

<sup>25</sup> Boyd, D., & Crawford, K. (2012). Critical questions for Big Data: Provocations for a cultural, technological, and scholarly phenomenon. *Information, communication & society*, 15(5), 662–679

<sup>26</sup> De Mauro, A., Greco, M., & Grimaldi, M. (2015). What is Big Data? A consensual definition and a review of key research topics. *AIP conference proceedings*, 1644(1), 97–104 [https://www.researchgate.net/publication/265775800\\_What\\_is\\_Big\\_Data\\_A\\_Consensual\\_Definition\\_and\\_a\\_Review\\_of\\_Key\\_Research\\_Topics](https://www.researchgate.net/publication/265775800_What_is_Big_Data_A_Consensual_Definition_and_a_Review_of_Key_Research_Topics)

<sup>27</sup> Gandomi, A., & Haider, M. (2015). Beyond the hype: Big Data concepts, methods, and analytics. *International journal of information management*, 35(2), 137–144 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0268401214001066>

Xilma-xillik (variety) Big Dataning yana bir ajralib turadigan xususiyatidir. Big Data turli xil manbalardan olingan, turli formatdagi va turli turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Yevropa olimi Manyika va boshqalar Big Data xilma-xilligini shakllangan va shakllanmagan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi bilan izohlaydi<sup>28</sup>.

Big Data xilma-xilligining huquqiy tartibga solinishi muhim hisoblanadi. Turli xil manbalardan olingan va turli formalardagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash hamda ishlov berishda ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qilish, ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlash kabi masalalar qonunchilikda o'z aksini topishi lozim.

Ishonchlilik (veracity) Big Dataning to'g'riligi, ishonchliligi va sifatini ifodalovchi xususiyatidir. Saporito Big Data asosida qabul qilinadigan qarorlarning to'g'riligi va samaradorligi bevosita ma'lumotlarning ishonchliligiga bog'liq ekanligini qayd etadi<sup>29</sup>.

Qiyamat (*value*) Big Dataning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ifodalovchi xususiyatidir. Big Data texnologiyalari kompaniyalarga o'z faoliyatini optimallashtirish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, Big Data davlat boshqaruvi, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy sohada ham katta o'zgarishlarga sababchi bo'lishi mumkin.

Demak, Big Data o'z mohiyatiga ko'ra turli texnologik yechimlardan foydalangan holda, turli xil usullarda qayta ishlanadigan katta hajmdagi ma'lumotlardir. Bunday ma'lumotlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, hajm, o'zgaruvchanlik va o'sish tezligini hisobga olgan holda, u zamonaviy texnologik yechimlar, avvalo, sun'iy intellektni qo'llamasdan amalga oshirilishi mumkin emas. Shunday qilib, Big Datani fuqarolik huquqlari obyeksi sifatida aniqlash uchun u murakkab hodisa ekanligini e'tirof etish kerak: u to'plash, saqlash va qayta ishlashni talab qiladigan

---

<sup>28</sup> Manyika, J., Chui, M., Brown, B., Bughin, J., Dobbs, R., Roxburgh, C., & Hung Byers, A. (2011). Big Data: The next frontier for innovation, competition, and productivity. McKinsey Global Institute <https://www.mckinsey.com/capabilities/mckinsey-digital/our-insights/big-data-the-next-frontier-for-innovation>

<sup>29</sup> Saporito, P., Riccio, E. L., & Martino, M. (2014). A framework for data quality in medical records. IEEE 27th International Symposium on Computer-Based Medical Systems (pp. 389–394).

turli xil ma'lumotlarni, shuningdek, ushbu ma'lumotlarni olish va tahlil qilish uchun qo'llanadigan texnologik yechimlarni o'z ichiga oladi.

Qayd etilganidek, Big Dataning huquqiy rejimini aniqlash zamonaviy fuqarolik qonunchiligida ma'lumotlarning o'zi mustaqil fuqarolik huquqlari obyekt sifatida tan olinmaganligi tufayli murakkablashadi<sup>30</sup>.

Big Data an'anaviy ma'lumotlardan bir qator muhim jihatlari bilan farqlanadi. Ushbu farqlar Big Dataning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va uni alohida huquqiy tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Birinchidan, Big Data ulkan hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy ma'lumotlar, odatda, megabayt, gigabaytlar yoki terabaytlar bilan o'lchanadigan bo'lsa, Big Data petabaytlar va ekzabaytlarga teng keladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar, IoT (Internet of Things) va sensorlar orqali yaratilayotgan ma'lumotlar shunchalik katta hajmga egaki, ularni an'anaviy usullar bilan saqlash va ishlov berish imkonsiz bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, Big Data turli formatlardagi va shakllanmagan ma'lumotlarni qamrab oladi. An'anaviy ma'lumotlar ko'pincha strukturalangan (shakllangan) va oldindan belgilangan formalarda saqlanadi. Biroq Big Data matnlar, tasvirlar, ovozli xabarlar, geografik ma'lumotlar kabi xilma-xil va shakllanmagan manbalardan kelib tushadi. Ushbu ma'lumotlarni ishlov berish uchun maxsus algoritmlar va vositalar talab etiladi. Big Dataning xilma-xilligi hamda shakllanmaganligi unga nisbatan mualliflik huquqi va sui generis huquqini qo'llashni qiyinlashtiradi.

Uchinchidan, Big Data tezkor sur'atlar bilan yaratiladi va yangilanib turadi. An'anaviy ma'lumotlar, odatda, vaqti-vaqti bilan to'planadi va kam o'zgaruvchan bo'ladi. Big Data esa real vaqt rejimida doimiy ravishda yangi ma'lumotlar bilan to'ldirib boriladi. Misol uchun, IoT qurilmalari har soniyada minglab ma'lumotlarni yaratishi mumkin. Bu esa Big Datani saqlash va ishlov berishda tezkorlikni talab qiladi.

---

<sup>30</sup> Аюшеева И. З. Большие данные: проблемы определения гражданско-правового режима. Lex russica. 2023. Т. 76. № 10. С. 125–134. DOI: 10.17803/1729-5920.2023.203.10.125-134

Ma'lumotlar bilan Big Data o'rtasidagi farqlar ularning huquqiy maqomiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. An'anaviy ma'lumotlar ko'pincha alohida huquqiy himoya obyekti sifatida ko'rilmagan bo'lsa, Big Data elementlari (uning tarkibiga kirgan ma'lumotlar) intellektual mulk, shaxsiy ma'lumotlar, tijorat sirlari sifatida himoyaga muhtoj bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga ko'ra, axborot resursi – axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi, shu jumladan, axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e'lon qilinadigan audio-, video-, grafik va matnli axborotni anglatadi. Ushbu atama Big Datani ham qamrab olishi mumkin, chunki u elektron shaklda saqlanadi va qayta ishlanadi. Shu bilan birga, Big Dataning o'ziga xos jihatlari uni axborot resurslarining alohida turi sifatida ajratishni taqozo etadi.

Big Data ma'lumotlar bazalaridan (database) ham bir qator jihatlari bilan ajralib turadi. Ushbu farqlar Big Dataning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va uni saqlash, boshqarish hamda huquqiy himoya qilishda alohida yondashuvlarni talab qiladi.

Birinchidan, ma'lumotlar bazalari strukturalangan ma'lumotlarni saqlash va boshqarish uchun mo'ljallangan. Ular ma'lum bir sxema asosida tashkil etilgan jadvallar va yozuvlardan iborat bo'ladi. Masalan, korxonaning mijozlari haqidagi ma'lumotlar bazasi mijozning ismi, familiyasi, manzili kabi oldindan belgilangan maydonlarni o'z ichiga oladi. Bunday tuzilma ma'lumotlarni tartibli saqlash va kerakli ma'lumotlarni tezkor topish imkonini beradi. Big Data esa shakllanmagan va yarim shakllangan ma'lumotlarni ham qamrab oladi, bu esa uni an'anaviy ma'lumotlar bazasi texnologiyalari bilan boshqarishni qiyinlashtiradi.

Ikkinchidan, ma'lumotlar bazalari markazlashgan arxitekturaga ega bo'ladi. Ya'ni ma'lumotlar, asosan, bitta server yoki o'zaro bog'langan serverlar klasterida saqlanadi va boshqariladi. Bu ma'lumotlar yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlaydi, lekin Big Datani ishlov berishda cheklovlar keltirib chiqaradi. Big Data esa tarqoq arxitekturaga tayanadi, bunda ma'lumotlar bir nechta serverlar yoki bulutli platformalarga taqsimlanadi va parallel

ravishda qayta ishlanadi. Bu Big Dataning moslashuvchanligi va masshtablanuvchanligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, ma'lumotlar bazalari, odatda, SQL (Structured Query Language) kabi so'rovlar tillari (dasturlash tili) yordamida boshqariladi. SQL ma'lumotlarni qidirish, saralash, yangilash va o'chirish kabi amallarni bajarish imkonini beradi. Biroq Big Data uchun NoSQL texnologiyalari keng qo'llanadi, chunki ular tuzilmagan va yarim tuzilgan ma'lumotlar bilan ishlashga moslashgan. NoSQL ma'lumotlar bazalari vertikal emas, gorizontal ravishda kengayadi va ma'lumotlarning taqsimlanishiga imkon beradi. Ma'lumotlar bazalari va Big Data o'rtasidagi farqlar ularni huquqiy himoya qilish usullariga ham ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro darajada ma'lumotlar bazalarini himoya qilishning asosiy mexanizmi "*sui generis*"<sup>31</sup> huquqidir. Yevropa Ittifoqining 96/9/EC Direktivasi ma'lumotlar bazalarini yaratishga sarflangan mehnat va mablag'larni "*sui generis*" huquqi orqali himoyalaydi. Biroq Big Data elementlarining sezilarli qismi shakllanmagan va doimiy ravishda yangilanib turadi, bu esa "*sui generis*" tizimini qo'llashni murakkablashtiradi.

---

<sup>31</sup> **Sui generis** lotincha atama bo'lib, "o'ziga xos" yoki "noyob" degan ma'noni anglatadi. Yevropa Ittifoqining 96/9/EC Direktivasiga ko'ra, sui generis huquqi ma'lumotlar bazasi yaratuvchisiga beriladigan maxsus huquq bo'lib, bu huquq an'anaviy mualliflik huquqidan farq qiladi. Sui generis huquqi ma'lumotlar bazasini yaratish, tekshirish yoki taqdim etishga qilingan sezilarli investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan. Bu huquq bo'yicha ma'lumotlar bazasi yaratuvchisi bazaning butun mazmuni yoki uning muhim qismini ajratib olish va/yoki qayta foydalanishni taqiqlash huquqiga ega bo'ladi. Sui generis huquqi 15 yil davomida amal qiladi va ma'lumotlar bazasiga sezilarli o'zgartirishlar kiritilganda, yangilanishi mumkin. Sui generis huquqi ma'lumotlar bazasining mualliflik huquqi bilan himoyalaniish imkoniyatidan qat'i nazar amal qiladi. Foydalanuvchilar ma'lumotlar bazasining ahamiyatsiz qismlaridan foydalanish huquqiga ega, lekin bu normal foydalanishga zid bo'lmasligi va yaratuvchining manfaatlariga zarar yetkazmasligi kerak. **Misol uchun:** Karoline va Frederik Daniyada huquqiy maslahat firmasini boshqaradilar. Ular sud amaliyoti hujjatlarini to'playdigan elektron ma'lumotlar bazasini yaratmoqchi. Buning uchun ular ma'lumotlarni to'plash maqsadida turli tashqi manbalarni o'rganishlari kerak, bu bir necha oylik ishni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar bazasi yakunlangach, Karoline va Frederik uni tijoratlashtirishi hamda unga nisbatan sui generis huquqlarini da'vo qilishlari mumkin. Bu shuni anglatadiki, ular boshqalarning o'z ma'lumotlar bazasi mazmunining katta qismini ajratib olish va/yoki qayta foydalanishining oldini olishlari mumkin, bu huquq 15 yil davomida amal qiladi. Biroq faqat bitta sud amaliyoti fayli yoki sud amaliyotining ahamiyatsiz qismlaridan qayta foydalanish yoki ularni ajratib olish erkin foydalanish uchun ochiq bo'ladi. [https://europa.eu/youreurope/business/running-business/intellectual-property/database-protection/index\\_en.htm](https://europa.eu/youreurope/business/running-business/intellectual-property/database-protection/index_en.htm) <https://egov.ufsc.br/portal/sites/default/files/anexos/27564-27574-1-PB.pdf>

O'zbek olimlarimizdan Q. Mehmonov ma'lumotlar bazasi – bu obyektiv shaklda ifodalangan hamda kompyuter dasturi yordamida izlash, topish va ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan materiallar (masalan, maqolalar, hisob-kitoblar, normativ va normativ-huquqiy hujjatlar, sud hujjatlari va shunga o'xshash boshqa materiallar) majmui hisoblanishini qayd etib, ma'lumotlar bazasiga nisbatan sui generis huquqini joriy etish istiqbollarini ilgari suradi<sup>32</sup>.

O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuni 3-moddasiga ko'ra, ma'lumotlar bazasi – obyektiv shaklda ifodalangan va elektron hisoblash mashinalari yordamida topish hamda ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan ma'lumotlar majmui sanalib, intellektual faoliyat mahsuli hisoblanadi. Ma'lumotlar bazasi mualliflik huquqi obykti bo'lishi mumkin. Biroq ushbu qonunda Big Dataning huquqiy maqomi belgilanmagan.

Bundan tashqari, ma'lumotlar bazalarini yaratish hamda ulardan foydalanish jarayonida mualliflik huquqlari va ma'lumotlar subyektlarining shaxsiy ma'lumotlari himoyasi bilan bog'liq muammolar mavjud.

Ma'lumotlarni boshqarish usullarining farqlanishi Big Data va ma'lumotlar bazalari o'rtasidagi yana bir asosiy tafovutdir. Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimli yondashuv, ma'lumotlarning yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, Big Data uchun moslashuvchanlik, tezkorlik va tarqoqlik tamoyillari ustuvorlik qiladi. Bu esa, o'z navbatida, Big Dataga oid huquqiy normalar ishlab chiqishda hisobga olinishi lozim.

## **1.2-§. Big Dataning huquqiy tabiatiga oid umumiy konsepsiyalar va qarashlar**

Big Data hozirgi paytda huquqiy munosabatlarning muhim obyektiga aylanib bormoqda. Uning huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi, Big Dataga nisbatan subyektiv huquqlar va majburiyatlarning

---

<sup>32</sup> Mehmonov Q. Kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazasiga oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yurid. fan. fals. dokt. diss... – T.: TDYU, 2018. – 84-b.

vujudga kelishi hamda fuqarolik huquqi obyektlari tizimidagi o'zni, ya'ni uning huquqiy rejimi kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Big Dataning huquqiy rejimini tushunishdan oldin huquqiy rejim tushunchasining mazmuni, chegaralarini bilib olish talab etiladi.

Huquqiy rejim tushunchasi umumiy ma'noda "normativ belgilangan qoidalar"ni anglatadi<sup>33</sup>. S.S. Alekseev bu tushunchaga yanada kengroq ta'rif bergan. U huquqiy rejimni yuridik normalar va vositalar bilan mustahkamlangan, muayyan obyektlarning ijtimoiy holatini ifodalovchi tizim sifatida ko'rsatgan<sup>34</sup>. Bu ta'rif fuqarolik huquqining turli obyektlariga to'g'ridan to'g'ri qo'llanishi mumkin.

Huquqiy rejim tushunchasiga nisbatan bir necha xil yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuv tarafdorlari uni ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilishadi. Masalan, I.L. Bachilov huquqiy rejimni ma'lum bir vaziyat yoki obyektga nisbatan amal qilishi lozim bo'lgan qonuniy talablar majmui deb hisoblaydi. Bu yondashuv doirasida D.N. Shmeleva ham o'z fikrini bildirgan. U huquqiy rejimni mulkning huquqiy tavsifi, undan foydalanish va tasarruf etish qoidalari, shuningdek, mulk egalari huquq va majburiyatlari yig'indisi sifatida ko'radi<sup>35</sup>.

Ikkinchi yondashuv vakillari huquqiy rejimni tartibga solish vositasi sifatida talqin qilishadi. O.A. Gorodov bu tushunchani "belgilangan tartib" ma'nosida tushunadi<sup>36</sup>. A.V. Malko esa uni huquqiy tartibga solish maqsadlariga erishish uchun zarur shart-sharoitlar va usullar tizimi deb hisoblaydi<sup>37</sup>.

Ushbu yondashuv asosida huquqiy rejimning bir qator xususiyatlari aniqlangan: u qonun bilan belgilanadi va davlat tomonidan kafolatlanadi; muayyan ijtimoiy sohalarni tartibga solishga qaratilgan; huquqiy vositalar tizimini o'z ichiga oladi; huquq subyektlarining manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

---

<sup>33</sup> Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Юридическаяэнциклопедия. – М.: 1997. – С. 379.

<sup>34</sup> Алексеев С.С. Общая теория проблем системы права. – М., 2001. – С. 48.

<sup>35</sup> Шмелева Д.Н. Правовой режим сооружений обустройства месторождений нефти и газа: автореферат дис. ... канд. юрид. наук. – Тюмень: 2004. – 13 с.

<sup>36</sup> Городов О.А. Интеллектуальная собственность: правовые аспекты коммерческого использования. – СПб., 2007. – 66 с.

<sup>37</sup> Малько А.В. Стимулы и ограничения в праве. – М.: 2005. – С. 206–207.

Uchinchi yondashuv tarafdorlari huquqiy rejimning obyektiv va funksional jihatlariga e'tibor qaratishadi. E.F. Shamsumov uni turli ijtimoiy sohalarda shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm sifatida ta'riflaydi<sup>38</sup>. V. Senchishev huquqiy rejimni imperativ va dispozitiv normalarga asoslangan, barcha shaxslar uchun majburiy bo'lgan qoidalar tizimi deb hisoblaydi<sup>39</sup>. T.P. Podshivalov esa uni huquqiy vositalar orqali muayyan holatlarga ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi tartib sifatida ko'radi<sup>40</sup>.

N.P. Azizov huquqiy rejimni qonuniylik talablarining amalga oshirilishi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar holati deb ta'riflaydi<sup>41</sup>. Q.T. Xolmo'minov esa uni jamoat tartibining bir qismi, huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida vujudga keladigan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida ko'radi<sup>42</sup>.

N. Ashurova huquqiy rejimni qonunchilikda belgilangan, huquq obyektlari va subyektlarining maqomi, ularning huquq va majburiyatlari, vakolatlari, faoliyat doirasi, imtiyoz va cheklovlarini o'z ichiga olgan qoidalar majmui sifatida ta'riflaydi<sup>43</sup>.

Bizningcha, huquqiy rejim – bu qonunchilikda belgilangan, davlat tomonidan kafolatlangan va muayyan ijtimoiy munosabatlar sohasini tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar, tamoyillar, mexanizmlar va vositalar tizimi bo'lib, u huquq obyektlarining maqomi, subyektlarning huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari, vakolatlari, faoliyat doirasi, harakatlanish chegaralari,

---

<sup>38</sup> Шамсумова Э.Ф. Правовые режимы (теоретический аспект): автореферат дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2001. – 15 с.

<sup>39</sup> Сенчищев В.И. Государственное регулирование прав на недвижимость и сделок с ней // Журнал российского права. 1999. – № 12. – С. 114.

<sup>40</sup> Подшивалов Т.П. Объект гражданских прав и правовой режим: проблема определения // Вестник ЮУрГУ. Серия «Право». 2013. т. 13, – № 3. – С. 50.

<sup>41</sup> Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т. Одилқориев, И.Т. Тультеев ва бошқ.; проф. Х.Т. Одилқориев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – 490 б.

<sup>42</sup> Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Олий ўқув юртларининг ҳуқуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалари учун \Бобоев Ҳ.Б., Исломов З.М., Чориёров У.; // Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Б. Бобоев, Ҳ.Т. Одилқориев. – Т.: “Иқтисодийёт ва ҳуқуқ дунёси” нашриёт уйи, 2000. – 342 б.

<sup>43</sup> Ashurova N.A. “Tadbirkorlik subyektlari mulkiy asoslarining huquqiy rejimi” mavzusidagi yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent: 2021-y.

imtiyozlar, taqiqlar va cheklovlarni o'z ichiga oladi hamda tegishli sohadagi ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi va samarali tartibga solinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik huquqi obyektlari orasida moddiy va nomoddiy ne'matlar mavjud bo'lib, ularning huquqiy rejimi turlicha tartibga solinadi. Big Dataning ushbu ne'matlar bilan o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash uning huquqiy maqomini belgilashda katta rol o'ynaydi.

Big Dataning moddiy ne'matlardan farqli jihatlari orasida uning ashyoviy shaklga ega emasligini ta'kidlash mumkin. Moddiy ne'matlar fizik mavjudlikka ega bo'lib, ularning huquqiy rejimi ashyoviy huquq normalari bilan tartibga solinadi. Big Data esa raqamli ko'rinishda mavjud bo'lib, uning "jismoniy chegaralari" aniq emas. Bizningcha, bu Big Dataning huquqiy rejimini belgilashda o'ziga xos yondashuvlar talab qiladi. Binobarin, Big Data ashyoviy shaklga ega bo'lmaganligi sababli an'anaviy moddiy ne'matlar qatoriga kirmasligini ta'kidlash mumkin.

Shu bilan birga, Big Data ayrim hollarda moddiy ne'matlarga xos xususiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan, Big Data ma'lum bir qiymatga ega bo'lishi, oldi-sotdi va ayirboshlash obyekti hisoblanishi mumkin. Biroq bunday hollarda ham Big Dataning noyob xususiyatlari, jumladan, uning ko'p marotaba foydalanish imkoniyati va nusxa ko'chirish osonligi uni moddiy ne'matlardan farqlaydi.

Nomoddiy ne'matlarga kelsak, Big Data ko'proq ular bilan o'xshash jihatlarga ega. Xususan, Big Data ham g'oyalar, bilimlar va axborotlar natijasi sifatida yaratiladi hamda qiymat kasb etadi. Shuningdek, Big Data intellektual faoliyat natijalariga xos ayrim xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Big Data ma'lumotlar bazasi sifatida mualliflik huquqi yoki sui-generis huquqi bilan himoya qilinishi mumkin.

Big Data o'zining bir qator xususiyatlari bilan boshqa obyektlardan ajralib turadi. Birinchidan, Big Data katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va ularni ishlov berish, tahlil qilish imkoniyatlariga ega. Ikkinchidan, Big Data dinamik xarakterga ega bo'lib, doimiy ravishda yangilanib, to'ldirib boriladi. Uchinchidan,

Big Data ko'pincha shaxsiy ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi va bu esa uning huquqiy rejimini belgilashda alohida yondashuv talab etadi.

Big Dataning yuqorida keltirilgan o'ziga xos xususiyatlari bois huquqiy rejimini belgilashda mavjud bir nechta yetakchi konsepsiya va nazariyalarni ko'rib chiqish mumkin.

Xususan, ma'lumotlarni mulk sifatida ko'rish nazariyasi (Data as Property Theory) ma'lumotlarga xuddi jismoniy mulkka o'xshab egalik qilish, sotish va himoya qilish mumkin bo'lgan mulk shakli sifatida qarash kerakligini aytadi. Tarafdorlar bu ma'lumotlar yaratilishini rag'batlantirishi va aniq huquqiy huquqlarni ta'minlashini ta'kidlashadi. Xususan, Mayer-Schönberger ma'lumotlarni yangi turdagi iqtisodiy aktiv sifatida e'tirof etib, u ma'lumotlar iqtisodiyotida investitsiyalar va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun ma'lumotlarga mulk huquqlarini o'rnatish zarurligi haqidagi fikrni ilgari suradi<sup>44</sup>. Biroq Pamela Samuelson ma'lumotlarni mulk sifatida ko'rish axborot erkin oqimini cheklashi va yangi monopoliyalar yaratishi mumkinligini qayd etib, u bu ochiq ma'lumotlarga tayanadigan innovatsiyalar va tadqiqotlarni to'xtatib qo'yishi mumkinligi haqida ogohlantiradi<sup>45</sup>.

*Qatlamli huquqlar yondashuvi (Layered Rights Approach)* turli ma'lumotlar uchun huquqlar va himoya tizimining pog'onali tizimini taklif qiladi. Helen Nissenbaum ushbu konsepsiyani qo'llab-quvvatlagan holda, kontekstga bog'liq maxfiylik me'yorlari ma'lumotlarni boshqarishga asos bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi<sup>46</sup>. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'sirchan (maxsus) shaxsiy ma'lumotlar eng kuchli himoyaga, anonim yoki ommaviy ma'lumotlar esa kamroq cheklovlarga ega bo'ladi. Bu – ma'lumotlarning ta'sirchanligi asosida yanada nozikroq tartibga solishga imkon beradi. Biroq tan olib aytish mumkinki, har xil ma'lumotlar turlarini aralashtiradigan Big Data to'plamlarini toifalash murakkab hodisa sanaladi.

---

<sup>44</sup> Mayer-Schönberger V. Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think. London : John Murray, 2013.

<sup>45</sup> Samuelson P. Information as Property: Do You Have to Choose Between Freedom of Speech and Intellectual Property? // Stanford Law Review. 1991. Vol. 43.

<sup>46</sup> Nissenbaum H. Privacy in Context: Technology, Policy, and the Integrity of Social Life. Stanford: Stanford University Press, 2010.

*Ma'lumotlar umumiy mulki nazariyasi (Data Commons Theory)* ma'lumotlar to'plamlarini tabiiy resurslarga o'xshash tarzda ochiq kirish mumkin bo'lgan ommaviy resurs yoki "umumiy mulk" sifatida ko'rishadi. Bu nazariya ochiq ma'lumotlar tashabbuslari va ilmiy-tadqiqot ma'lumotlari omborlarini qo'llab-quvvatlaydi. Biroq u ma'lumotlarni xususiy mulk sifatida ko'rish fikrlariga zid keladi.

*Ma'lumotlar ishonchli boshqaruvi konsepsiyasi (Data Trusteeship Concept)* ma'lumotlarning ma'lum guruhlar yoki maqsadlar manfaat-lari uchun maxsus tashkilotlar tomonidan ishonchli boshqarilishini nazarda tutadi. Ishonchli boshqaruv modellari ma'lumotlardan foyda-lanish bilan maxfiylikni himoya qilish o'rtasida muvozanatni topishga intiladi. Ammo ishonchli boshqaruvchilarning majburiyatlari va ijro mexanizmlarini belgilash hamon murakkab masala bo'lib qolmoqda.

*Sui generis ma'lumotlar bazasi huquqlari (Sui Generis Database Rights)*. Yevropa Ittifoqining Ma'lumotlar bazalari to'g'risidagi direktivi ma'lumotlar bazasi yaratuvchilari uchun mualliflik huquqidan alohida noyob "sui generis" huquqini o'rnatdi. Bu huquq ma'lumotlar bazasi mazmuni mualliflik huquqi bilan himoyalansa ham, uni yaratishga qilingan investitsiyalarni himoya qiladi.

*Litsenziyalash tizimlari (Licensing Systems)*. Ba'zilar ma'lumotlar huquqlarini ijodiy asarlar uchun *Ijodiy ommaviylik (Creative Commons)*<sup>47</sup>ga o'xshash litsenziyalash doirasida boshqarishni taklif qilishadi. Creative Commons asoschisi Lourens Lessig ma'lumotlar almashishni rag'batlantirish va ayni paytda yaratuvchilar uchun ma'lum darajada nazoratni saqlab qolish uchun moslashuvchan litsenziyalashni himoya qilgan<sup>48</sup>.

*Ma'lumotlar suvereniteti (Data Sovereignty)* nazariyasi milliy chegaralar doirasidagi ma'lumotlar ustidan davlat nazoratini ta'kidlaydi. Biroq Anupam Chander va Uyên P.Lê'lar ma'lumotlarni mahalliyashtirish qonunlarining ko'payishi tendensiyasi global internetni parchalab yuborishi va ma'lumotlar oqimini to'xtatib qo'yishi mumkinligi haqida ogohlantiradi<sup>49</sup>.

---

<sup>47</sup> Creative Commons litsenziyalari mualliflik huquqi egalari-ga o'z asarlariga nisbatan mualliflik huquqini saqlab qolgan holda, jamoatchilikka ma'lum shartlar asosida ushbu asarlardan foydalanish uchun ruxsat berish imkonini beradi.

<sup>48</sup> Lessig L. Code: And Other Laws of Cyberspace, Version 2.0. New York: Basic Books, 2006.

<sup>49</sup> Chander A., Lê U. P. Data Nationalism // Emory Law Journal. 2015. Vol. 64.

*Axborot maxfiyligi nazariyasi (Information Privacy Theory)*. Daniel J. Solove kabi olimlar ma'lumotlarni himoya qilishni maxfiylik va inson qadr-qimmatini bilan bog'liq asosiy huquq sifatida ta'kidlaydi<sup>50</sup>. Bu nuqtayi nazar shaxsiy huquqlarni himoya qilish uchun ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishni qattiq tartibga solishni qo'llab-quvvatlaydi. Biroq qayd etish lozimki, subyektlarning o'zlari haqidagi barcha ma'lumotlarni mazmunli nazorat qilishlari amalda qiyin bo'lishi mumkin.

*Ommaviy resurs nazariyasi (Public Resource Theory)*ga ko'ra, katta hajmdagi ma'lumotlarni jamoat manfaatlari yo'lida tartibga solinadigan ommaviy resurs sifatida ko'rish kerak. Barbara van Schewick<sup>51</sup> internet arxitekturasi bo'yicha ishlari ma'lumotlarni ochiq foydalanish mumkin bo'lgan infratuzilma sifatida ko'rish fikriga asos bo'ladi.

*Intellectual mehnat nazariyasi (Intellectual Labor Theory)*. Lohk falsafasiga asoslangan bu konsepsiya ma'lumotlarni to'plash va tartibga solish uchun sarflangan mehnat asosida ma'lumotlar huquqlarini oqlaydi. Justin Hughes o'zining "Intellectual mulk falsafasi" maqolasida intellektual mulk huquqlarining bu asoslanishini o'rganadi<sup>52</sup>. Biroq Big Dataning avtomatlashtirilgan to'planishi intellektual ijod tushunchasiga qarshi chiqadi.

*Antiumumiy mulk fojiasi nazariyasi (Anticommons Tragedy Theory)*. Michael Heller ma'lumotlardagi bir-biriga mos kelmaydigan mulk huquqlari qimmatli resurslardan foydalanmaslikka olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantiradi<sup>53</sup>. Bu holat "antiumumiy mulk" muammosi deb ataladi. Ushbu nazariya ma'lumotlarga egalik qilish bo'yicha haddan tashqari qattiq huquqiy rejimlarning salbiy oqibatlariga e'tibor qaratadi.

Bizningcha, Big Data murakkab fenomenligi bois huquqiy rejimini aniqlashtirishda kompleks model zarur. Bu yondashuv qatlamli huquqlar tizimi, ma'lumotlar ishonchli boshqaruvi, litsenziyalash doirasi, nazorat qilinadigan ma'lumotlar oqimlari, kuchaytirilgan

---

<sup>50</sup> Solove D. J. *Understanding Privacy*. Cambridge: Harvard University Press, 2008.

<sup>51</sup> van Schewick B. *Internet Architecture and Innovation*. Cambridge: MIT Press, 2010.

<sup>52</sup> Hughes J. *The Philosophy of Intellectual Property* // *Georgetown Law Journal*. 1988. Vol. 77.

<sup>53</sup> Heller M. *The Gridlock Economy: How Too Much Ownership Wrecks Markets, Stops Innovation, and Costs Lives*. New York: Basic Books, 2008.

maxfiylik kafolatlari, ochiq ma'lumotlar tashabbuslari va *sui generis* himoyani o'z ichiga oladi. Ushbu elementlar ma'lumotlarning ta'sirchanligiga qarab himoya darajasini belgilash, maxfiylikni ta'minlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish, milliy va xalqaro manfaatlar muvozanatini saqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ochiq ma'lumotlar almashinuvini qo'llab-quvvatlash va qimmatli ma'lumotlar bazalarini yaratishga investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan. Bu yondashuv Big Data sohasidagi huquqiy munosabatlarni kompleks tartibga solishga imkon beradi.

Big Dataga nisbatan tatbiq etiladigan huquqiy rejim yuzasidan rus olimlari L.V. Sannikova, Yu.S. Xaritonovalarga ko'ra, Big Dataning huquqiy maqomi noaniq bo'lganligi sababli ular mutlaq huquqlar obyekti bo'la olmaydi, deya qayd etishadi<sup>54</sup>. Shu bilan birga, Big Dataning fuqarolik huquqlari obyektlarining muayyan turi sifatidagi fuqarolik-huquqiy rejimi aniqlanmagan. Bundan tashqari, olimlarning fikricha, "Big Datani to'rt nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin: 1) xizmatdan foydalanish uchun to'lov sifatida; 2) raqobat omili sifatida; 3) bozorga kirish (ekspansiya) to'siqlari sifatida; 4) tovar sifatida"<sup>55</sup>. Bu ham Big Datani fuqarolik huquqlari obyektlarining aynan qaysi turiga kiritish mumkinligini aniqlashga imkon bermaydi. Shubhasiz, iqtisodiyot fani nuqtayi nazaridan Big Datadan foydalanish huquqi begonalashtirilishi mumkin, lekin Big Dataga buyumlar, tovarlar rejimi bilan bir xil rejim berish mumkin emas<sup>56</sup>.

AQSh olimi Jane Yakowitz Bambauer Big Data va uning tarkibidagi ma'lumotlarning ifoda erkinligi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratadi<sup>57</sup>. U ma'lumotlarning, shu jumladan, Big Dataning erkin aylanishi va tarqalishini ta'minlash uchun ularni ifoda erkinligi doirasida himoya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bambauer Big Dataning nomoddiy ne'mat sifatida erkin aylanishini ta'minlash

---

<sup>54</sup> Санныкова Л.В., Харитоновна Ю.С. Цифровые активы: правовой анализ: монография. – М.: 4 Принт, 2020.

<sup>55</sup> Цифровое право: учебник / под общ. ред. В.В. Блажеева, М.А. Егоровой. – С. 123.

<sup>56</sup> Аюшеева И.З. Большие данные: проблемы определения гражданско-правового режима. Lex russica. 2023. Т. 76. № 10. С. 125–134. DOI: 10.17803/1729-5920.2023.203.10.125-134

<sup>57</sup> Bambauer, J.Y. (2014). Is Data Speech. Stan. L. Rev., 66, 57 [https://www.stanfordlawreview.org/wp-content/uploads/sites/3/2014/01/66\\_Stan\\_L\\_Rev\\_57\\_Bambauer.pdf](https://www.stanfordlawreview.org/wp-content/uploads/sites/3/2014/01/66_Stan_L_Rev_57_Bambauer.pdf)

orqali uning iqtisodiy va ijtimoiy qiymatini oshirish mumkinligini qayd etadi.

Big Dataning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ayrim huquqshunos olimlar uni yangi turdagi huquqiy munosabat obyekti sifatida tan olish zarurligini ta'kidlashmoqda. Xususan, rossiyalik olim Aleksey Savelev Big Dataning raqamli huquq obyekti sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatib, uni huquqiy tartibga solishning muammolarini tahlil qilsa<sup>58</sup>, yana bir rossiyalik olim Viktor Naumov Big Data uchun maxsus huquqiy rejim ishlab chiqish taklifini ilgari surib, Big Datani axborot resursi sifatida e'tirof etish va uning yaratilishi, saqlanishi, tarqatilishi va ishlov berishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi<sup>59</sup>.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi va "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlari axborot texnologiyalari sohasidagi munosabatlarni, shu jumladan, axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish, uzatish va foydalanish bilan bog'liq masalalarni tartibga soladi. Xususan, "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, axborot tushunchasi manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni anglatadi. Axborotni esa, o'z navbatida, Big Dataning muhim elementlaridan biri deyish mumkin. Naumovning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, ushbu qonunlarni milliy axborot huquqining asosini tashkil etuvchi asosiy qonunlar deb ta'kidlash mumkin.

Ushbu qonunlarda, xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida axborot resurslari yoki axborot tizimlarining mulkdori – axborot resurslari yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi, axborot resurslari yoki axborot tizimlarining egasi – qonun bilan yoki axborot resurslari, axborot

---

<sup>58</sup> Савелев, А. (2019). Big Data и проблемы защиты неприкосновенности частной жизни в сфере цифровой экономики. Право. Журнал Высшей школы экономики, (5), 43–66.

<sup>59</sup> Наумов, В. (2019). Правовое регулирование Big Data как объекта права. Право. Журнал Высшей школы экономики, (4), 78–96.

tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslari yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi belgilanib, mulk huquqiga xos elementlar sanab o'tilgan<sup>60</sup>.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida, shaxsga doir ma'lumotlar bazasining mulkdori (mulkdor) – shaxsga doir ma'lumotlar bazasiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan davlat organi, jismoniy va (yoki) yuridik shaxsligi<sup>61</sup>, "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida axborot mulkdori – o'z mablag'i yoki boshqa qonuniy yo'l bilan olingan axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsligini ko'zda tutish orqali AQShning "Facebook v. Power Ventures" sud ishi singari Big Data elementlarini mulk sifatida himoya qilish imkoniyatlariga ishora qiladi<sup>62</sup>. Ya'ni yuqoridagi normalar Big Dataning ajralmas qismi bo'lgan elementlar – axborot, shaxsga doir ma'lumotlar bazasi, axborot resurslari mulk huquqi obyektlari ekanligi haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchi bob doirasida Big Dataga nisbatan mulk va mulkiy huquqlar masalasi batafsil muhokama qilinadi.

Big Data tarkibiga fuqarolik huquqlarining turli xil obyektlari – butun bir obyektlar majmuasi kirishi mumkinligi haqida nuqtayi nazar ham mavjud. Shu bilan birga, Big Datani fuqarolik huquqlari obyektlarining mustaqil turi sifatida ajratib ko'rsatish taklif etilgan<sup>63</sup>.

Umuman olganda, bizningcha, Big Data turli xil obyektlarni o'z ichiga oladi, degan fikrga qo'shilish mumkin. Ya'ni Big Datani turli elementlarni o'z ichiga olgan murakkab fuqarolik huquqi obyektini deyish mumkin.

Big Dataning mulk huquqi obyektini sifatidagi qarashlarga nisbatan intellektual mulk huquqi obyektini sifatida tan olinishi masalasi bugungi kunda ko'proq e'tirof etilmoqda.

---

<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni (2003).

<sup>61</sup> O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (2019).

<sup>62</sup> O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (2002).

<sup>63</sup> Право цифровой среды: монография / под ред. Т.П. Подшивалова, Е.В. Титовой, Е.А. Громовой. – М.: Проспект, 2022. – С. 480.

Xususan, amerikalik olim Ieuan Mahony Big Data bazalarini intellektual mulk huquqi obyektini sifatida tasniflash masalalarini ko'rib chiqadi<sup>64</sup>. U Big Data bazalarini mualliflik huquqi, ma'lumotlar bazasi huquqiy muhofazasi (*sui-generis huquq*) va tijorat sirlari kabi intellektual mulk huquqlari doirasida himoya qilish imkoniyatlarini tahlil qiladi. U Big Data bazalarining tuzilishi, tarkibi va originalligiga ko'ra intellektual mulk huquqi obyektini sifatida tan olinishi mumkinligi qayd etadi.

Marcus Schirling Big Data algoritmlari va sun'iy intellekt tizimlarini tijorat sirlari sifatida himoya qilish masalalarini ko'tarib chiqadi<sup>65</sup>. U Big Data algoritmlarining yangiligi, qiymati va maxfiyligini ta'minlash orqali ularni tijorat sirlari sifatida intellektual mulk obyektlariga xos muhofazani nazarda tutib, Big Data algoritmlari va sun'iy intellekt tizimlarini patentlashni ilgari suradi.

Xuddi shuningdek, Yelena Voynikanis Big Data algoritmlari va dasturlarini intellektual mulk huquqi obyektini sifatida himoya qilish masalalarini ko'rib chiqadi. U ham Big Data algoritmlarini patentlash va ularni kompyuter dasturlari sifatida mualliflik huquqi bilan himoyalash imkoniyatlarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, u Big Data sohasida ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar va yechimlarni intellektual mulk sifatida himoyalashning ahamiyatini ochib beradi<sup>66</sup>.

AQSh Oliy sudi 2014-yildagi "*Alice Corp. v. CLS Bank International*" sud ishida dasturiy ta'minotga nisbatan patent berish mezonlarini muhokama qildi<sup>67</sup>. Sud dasturiy ta'minot patentining qonuniyligi uchun uning yangi, noaniq va texnik yechim bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Ushbu qaror Big Data sohasidagi dasturiy ta'minot va algoritmlarni intellektual mulk obyektlari sifatida patentlash imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatdi.

Yevropa Ittifoqi Sudi 2013-yilda "*SAS Institute Inc. v World Programming Ltd*" sud ishida dasturiy ta'minotni mualliflik huquqi

---

<sup>64</sup> Mahony, I., et al. (2020). Intellectual Property Rights in Data. UC Berkeley Public Law Research Paper.

<sup>65</sup> Schirling, M. (2020). Protecting Artificial Intelligence and Big Data Innovations under Trade Secrets Laws. UC Irvine Law Review, Forthcoming.

<sup>66</sup> Анатольевна, В. Е. (2020). *Регулирование Больших данных и право интеллектуальной собственности: общие подходы, проблемы и перспективы развития*. 7, 135–156. <https://publications.hse.ru/articles/385883731>

<sup>67</sup> *Alice Corp. v. CLS Bank International*, 573 U.S. 208 (2014)

bilan himoya qilish masalasini ko'rib chiqdi<sup>68</sup>. Sud funksional dasturiy ta'minot g'oyasining o'zini emas, balki uning manbalarini mualliflik huquqi bilan himoyalash mumkinligini ta'kidladi. Ushbu qaror ham Big Data algoritmlari va dasturiy ta'minotini mualliflik huquqi bilan himoya qilish doirasini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi Sudi 2018-yildagi "*Levola Hengelo BV v Smilde Foods BV*" sud ishida ma'lumotlar bazasini sui-generis huquq bilan himoyalash shartlarini ko'rib chiqdi<sup>69</sup>. Sud ma'lumotlar bazasining sezilarli investitsiya natijasida yaratilganligi va axborotni to'plash, tekshirish yoki taqdim etishda sifat yoki miqdor jihatidan muhim hissa qo'shganligini sui-generis huquqning muhim mezonlari sifatida e'tirof etib, fuqarolik huquqining intellektual mulk obyekti sifatida muhofaza etilishini belgilab berdi.

AQSh huquqshunos olimi Jane Ginsburg Big Data bazalarini mualliflik huquqi obyekti sifatida himoya qilish masalalarini tahlil qiladi<sup>70</sup>. U Big Data bazalarining originallik mezonlariga javob berishi va muallifning intellektual mehnatini aks ettirishi sharti bilan mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ginsburg Big Data bazalarini yaratishda sarflangan mehnat va investitsiyalarni inobatga olgan holda, ularni sui-generis huquq orqali himoyalash zarurligini ham qayd etadi.

Rossiyalik olim Andrey Kashanin ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi va sui-generis huquq bilan himoya qilish masalalarini tahlil qiladi<sup>71</sup>. U Big Data bazalarini yaratishda sarflangan mehnat va investitsiyalarni hisobga olgan holda, ularni sui-generis huquq orqali himoyalash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

A.P. Sergeev, T.A. Tereshchenko ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi obyekti deb hisoblash mumkin emas, ammo turdosh huquqlar rejimi ham Big Datadan foydalanish munosabatlarini tegishli tartibga solish uchun to'liq mos kelmaydi, deb hisoblaydi<sup>72</sup>.

---

<sup>68</sup> Case C-406/10, SAS Institute Inc. v World Programming Ltd, ECLI:EU:C:2012:259

<sup>69</sup> Case C-310/17, Levola Hengelo BV v Smilde Foods BV, ECLI:EU:C:2018:899

<sup>70</sup> Ginsburg, J.C. (2020). Big Data and the Intellectual Property Rights. In Big Data and Global Trade Law (pp. 315-328). Cambridge University Press.

<sup>71</sup> Kashanin, A. (2019). The Legal Status of Machine-generated Data: The Problem of Database Protection. law. Journal of the Higher School of Economics, (4), 50-77.

<sup>72</sup> Сергеев А.П., Терещенко Т.А. Указ. соч.

E.A. Voynikanis, V.O. Kalyatin ma'lumotlar bazalariga mualliflik huquqi obyektini rejimini qo'llash to'liq asoslangan emas, deb ta'kidlaydi<sup>73</sup>.

L.Yu. Vasilevskaya nuqtayi nazariga ko'ra, Big Data fuqarolik huquqlari obyektini sifatida mustaqil murakkab yaxlit bo'linmas obyekt (yaxlit texnologiya) sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Uning tarkibiga turli xil qonun bilan qo'riqlanadigan intellektual faoliyat natijalari kirishi mumkin. Ular tufayli Big Data ma'lumotlar bazasi sifatida namoyon bo'ladi. Big Dataning majburiy elementi sun'iy intellekt hisoblanadi. Big Datani Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksida mustahkamlangan intellektual faoliyat natijalari ro'yxatiga kiritishni taklif etadi<sup>74</sup>.

Bizningcha ham, L.Yu. Vasilevskaya fikrini qo'llab-quvvatlagan holda, Big Data va uning elementlarini intellektual faoliyat natijalariga xos nomoddiy ko'rinishga egaligi hamda ko'p marotaba foydalanish imkoniyati va nusxa ko'chirish osonligi va boshqa yuqorida to'xtab o'tilgan xususiyatlari sababli umumiy jihatdan fuqarolik huquqi obyektini, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, mualliflik huquqi, sui generis, patent, tijorat sirlari bilan muhofaza etiladigan intellektual mulk obyektlari deyish mumkin (Keyingi bobda mulk huquqi va intellektual mulk huquqi obyektlari sifatida alohida tadqiq etiladi).

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1043-moddasi<sup>75</sup>, 2006-yil 20-iyuldagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga<sup>76</sup> ko'ra, materiallarning tanlanganligi yoki joylashtirilganligiga ko'ra, ijodiy mehnat natijasi bo'lgan jamlanma asarlar sifatida ma'lumotlar bazalari mualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi. Bundan tashqari, "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida vazifasi va afzalliklaridan qat'i nazar, obyektiv shaklda ifodalangan, bosib

---

<sup>73</sup> Войниканис Е.А., Калятин В.О. База данных как объект правового регулирования: учеб. пособие для вузов. – М.: Статут, 2011.

<sup>74</sup> Василевская Л.Ю., Подузова Е.Б., Тасалов Ф.А. Указ. соч. – С. 25.

<sup>75</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (2023).

<sup>76</sup> O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni (2006).

chiqarilgan hamda bosib chiqarilmagan, muallif (hammualliflar) ijodiy faoliyatining natijasi bo'lgan EHM uchun yaratilgan har qanday dasturlar va ma'lumotlar bazalariga nisbatan mualliflik huquqi tatbiq etilishi, EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasiga mualliflik huquqi toki aksi isbotlanmagunga qadar saqlanib qolishi belgilangan<sup>77</sup>.

Shu o'rinda milliy qonunchilikda huquqdagi dilemma<sup>78</sup>ni kuzatish mumkin. Garchand yuqoridagi normalarda ma'lumotlar bazasiga nisbatan mualliflik huquqi tatbiq etilishi nazarda tutilsa-da, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunda shaxsga doir ma'lumotlar bazasi mulkdori tushunchasi, ya'ni ma'lumotlar bazasiga nisbatan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini o'zida ifodalaydigan mulk huquqi haqida qoidalar keltirib o'tiladi. Ushbu paragraf doirasida olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib hamda Big Data elementlari, jumladan, ma'lumotlar bazasining o'ziga xos shakliy xususiyatlariga tayanib, aytish mumkinki, shaxsiy ma'lumotlar bazalariga nisbatan shaxsda intellektual faoliyat natijalaridan kelib chiqadigan mulkiy huquqlar paydo bo'lishi mumkin, biroq mulk huquqlari emas.

Shu bois "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonundagi "mulkdor" sifatida e'tirof etadigan normalarni bartaraf etish va tegishli milliy qonunchilik normalariga muvofiqlashtirish talab etiladi. Keyingi boblarda tegishli taklif va tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Amaldagi milliy va xorijiy qonunchilik hamda Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimini aniqlashga qaratilgan doktrinal yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi bosqichda Big Data fuqarolik huquqlari obyektlarining muayyan turi sifatida aniq ifodalanmagan. Big Datani intellektual mulk huquqlari obyektlarining mustaqil murakkab turiga kiritish imkoniyati to'g'risidagi qarash eng muvozanatlashtirilgan qarashdir.

Demak, Big Data va uning elementlarining fuqarolik huquqi obyekti sifatidagi o'rni, huquqiy maqomi, unga nisbatan huquqlar,

---

<sup>77</sup> O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi. <https://lex.uz/docs/-143983>

<sup>78</sup> <https://academic.oup.com/book/10574/chapter-abstract/158527437?redirectedFrom=fulltext>

xususan, fuqarolik huquqlari, huquqiy himoyasi xususida qator tadqiqotlar olib borilib, doktrinal qarashlar yetarli darajada shakllangan deyish mumkin. Davlatlar huquqi va amaliy tajribasida, shu jumladan, milliy huquqda Big Data elementlari, xususan, ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlar, Big Dataga xizmat qiladigan dasturiy ta'minot va boshqalarning fuqarolik huquqi tizimidagi o'rni, xususan, ularga nisbatan mulkiy huquqlar masalasi aniq belgilanib, huquqiy muhofazasi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, biroq bevosita Big Datani fuqarolik huquqining obykti sifatida ko'rib chiqadigan, unga nisbatan mulk huquqi yoki mulkiy huquq masalalarini tartibga soladigan maxsus qonun hujjati ishlab chiqilmaganligini ko'rish mumkin. Bunga esa Big Dataning o'ziga xos murakkab tuzilishini sabab qilib keltirish mumkin. O'z navbatida, bu holat tadqiqotchi va amaliyotchilarning oldiga ulkan vazifalar qo'yadi.

### **1.3-§. Big Data doirasida shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi va mohiyati**

Big Data texnologiyalari rivojlanishi bilan dunyoda to'planayotgan shaxsiy ma'lumotlar hajmi keskin oshib bormoqda. Bugungi kunda turli sohalarda yuzaga kelayotgan katta hajmdagi ma'lumotlar oqimining sezilarli qismini aynan shaxsiy ma'lumotlar tashkil etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda dunyoda har kuni 2,5 kvadrillion (2,51015) bayt ma'lumot yaratilgan. 2025-yilda bu ko'rsatkich 463 eksabaytga (4631018 bayt) yetishi kutilmoqda. Ushbu ulkan ma'lumotlar massivining taxminan 20–30 foizini shaxsiy ma'lumotlar tashkil etadi<sup>79</sup>.

Ayrim tadqiqotlarning natijalari shaxsiy ma'lumotlarning yanada yuqori ulushini ko'rsatmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining 2020-yilgi hisobotiga ko'ra, yirik kompaniyalar tomonidan to'plangan ma'lumotlarning qariyb 80 foizi shaxsiy ma'lumotlar hisoblanadi<sup>80</sup>.

---

<sup>79</sup> Reinsel, D., Gantz, J., & Rydning, J. (2018). The Digitization of the World – From Edge to Core. IDC White Paper. <https://www.seagate.com/files/www-content/our-story/trends/files/idc-seagate-dataage-whitepaper.pdf>

<sup>80</sup> European Commission. (2020). Report on the Application of the General Data Protection Regulation. [https://ec.europa.eu/info/law/law-topic/data-protection/communication-two-years-application-general-data-protection-regulation\\_en](https://ec.europa.eu/info/law/law-topic/data-protection/communication-two-years-application-general-data-protection-regulation_en)

Shvetsiyaning Stokgolm universiteti tadqiqotchilarining hisob-kitoblariga ko'ra, har bir internet foydalanuvchisining o'rtacha 1,5 GB hajmda shaxsiy ma'lumotlari onlayn joylashgan. Taxminan 5 milliard internet foydalanuvchisi mavjudligini inobatga olsak, bu qariyb 7,5 million TB yoki 7,5 eksabayt shaxsiy ma'lumotlar deganidir.

Shu bilan birga, mavjud statistik ma'lumotlar va tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, Big Data doirasida shaxsiy ma'lumotlar hajmi va ulushi izchil oshib bormoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish va ulardan foydalanishning yangi imkoniyatlari paydo bo'lishi bilan bu ko'rsatkichlar yanada oshishi kutilmoqda. Demak, shaxsiy ma'lumotlar nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham Big Data muhitining ajralmas va muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Big Data tufayli shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi va uning doirasi sezilarli darajada kengaymoqda. An'anaviy tarzda shaxsiy ma'lumotlar deganda, jismoniy shaxsni bevosita identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma'lumotlar, jumladan, ism-familiya, tug'ilgan sana, yashash manzili kabilar tushunilgan bo'lsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oluvchi katta hajmdagi ma'lumotlar to'planishiga olib kelmoqda. Big Data kontekstida shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi o'zining an'anaviy chegaralaridan chiqib, yangi ma'no va xususiyatlarga ega bo'lmoqda.

AQSh Savdo vazirligi huzuridagi Internet siyosati bo'yicha tahlil markazi (NTIA) tomonidan 2018-yilda e'lon qilingan "Shaxsiy ma'lumotlar ekotizimini tushunish" nomli hisobot<sup>81</sup>da, hozirgi kunda shaxsiy ma'lumotlar nafaqat shaxsni bevosita identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlar, balki uning xulq-atvori, qadriyatlari, turmush tarzi, ijtimoiy aloqalari kabi ko'plab jihatlarni qamrab oluvchi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi, bunday ma'lumotlar asosida jismoniy shaxs haqida juda batafsil profil yaratish va uni turli maqsadlarda ishlatish imkoniyati paydo bo'layotganligi qayd etiladi.

Yevropa Ittifoqining 2016/679-sonli Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) shaxsiy ma'lumotlar tushunchasiga yangicha yondashuv joriy etdi<sup>82</sup>. GDPR 4-moddasiga ko'ra, "shaxsiy

---

<sup>81</sup> NTIA. (2018). Developing the Administration's Approach to Consumer Privacy.

<sup>82</sup> Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data, and repealing Directive 95/46/EC (General Data Protection Regulation).

ma'lumotlar" deganda, aniqlangan yoki aniqlanishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxsga taalluqli har qanday ma'lumot tushuniladi. Bunda shaxsni aniqlash bevosita yoki bilvosita, xususan, ism, identifikatsion raqam, joylashuv ma'lumotlari, onlayn identifikator yoki uning jismoniy, fiziologik, genetik, ruhiy, iqtisodiy, madaniy yoki ijtimoiy o'ziga xosligiga oid bir yoki bir nechta omil orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu keng ta'rif shaxsiy ma'lumotlar doirasini sezilarli ravishda kengaytiradi va zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida ularning xilma-xilligini hisobga oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasidagi ta'rifga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot<sup>83</sup>. Mazkur ta'rif umumiy xarakterga ega bo'lib, shaxsiy ma'lumotlarning aniq doirasini belgilamaydi. Bu esa milliy qonunchilikda shaxsiy ma'lumotlar tushunchasini yanada aniqlashtirish va uning chegaralarini belgilash zaruratini ko'rsatadi.

Rossiyalik olim S.V. Petruhin shaxsiy ma'lumotlarning turli toifalari va ularning huquqiy himoyasi masalalarini ko'rib chiqadi<sup>84</sup>. Uning fikricha, Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni toifalarga ajratish va ularning ayrimlarini maxsus himoyaga olish amaliyoti o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Bugungi kunda deyarli har qanday ma'lumotni shaxs bilan bog'lash va uni identifikatsiya qilish uchun ishlatish mumkin. Shu sababli Big Data sharoitida barcha turdagi shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan yagona yondashuvni qo'llash va ularning barchasini bir xilda himoya qilish zarurati paydo bo'ladi.

Hindistonlik tadqiqotchilar S. Goel va N. Chawla Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlar transformatsiyasi masalalarini ko'rib chiqadilar<sup>85</sup>. Ular shaxsiy ma'lumotlar sifatida qaralishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumotga nisbatan maxfiylik va himoya kafolatlarini ta'minlash zarurati paydo bo'lishini qayd etishadi.

---

<sup>83</sup> O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (2019).

<sup>84</sup> Petruhin, S.V. (2020). Personal data protection issues in the context of Big Data technology development. Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения, (4), 27–38.

<sup>85</sup> Goel, S., & Chawla, N. (2021). The Evolution of the Personal Data Ecosystem. In *Advances in Computers* (Vol. 122, pp. 135-171). Elsevier.

AQShning “*United States v. Jones*” sud ishida oliy sud shaxsiy ma’lumotlar tushunchasining chegaralarini yanada kengaytirdi<sup>86</sup>. Ushbu ishda oliy sud politsiya tomonidan transport vositasiga o’rnatilgan GPS-kuzatuv qurilmasi yordamida shaxsning joylashuvi va harakati haqidagi ma’lumotlarni to’plash Konstitutsiyaning to’rtinchi tuzatmasida kafolatlangan xususiy hayot daxlsizligi huquqining buzilishi deb topdi. Sud qarori shaxsiy ma’lumotlar doirasiga nafaqat shaxsni bevosita identifikatsiya qiluvchi ma’lumotlar, balki uning joylashuvi va harakati haqidagi ma’lumotlar ham kirishini tasdiqladi.

Paul M. Schwartz Big Data kontekstida shaxsiy ma’lumotlarning quyidagi turlarini ajratib ko’rsatadi: *aniq identifikatsiya qiluvchi ma’lumotlar* (ism, identifikatsion raqam), kvazi-identifikatorlar (tug’ilgan sana, jins, pochta indeksi), *noaniq shaxsiy ma’lumotlar* (qiziqishlar, xarid tarixi) va *o’ta shaxsiy ma’lumotlar* ( irq, din, sog’liq holati)<sup>87</sup>. Shvarts Big Data sharoitida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishda ushbu ma’lumotlar turlarining o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Y.S. Salkova Big Data texnologiyalari shaxsiy ma’lumotlarning yangi turlarini yuzaga keltirishi va mavjud ma’lumotlarga ishlov berish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Big Data sharoitida shaxsiy ma’lumotlarning hajmi, xilma-xilligi va ishlov berish tezligining oshishi ularning himoya qilinishini ta’minlashda yangi yondashuvlar talab qiladi.

Big Data texnologiyalarining rivojlanishi bilan shaxsiy ma’lumotlar tushunchasi va uning chegaralari haqiqatda sezilarli darajada kengaymoqda. Endi shaxsiy ma’lumotlar sifatida nafaqat aniq identifikatsiya ma’lumotlari, balki shaxsning xulq-atvori, qadriyatlarini, ijtimoiy aloqalari kabi murakkab va dinamik ma’lumotlar ham qaralmoqda. Bunday keng qamrovli ma’lumotlarni to’plash va ishlov berish, o’z navbatida, yangi xavf-xatarlar va muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda shaxsiy ma’lumotlar tushunchasini huquqiy jihatdan aniqlashtirish va uning himoya mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb

---

<sup>86</sup> United States v. Jones, 565 U.S. 400 (2012).

<sup>87</sup> Schwartz, P. M. (2018). Information Privacy Law. Wolters Kluwer Law & Business.

ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida bu borada turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ayrim davlatlar shaxsiy ma'lumotlar doirasini kengaytirish va qat'iy belgilashga intilayotgan bo'lsa, boshqalari esa uning chegaralarini moslashuvchan va dinamik tarzda belgilashga harakat qilmoqda.

Xususan, Yevropa Ittifoqi Asosiy huquqlar agentligi (FRA) tomonidan 2020-yilda e'lon qilingan *"Asosiy huquqlar va sun'iy intellekt"* hisobotida shaxsiy ma'lumotlar tushunchasi va chegaralarining o'zgarishi sun'iy intellekt texnologiyalari kontekstida tahlil qilindi. Hisobotda ta'kidlanishicha, sun'iy intellekt tizimlari shaxslarning xulq-atvori, qadriyatlarini, hissiyotlari kabi murakkab va noaniq ma'lumotlarni ham tahlil qilish hamda bashorat qilish imkoniyatiga ega. Natijada shaxsiy ma'lumotlar doirasi yanada kengayib, inson shaxsining eng yashirin va nozik jihatlari ham ushbu doiraga kirib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ushbu ma'lumotlarni himoya qilishning yangi usul va mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Qayd etish lozimki, Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan shaxsiy ma'lumotlar va ularning manbalari tobora xilma-xil va murakkab bo'lib bormoqda. Agar ilgari, asosan, aniq va moddiy ma'lumotlar (hujjatlar, yozishmalar va h.k.) shaxsiy ma'lumotlar sifatida qaralgan bo'lsa, endi virtual faoliyat, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar, biometrik va geolokatsiya ma'lumotlari ham ushbu toifaga kirib qoldi. Bunday sharoitda shaxsiy ma'lumotlarning huquqiy rejimini belgilash va ularni samarali himoya qilish yanada murakkablashadi.

Yaponiyalik olimlar K. Isida va T. Matsui<sup>88</sup>larning fikricha, zamonaviy raqamli texnologiyalar shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, uzatish va ishlov berish jarayonlarini tubdan o'zgartirdi. Endi shaxsiy ma'lumotlar faqatgina aniq va yakuniy emas, balki dinamik va kontekstga bog'liq xarakterga ega bo'lib qoldi. Ma'lumotlarning shaxsiy yoki noshaxsiy ekanligi ularning konteksti va ishlatilish maqsadlariga qarab o'zgarishi mumkin. Shu sababli Yaponiya qonunchiligida shaxsiy ma'lumotlar tushunchasini aniq belgilash

---

<sup>88</sup> Isida, K., & Matsui, T. (2020). Redefining Personal Data in the Digital Society. *Information*, 11(2), 100.

o'rniga, uning chegaralarini moslashuvchan va dinamik tarzda belgilash yondashuvi qo'llanmoqda.

O'zbekiston qonunchiligida ham shaxsiy ma'lumotlar tushunchasini zamonaviy voqelikka moslashtirish va uning himoya mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususan, milliy qonunchilikka shaxsiy ma'lumotlarning zamonaviy turlari va manbalarini hisobga olgan holda o'zgartishlar kiritish, maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlarni alohida tartibga solish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda zamonaviy texnologik yechimlar qo'llash kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, shaxsiy ma'lumotlarning huquqiy rejimini belgilashda ularning konteksti va ishlatilish maqsadlarini hisobga olish, himoya mexanizmlarini esa ma'lumotlarning xarakteri va ta'sirchanlik darajasiga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsiy ma'lumotlarning zamonaviy turlarini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi ikkinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq: ***“Shaxsga doir ma'lumotlar – shaxsning biometrik ma'lumotlari, sog'lig'i va fiziologik holati haqidagi ma'lumotlar, genetik ma'lumotlari, geolokatsiya ma'lumotlari, shaxsning onlayn faoliyati va raqamli izi bilan bog'liq ma'lumotlar hamda shaxsni aniqlash yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini beruvchi har qanday ma'lumot”.***

Bir qator olimlar Big Data va sun'iy intellekt sharoitida shaxsiy ma'lumotlar doirasi kengayishini e'tirof etib, uning klassifikatsiyasini ilgari surmoqda.

Xususan, amerikalik olim Paul M. Schwartz Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlarning asosiy turlarini tahlil qilib<sup>89</sup>, ularni identifikatsiya ma'lumotlari, demografik ma'lumotlar, xulq-atvor ma'lumotlari, psixografik ma'lumotlar, ijtimoiy ma'lumotlar kabi turlarga bo'ladi.

Yevropada ham shaxsiy ma'lumotlarning turlari masalasi faol muhokama qilinmoqda. Yevropa Ittifoqining 2016/679-sonli Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) shaxsiy ma'lumotlarning keng doirasini qamrab oladi. GDPR 9-moddasiga ko'ra, maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlar alohida himoyaga

---

<sup>89</sup> Schwartz, P. M. (2004). Property, privacy, and personal data. Harv. L. Rev., 117, 2056.

olinishi lozim<sup>90</sup>. Bunday ma'lumotlarga shaxsning irqiy yoki etnik kelib chiqishi, siyosiy qarashlari, diniy yoki falsafiy e'tiqodi, kasaba uyushmasi a'zoligi, genetik ma'lumotlari, biometrik ma'lumotlari, sog'lig'i, jinsiy hayoti yoki jinsiy yo'naltirilganligi haqidagi ma'lumotlar kiradi.

Rossiyalik tadqiqotchi A.V. Minbaleev shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy jihatdan tasniflashning ahamiyatini ta'kidlaydi<sup>91</sup>. Uning fikricha, shaxsiy ma'lumotlarning turlarini aniq belgilash va ularning har biri uchun mos himoya rejimini joriy etish huquqiy tartibga solishning muhim shartidir. Minbaleev shaxsiy ma'lumotlarni quyidagi asosiy turlarga ajratishni taklif qiladi: umumiy toifadagi shaxsiy ma'lumotlar, maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlar, biometrik shaxsiy ma'lumotlar, ishonchli toifadagi shaxsiy ma'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida ham shaxsiy ma'lumotlar turlari masalasi o'z ifodasini topgan. Qonunning 25-moddasiga asosan, shaxsiy ma'lumotlarni umumiy va maxsus toifadagi ma'lumotlarga bo'lish mumkin<sup>92</sup>. Maxsus toifadagi ma'lumotlarga shaxsning irqiy yoki ijtimoiy kelib chiqishiga oid ma'lumotlar, siyosiy, diniy yoki dunyoqarashga oid e'tiqodlar, siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalariga a'zolik to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, jismoniy yoki ruhiy (psixik) salomatlikka taalluqli ma'lumotlar, shaxsiy hayot va sudlanganlik bilan bog'liq ma'lumotlar kiradi. Bunday ma'lumotlar alohida himoya rejimiga ega bo'lib, ularga ishlov berish faqat shaxsning yozma roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Garchand ushbu moddada umumiy ma'lumotlar tushunchasi, unga oid ma'lumotlar turlari sanalmagan bo'lsa-da, maxsus ma'lumotlarni alohida sanash orqali qolgan ma'lumotlar umumiylikiga ishora qilmoqda. Demak, maxsus toifadagi ma'lumotlar

---

<sup>90</sup> Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data, and repealing Directive 95/46/EC (General Data Protection Regulation).

<sup>91</sup> Минбалеев, А.В. (2018). Теоретические основания формирования права больших данных (Big Data). Вестник УрФУ. Безопасность в информационной сфере, (2), 67-73.

<sup>92</sup> O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (2019).

ta'rifidan kelib chiqib hamda yuqorida qayd etilgan ilg'or tajribalar asosida aytishimiz mumkinki, subyektning roziligi bilan erkin foydalanilishi mumkin bo'lgan yoki maxfiylikka rioya etishga doir talablar tatbiq etilmaydigan ma'lumotlar umumiy ma'lumotlar, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, hamma foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar degan xulosaga keldik. Ushbu mualliflik ta'rifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risida"gi nizomning 5-bandi o'ninchi xatboshisini ishlab chiqishda inobatga olinganligini qayd etishimiz o'rinlidir. Bundan tashqari, ushbu tushunchani "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlarning turlari xilma-xil va ko'p qirrali bo'lib, ularni tasniflash va tegishli himoya rejimini belgilash huquqiy tartibga solishning muhim shartidir. Xalqaro va chet el qonunchilik hujjatlarida umumiy va maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlar ajratib ko'rsatiladi hamda maxsus toifadagi ma'lumotlar uchun yuqori himoya standartlari belgilanadi. O'zbekiston qonunchiligi ham, yuqorida qayd etilganidek, shaxsiy ma'lumotlar turlarini tasniflashga e'tibor qaratib, ularni himoya qilish mexanizmlarini shakllantirishga intilishi lozim.

Amerikalik tadqiqotchilar K. Grantz va E. Reinsel Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlar identifikatsiyasi va maxfiyligini ta'minlash muammolarini o'rganadi<sup>93</sup>. Ularning fikricha, zamonaviy raqamli texnologiyalar kontekstida an'anaviy identifikatorlar (nom, manzil va boshqalar) o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Endi shaxsni identifikatsiya qilish uchun uning raqamli "izi", ya'ni onlayn faoliyati, xarid tarixi, ijtimoiy aloqalari kabi ko'plab ma'lumotlar ishlatilishi mumkin. Bunday sharoitda shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash uchun an'anaviy usullar yetarli emas va yangi yondashuvlar talab etiladi.

---

<sup>93</sup> Gantz, J., & Reinsel, D. (2012). The digital universe in 2020: Big Data, bigger digital shadows, and biggest growth in the far east. IDC iView: IDC Analyze the future, 2007(2012), 1-16.

Yevropa Ittifoqining 2019-yildagi “Maxfiylik va ma’lumotlarni himoya qilish huquqi” hisobotida hozirgi vaqtda shaxsiy ma’lumotlarning yangi turlari, jumladan, biometrik, genetik va geolokatsiya ma’lumotlari faol ishlatilayotgani qayd etiladi<sup>94</sup>. Ushbu ma’lumotlar shaxsning o’ziga xos va o’zgarmas xususiyatlarini aks ettiradi hamda yuqori aniqlikdagi identifikatsiya imkonini beradi. Hisobotda ta’kidlanishicha, bunday ma’lumotlar o’ta sezgir xarakterga ega bo’lib, ularning maxfiylikni ta’minlash va suiiste’mollikning oldini olish uchun maxsus himoya choralari talab etiladi.

E.V. Talapina zamonaviy Big Data texnologiyalari sharoitida shaxsiy ma’lumotlarning o’ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi<sup>95</sup>. Uning fikricha, raqamli iqtisodiyot shaxsiy ma’lumotlarga nisbatan ikki xil yondashuvni shakllantirmoqda. Birinchi yondashuv shaxsiy ma’lumotlarni fundamental huquq sifatida e’tirof etib, ularning maxfiylikni ta’minlashga qaratilgan. Ikkinchi yondashuv esa shaxsiy ma’lumotlarni iqtisodiy resurs sifatida ko’rib, ulardan fuqarolik huquqi kategoriyasi sifatida tijorat maqsadlarida foydalanishni nazarda tutadi. Talapinaning fikricha, har ikkala yondashuvning ham o’ziga xos asoslari bor, lekin ularni muvozanatlash va uyg’unlashtirish talab etiladi. Zero, milliy olimimiz O. Oqyulov ta’kidlaganidek, har qanday huquq, shaxsiy bo’ladimi yoki mulkiy, huquq subyekti uchun muayyan ahamiyatga ega<sup>96</sup>.

Yaponiyalik tadqiqotchi T. Hayashi IoT texnologiyalarining rivojlanishi bilan shaxsiy ma’lumotlarning yangi turlari paydo bo’layotganini ta’kidlaydi<sup>97</sup>. IoT qurilmalari shaxslarning kundalik hayoti va faoliyati haqida doimiy ravishda ma’lumot to’playdi. Bunday ma’lumotlar orasida shaxsning joylashuvi, harakati, uy sharoitidagi xatti-harakatlari kabi o’ta shaxsiy va sezgir ma’lumotlar ham bor. Hayashi bunday ma’lumotlarni himoya qilish uchun maxsus huquqiy

---

<sup>94</sup> FRA. (2019). Data Protection and Privacy.

<sup>95</sup> Талапина, Е.В. (2019). Защита персональных данных в цифровую эпоху: российское право в европейском контексте. Труды Института государства и права Российской академии наук, 14. (5), 117–150.

<sup>96</sup> Оқулов, О. (2023). Ijodkor muallifning ish beruvchi yoki buyurtmachi bilan o’zaro munosabatlarida mualliflik huquqlari ustuvorligini huquqiy ta’minlash masalalari. *Yuridik Fanlar Axborotnomasi*, 3(1), 53–61. <https://doi.org/10.51788/tsul.rols.2022.6.2./dlsj3579>

<sup>97</sup> Hayashi, T. (2018). IoT and Protection of Personal Data in Japan. *Data Protection and Privacy Under Pressure: Transatlantic tensions, EU surveillance, and Big Data*, 327–342.

mexanizmlarni ishlab chiqish, shuningdek, IoT qurilmalarining o'zida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish zarurligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, Big Data texnologiyalari shaxsiy ma'lumotlarning yangi turlarini yuzaga keltirmoqda. Bunday ma'lumotlar orasida shaxsning xulq-atvori, qadriyatlarini, psixologik xususiyatlari, iste'mol odatlari kabi murakkab va noaniq ma'lumotlar ham bor. IoT texnologiyalari esa shaxsning kundalik hayoti va faoliyati haqidagi o'ta shaxsiy va ta'sirchan ma'lumotlarni to'plash imkonini bermoqda. Ushbu yangi turdagi shaxsiy ma'lumotlar maxfiylik va xavfsizlikni ta'minlashga nisbatan yangicha yondashuvlar talab qiladi.

Shaxsiy ma'lumotlar huquqiy himoyasining asosiy maqsadi jismoniy shaxslarning xususiy hayoti va shaxsiy daxlsizligini ta'minlashdan iborat. Ayni paytda zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida shaxsiy ma'lumotlardan tijorat maqsadlarida foydalanish tendensiyasi ham kuchaymoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning yangi turlari paydo bo'lishi va ularning iqtisodiy qiymati ortib borishi bu boradagi munozaralarni yanada faollashtirib yubordi.

Qonunchilikda shaxsiy ma'lumotlarning barcha turlarini qamrab olish va har bir tur uchun maqbul himoya darajasini belgilash dolzarb masala hisoblanadi. Buning uchun shaxsiy ma'lumotlarni tasniflashning aniq va asoslangan mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi. Xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlarida shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi darajasiga ko'ra, umumiy va maxsus toifalarga ajratiladi. Biroq Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlar shunchalik xilma-xil va murakkab bo'lib bormoqdaki, ularni aniq toifalarga ajratish va tegishli himoya rejimini belgilash qiyinlashmoqda.

Yevropa Ittifoqi Sudi (CJEU) 2014-yildagi *“Google Spain SL, Google Inc. v. Agencia Española de Protección de Datos (AEPD), Mario Costeja González”* sud ishida shaxsiy ma'lumotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Ushbu ishda Sud *“unutilish huquqi” (right to be forgotten)* konsepsiyasini ilgari surdi. Unga ko'ra, jismoniy shaxslar o'zlari haqidagi ma'lum ma'lumotlarni qidiruv tizimlari natijalari orasidan olib tashlashni talab qilish huquqiga ega. Sud ushbu huquqni shaxsiy hayot va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish huquqining ajralmas qismi sifatida e'tirof etdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega<sup>98</sup>. Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishi, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Ushbu konstitutsiyaviy norma shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning milliy konstitutsion kafolati sifatida xizmat qiladi.

AQSh Oliy sudining 2018-yildagi "*Carpenter v. United States*" sud ishida mobil telefon joylashuvi haqidagi ma'lumotlarning himoya qilinishi masalasi ko'rib chiqildi<sup>99</sup>. Oliy sud bunday ma'lumotlarning ham konstitutsiyaviy himoyaga olinishi lozimligi, ularni qo'lga kiritish uchun sud orderining zarurligini ta'kidladi. Ushbu ish shaxsiy ma'lumotlar tushunchasiga jismoniy shaxsning raqamli "*izi*" ham kirishini ko'rsatdi hamda bunday ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash davlat organlarining majburiyati ekanligini tasdiqladi.

Katta hajmdagi va xilma-xil ma'lumotlar bilan ishlovchi Big Data tizimlari shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan ham maksimal darajada ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi talab etiladi. Chunki Big Data tahlillari orqali shaxsga doir maxfiy ma'lumotlar ham oshkor qilinishi yoki shaxsni aniq identifikatsiya qilish imkoni yaratilishi mumkin.

Shaxsiy ma'lumotlar har bir inson uchun katta ahamiyatga ega. Ular shaxsning xususiy hayoti va shaxsiy daxlsizligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shaxsiy ma'lumotlar har bir insonning o'ziga xosligini aks ettiradi va uning jamiyatdagi o'rnini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zamonaviy huquqning dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

---

<sup>98</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992).

<sup>99</sup> *Carpenter v. United States*, 138 S. Ct. 2206 (2018).

“*Big Data: A Tool for Inclusion or Exclusion?*” nomli hisobot<sup>100</sup>da Big Data texnologiyalarining shaxsiy ma’lumotlarga ta’siri va ular bilan bog’liq xatarlar tahlil qilingan bo’lib, Big Data tizimlaridagi ma’lumotlar profillash va diskriminatsiya xavfini oshirishi, bunda shaxsiy ma’lumotlar asosida odamlarni muayyan guruhlarga ajratish va cheklovchi qarorlar qabul qilish mumkinligi, shu bois Big Data tizimlarida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning maxsus mexanizmlari talab etilishi qayd etiladi.

Yaponiyaning “*Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to’g’risida*”gi qonuni (2003) Big Data kontekstida shaxsiy ma’lumotlar himoyasiga oid qator qoidalarni o’z ichiga oladi<sup>101</sup>. Jumladan, qonun shaxsiy ma’lumotlarni ishlov berishda ularning sifati va ishonchligini ta’minlash, subyektlarning roziligini olish, ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash kabi talablarni belgilaydi. Qonunga ko’ra, shaxsiy ma’lumotlardan foydalanayotgan tashkilotlar Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish siyosatini ishlab chiqishi va e’lon qilishi shart.

Yevropa Ittifoqi Sudi (CJEU) 2022-yil dekabrda “*Meta Platforms Ireland Limited v. Gegevensbeschermingsautoriteit*” sud ishini ko’rib chiqdi<sup>102</sup>. Ushbu ish Meta kompaniyasi va uning ijtimoiy tarmoqlari tomonidan foydalanuvchilar shaxsiy ma’lumotlarini ishlov berish amaliyoti qonuniyligi masalasiga bag’ishlangan. Sud qaroriga ko’ra, Meta kompaniyasi foydalanuvchilar roziligini olish va ularga ma’lumotlarni nazorat qilish imkoniyatlarini berish bo’yicha GDPR talablarini to’liq bajarmagani uchun Irlandiya ma’lumotlarni himoya qilish organi tomonidan 405 million yevro miqdorida jarima to’lashga majbur qilindi. Ushbu qaror Big Data sohasida faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalarning shaxsiy ma’lumotlarga oid majburiyatlariga rioya etish muhimligini yaqqol ko’rsatdi.

AQShning “*Smyth v. Pillpack, Inc.*” sud ishida sudlanuvchi kompaniya tomonidan mijozlarning tibbiy ma’lumotlarini yig’ish va ish-

---

<sup>100</sup> Redl, D.J. (2018). Big Data: A Tool for Inclusion or Exclusion? Federal Trade Commission <https://www.ftc.gov/system/files/documents/reports/big-data-tool-inclusion-or-exclusion-understanding-issues/160106big-data-rpt.pdf>

<sup>101</sup> Act on the Protection of Personal Information (Act No. 57 of May 30, 2003).

<sup>102</sup> Case C-252/21, Meta Platforms Ireland Limited v. Gegevensbeschermingsautoriteit, ECLI:EU:C:2022:983.

lov berish qonuniylik nuqtayi nazaridan baholangan<sup>103</sup>. Sud kompaniyaning bunday harakatlari qonunchilikka zid ekanligi va mijozlar ma'lumotlarining maxfiylikni buzganini aniqladi. Ushbu ish Big Data kontekstida shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash borasida biznes subyektlari zimmasidagi majburiyatlarni yaqqol namoyon etdi.

Big Data texnologiyalari rivojlanishi bilan shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va himoyasi borasida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolar ko'lami va mohiyatini tushunish hamda ularni bartaraf etish yo'llarini izlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Birinchi navbatda, Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlarning haddan ziyod ko'p to'planishi ularning himoyalanihini ta'minlashni qiyinlashtirmoqda. Ma'lumotlar hajmi va xilma-xilligi ortib borgani sari an'anaviy himoya usullari yetarli bo'lmay qolmoqda.

Xitoyda Big Data sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid muammolar yanada keskinroq namoyon bo'lmoqda. Xitoy kompaniyalari va davlat organlari tomonidan fuqarolar ma'lumotlarini keng ko'lamda yig'ish va ishlov berish amaliyoti xalqaro jamoatchilik tomonidan ko'p bora tanqid qilingan. Xitoylik tadqiqotchi Tao Huang<sup>104</sup>ning fikricha, Xitoyda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilik bazasi takomillashtirilsa-da, amaliyotda uning ijrosi yetarli emas. Shuningdek, Xitoyda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning mustaqil nazorat organi mavjud emasligi ham muammoli jihat hisoblanadi.

O'zbekistonda ham Big Data texnologiyalarining rivojlanishi bilan shaxsiy ma'lumotlar himoyasi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. S. Gulyamov mamlakatimizda Big Data sohasida axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash borasidagi vazifalarni tahlil qilib<sup>105</sup>, O'zbekistondagi bu boradagi muammolarni ko'rsatib, milliy qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, texnik va tashkiliy himoya choralarini kuchaytirish, kadrlar malakasini oshirish talab etilishini qayd etadi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhimligini ta'kidlaydi.

---

<sup>103</sup> Smyth v. Pillsbury Co., 914 F. Supp. 97 (E.D. Pa. 1996).

<sup>104</sup> Huang, T. (2021). China's Approach to Big Data and Privacy. In *Big Data Law and Legal Policies* (pp. 271-286). Springer, Singapore.

<sup>105</sup> Gulyamov, S. (2021). Personal data protection as a tool to fight cyber corruption. *E3S Web of Conferences* (Vol. 244, p. 11052). EDP Sciences [https://www.researchgate.net/publication/373995779\\_Personal\\_Data\\_Protection\\_as\\_a\\_Tool\\_to\\_Fight\\_Cyber\\_Corruption](https://www.researchgate.net/publication/373995779_Personal_Data_Protection_as_a_Tool_to_Fight_Cyber_Corruption)

Rossiya Federatsiyasining “Beeline” mobil aloqa operatori ustidan sudda ko‘rilgan ishda kompaniyaning foydalanuvchilar shaxsiy ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga noqonuniy ravishda uzatganligi aniqlandi<sup>106</sup>. Moskva shahar sudi “Beeline” kompaniyasini qonun buzganligi uchun 60 million rubl miqdorida jarima to‘lashga majbur qildi. Ushbu ish Big Data sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalardan shaxsiy ma’lumotlar himoyasi qoidalariga qat’iy rioya qilishni talab etadi.

AQSh Federal savdo komissiyasi tomonidan Facebook kompaniyasiga nisbatan olib borilgan tekshiruvlar natijasida kompaniya foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlaridan noqonuniy tarzda foydalanganligi aniqlandi<sup>107</sup>. Xususan, Facebook Cambridge Analytica kompaniyasiga millionlab foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga sotgan. Oqibatda Federal savdo komissiyasi Facebook kompaniyasiga 5 milliard dollar miqdorida rekord jarima soldi va kompaniyaga shaxsiy ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha qo‘shimcha majburiyatlar yuklatdi. Ushbu ish Big Data kompaniyalarining shaxsiy ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha mas’uliyatini yaqqol namoyon etdi.

Big Data texnologiyalarining rivojlanishi va keng qo‘llanishi hamda yuqoridagi muammoli holatlar shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning yangi usullarini ishlab chiqish hamda qo‘llashni taqozo etadi. Xususan, quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. *Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash.* Bu borada qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid qonun normalarining amalda qo‘llanishini ta’minlash, qonun buzilishi holatlari uchun javobgarlikni kuchaytirish zarur.

2. *Texnik va tashkiliy himoya choralari takomillashtirish.* Big Data loyihalari doirasida maxsus texnik himoya vositalari, jumladan, kriptografik usullar, tokenizatsiya, anonimlashtirish kabi texnologiyalarni qo‘llash lozim. Shuningdek, tashkiliy jihatdan ma’lumotlarga

---

<sup>106</sup> Russia fines Beeline for violating personal data laws, Reuters, April 12, 2021.

<sup>107</sup> FTC Imposes \$5 Billion Penalty and Sweeping New Privacy Restrictions on Facebook, FTC.gov, July 24, 2019.

kirishni boshqarish, foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish, doimiy monitoring olib borish kabi tadbirlar muhim rol o'ynaydi.

3. *Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish madaniyatini shakllantirish.* Kompaniyalar, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida shaxsiy ma'lumotlarning qadri hamda ularni himoya qilish zarurati to'g'risida keng targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Har bir shaxs o'z shaxsiy ma'lumotlarining himoyasi uchun ma'lum darajada mas'uliyatga ega ekanligi haqidagi ijtimoiy ongning shakllantirish lozim.

4. *Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.* Big Data loyihalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, shu jumladan, dasturchilar, tahlilchilar, loyiha rahbarlari shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari shart. Ushbu yo'nalishda ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlari va sertifikatlash tizimlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

5. *Shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash.* Big Data loyihalari doirasida shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish va ulardan foydalanish jarayonlari maksimal darajada shaffof bo'lishi, ushbu jarayonlar ustidan tegishli nazorat o'rnatilishi lozim. Ma'lumotlar subyektlariga o'z ma'lumotlariga kirish, ularni o'zgartirish va o'chirib tashlash imkoniyatlari berilishi, shuningdek, ma'lumotlarning qanday maqsadlarda va kimlar tomonidan qayta ishlanganligi haqida axborot taqdim etilishi zarur.

6. *Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.* Big Data va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi sohasida xalqaro hamkorlik, tajriba almashish va ilg'or amaliyotlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Transmilliy loyihalar doirasida ma'lumotlarni himoya qilishning yagona standartlari va protokollarini ishlab chiqish, davlatlararo kelishuvlar tuzish, shuningdek, global kibertahdidlarga qarshi birgalikda kurashish zarur.

Ushbu yo'nalishlarda olib boriladigan ishlar Big Data sharoitida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va himoyasini ta'minlashning muhim shartidir. Zero, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanib borayotgani bois ma'lumotlar xavfsizligi masalasi kun sayin dolzarflik kasb etmoqda. Bu borada davlat va jamiyatning barcha institutlari hamkorlikda harakat qilishi, innovatsion yechimlar izlashi va amaliyotga tatbiq etishi talab etiladi. Shaxsiy ma'lumotlarning ishonchli himoyasi nafaqat alohida shaxslar va tashkilotlar, balki butun jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifadir.

## II BOB. BIG DATA DOIRASIDA MULK HUQUQI, INTELLEKTUAL MULK HUQUQI: ZAMONAVIY KONSEPSIYALAR VA YONDASHUVLAR

### 2.1-§. Big Data doirasida mulk huquqiga oid qarashlar va konsepsiyalar

Ma'lumotlar (Big Data) iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim resursga aylandi<sup>108</sup>. Ma'lumotlarning tijorat qiymati va iqtisodiy ahamiyati, muqarrar ravishda ma'lumotlarga egalik huquqini talab qildi va natijada ma'lumotlar mulkchiligiga oid dastlabki g'oyalar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi<sup>109</sup>.

Jumladan, AQShning "*Facebook v. Power Ventures*" sud ishida Facebook kompaniyasi Power Ventures kompaniyasini foydalanuvchilar ma'lumotlarini noqonuniy yig'ish va foydalanishda ayblab, sudga murojaat qildi<sup>110</sup>. Kaliforniya apellyatsiya sudi Facebook ma'lumotlar bazasidagi foydalanuvchilar ma'lumotlariga nisbatan mulk huquqiga ega ekanligi va Power Ventures tomonidan ma'lumotlarning noqonuniy olinishi jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishini e'tirof etdi. Ushbu ish Big Data elementlarini xususiy huquq obyekti sifatidagi an'anaviy qarashlardan o'zgacha yondashib, mulk sifatida himoya qilish imkoniyatini ko'rsatdi.

Yuridik jihatdan olganda, xom ma'lumotlar mulk huquqi obyekti hisoblanmaydi<sup>111</sup>. Big Data doirasida ma'lumotlar shubhasiz aktivdir. Ma'lumotlar – moddiy ham, eksklyuziv ham emas, balki takrorlanadigan virtual obyekt sanaladi. Biroq bugungi raqamli iq-

---

<sup>108</sup> European Commission, Building A European Data Economy (2017). <https://eur-lex.europa.eu/legalcontent/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:52017DC0009&from=EN> (last visited Sep 30, 2021)

<sup>109</sup> Jessica Litman, Information Privacy/Information Property, 52 Stanford Law Review 1283-1313 (2000).

<sup>110</sup> Facebook, Inc. v. Power Ventures, Inc., No. C 08-5780 JF (RS), 2009 WL 1299698 (N.D. Cal. May 11, 2009)

<sup>111</sup> Annie Sorbie et al., Does data ownership hinder biomedical research? Liminal Spaces Policy Brief (2020). <http://Does data ownership hinder biomedical research? Liminal Spaces Policy Brief> (last visited Sep 30, 2021)

tisodiyotni tezkor tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar xuddi tovarlar va ashyolar singari egalik qilinadigan "narsa" sifatida qabul qilinadi<sup>112</sup>.

Raqamli iqtisodiyotda ma'lumotlarga nisbatan "mulk huquqi" tushunchasining ma'nosi boshqacha anglashilishi mumkin. Ko'pincha u ma'lumotlar bazalari uchun mas'uliyat va javobgarlikni belgilash uchun qo'llanadi va bunda "ma'lumotlar egasi"ga murojaat qilinadi<sup>113</sup>. Bunday maxsus kontekstda "mulk huquqi" yuridik ma'noga ega emas, balki ma'lumotlar sifati va xavfsizligini ta'minlash kabi boshqa tushunchalarga ishora qiladi<sup>114</sup>.

Olimlar va amaliyotchilarga ko'ra, xususi huquq an'anaviy ravishda ma'lumotlarni huquqiy obyekt sifatida ko'rib chiqishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Ma'lumotlarni himoya va nazorat qiladigan huquqiy normalar mavjud bo'lsa-da, ma'lumotlar mulk va mulkchilik toifalari doirasiga aniq va ravshan kiritilmaydi. Siz neftga egalik qilishingiz mumkin, ammo, odatda, ma'lumotlarga emas. Ma'lumotlar to'plamlarining aksariyati mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Ko'pchilik ma'lumotlar nazoratchilari "o'z ma'lumotlari"ni iste'molchilar haqidagi tijorat siri yoki maxfiy ma'lumotlar sifatida himoyalab, ma'lumotlarning "haqiqiy" huquqiy egaligini simulyatsiya qilishadi<sup>115</sup>.

Xorijiy mamlakatlardagi ma'lumotlarga oid innovatsion yondashuvlardan biri sifatida fidutsiar mulk (fiduciary ownership) konsepsiyasini keltirish mumkin. Harvard universiteti professori Jek Balkin shaxsiy ma'lumotlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi kompaniyalarni "ishonchli ma'lumotlar fidutsiari" (information fiduciaries) deb ataydi va ular o'z mijozlari manfaatlarini ustuvor

---

<sup>112</sup> Andreas Boerding et al., Data Ownership – A Property Rights Approach from a European Perspective, 11 JOURNAL OF CIVIL LAW STUDIES (2018). <https://digitalcommons.law.lsu.edu/jcls/vol11/iss2/5> (last visited Sep 30, 2021)

<sup>113</sup> OECD, Data-driven Innovation: Big Data for Growth and Well-being (OECD Publishing 2015) 195.

<sup>114</sup> OECD, Data-driven Innovation: Big Data for Growth and Well-being (OECD Publishing 2015) 195.

<sup>115</sup> Peter Leonard, Beyond Data Privacy: Data "Ownership" and Regulation of Data-Driven Business [americanbar.org](http://americanbar.org) (2020). [https://www.americanbar.org/groups/science\\_technology/publications/scitech\\_lawyer/2020/winter/beyond-data-privacy-data-ownership-and-regulation-datadriven-business/](https://www.americanbar.org/groups/science_technology/publications/scitech_lawyer/2020/winter/beyond-data-privacy-data-ownership-and-regulation-datadriven-business/) (last visited Sep 30, 2021)

qo'yishi kerakligini ta'kidlaydi<sup>116</sup>. Uning fikricha, Google, Facebook kabi korporatsiyalar foydalanuvchilarga nisbatan fidutsiar majburiyatlarni qabul qilishi, jumladan, ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi, mijozlar roziligi va xabardorligi asosida ish tutishi, ma'lumotlarni suiiste'mol qilmaslik uchun ichki siyosat ishlab chiqishi lozim. Bunday yondashuv, Balkinga ko'ra, mijozlarga ishonchli xizmatlar ko'rsatish va shu orqali kompaniyalar orasida sog'lom raqobatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yaponiyadagi Nomura tadqiqot instituti esa ma'lumotlarni "kvazi-mulk" sifatida tan olish va ularga nisbatan maxsus huquqiy rejim ishlab chiqishni taklif etgan.

Janubiy Koreya qonunchiligida ma'lumotlarni himoya qilishga oid normalar mavjud bo'lsa-da, ma'lumotlarga mulk huquqi rasman tan olinmagan. Koreyalik olimlar Ji Su Park va Sang Jo Jong ma'lumotlarga mulkchilikni taqdim etish bo'yicha ikki xil model – "kuchli" va "kuchsiz" mulk huquqini taklif qilishadi. Ularning fikricha, "kuchsiz" model manfaatlar muvozanatini topish va ma'lumotlar aylanmasini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Bu kabi turli xil ma'nolarga duch kelinganda, 1998-yildayoq bir muallif "ma'lumotlar boshqaruvchisi" atamasidan foydalanish yanada mos kelishini taklif qilgan<sup>117</sup>, chunki u "tashkilotlar, aslida, mulk huquqi konsepsiyasi bilan ilgari suradigan mas'uliyat"ni aks ettiradi<sup>118</sup>.

Ma'lumotlarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ushbu "mulk huquqi" tushunchasi ma'lumotlarga nisbatan yuridik ma'noda ishlatilishida ma'lum qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi. Zero, ma'lumotlar boshqa moddiy yoki nomoddiy "ashyo" kabi emas.

Darhaqiqat, bugungi kunda nomoddiy aktivlarning o'sib borayotgan ahamiyatini hisobga olgan holda, mulk tushunchasining yangi obyektlar va huquqlarni, jumladan, res immateriales (an'anaviy

---

<sup>116</sup> Balkin, J.M. (2020). The Fiduciary Model of Privacy. *Social Science Research Network*. [https://autopapers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=3700087](https://autopapers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3700087)

<sup>117</sup> Michael Scofield. 'Issues of Data Ownership', (Information Management. 1998). <http://www.information-management.com/issues/19981101/296-1.html>> accessed, November 1, 2016

<sup>118</sup> OECD, Data-driven Innovation: Big Data for Growth and Well-being (OECD Publishing 2015) 195.

ravishda intellektual mulk huquqlari bilan himoyalangan)ni qamrab olishi va ma'lumotlarni tovarlashtirish uchun yetarlicha moslashuvchan bo'lishi kerakligi haqida keng munozaralar olib borilmoqda<sup>119</sup>.

Ma'lumotlar insonlar, mashinalar yoki ularning kombinatsiyasi tomonidan yaratilishi mumkin. U shakllangan yoki shakllanmagan formatlarda, ma'lumotlar yaratiladigan va saqlanadigan istalgan joyda yaratilishi va saqlanishi mumkin. U zavodlarda, harbiy qismlarda, internetda, kasalxonalarda yoki boshqa joylarda ishlab chiqilishi mumkin<sup>120</sup>. Sun'iy intellekt o'zining hisoblash qobiliyatini kengaytirib, Big Data usullaridan real vaqtda ulkan ma'lumotlar to'plamlarini tahlil qilish va qimmatli bilimlarni olish uchun foydalanmoqda. Ma'lumotlar asosidagi transformatsiya jamiyat bo'ylab tarqalib borar ekan, tobora ko'payib borayotgan ma'lumotlar avtonom, ulangan mashinalar yoki IoT tomonidan yaratilmoqda<sup>121</sup>. Bu ma'lumotlar shaxsiy yoki shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlar toifasida bo'lishi mumkin. Ma'lumotlarga kim egalik qilishi masalasi ushbu toifalar turiga ham bog'liq.

Shaxsiy ma'lumotlar – bu shaxsi aniqlanadigan jismoniy shaxs haqidagi ma'lumotdir. Bunda shaxsni aniqlash uchun foydalaniladigan ma'lumotlar yo alohida, yoki boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda anglashiladi.

Shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlar – bu jismoniy shaxsga oid bo'lmagan ma'lumotlar bo'lib, biznes haqidagi umumiy maxfiy ma'lumotlar, statistik ma'lumotlar va intellektual mulk aktivlari (masalan, standart muhim patentlar va tijorat siri) kabi ma'lumotlarni ifodalab, u bevosita yoki bilvosita jismoniy shaxsni aniqlash imkonini bermaydi. Shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlarga, shuningdek, anonim axborot/ma'lumotlar ham, ya'ni identifikatsiya qilinadigan jismoniy shaxsga tegishli bo'lmagan yoki shaxsni endi iden-

---

<sup>119</sup> Nadezhda Purtova, *The Illusion of Personal Data as No One's Property*, 7 LAW, INNOVATION AND TECHNOLOGY 83-111 (2015); Alberto De Franceschi & Michael Lehmann, *Data as Tradeable Commodity and New Measures for their Protection*, 1 THE ITALIAN LAW JOURNAL 51-72 (2015).

<sup>120</sup> Mugdha Ghotkar & Priyanka Rokde, *Big Data: How it is Generated and its Importance*, 2 IOSR JOURNAL OF COMPUTER ENGINEERING (IOSR-JCE) 1-5 (2016).

<sup>121</sup> Francesco Banterle, *Data Ownership in the Data Economy: A European Dilemma*, in EU INTERNET LAW IN THE DIGITAL ERA (Tatiana-Eleni Synodinou et al. 2020).

tifikatsiya qilib bo'lmaydigan darajaga kelgan anonimlashtirilgan ma'lumotlar ham kiradi<sup>122</sup>.

Mashina tomonidan yaratilgan ma'lumotlar – bu inson aralashuvisiz bog'langan qurilmalar, aktivlar yoki tarmoqlar tomonidan to'plangan, saqlangan yoki yaratilgan ma'lumotlardir. Ulkan bog'langan qurilmalar massivi orqali mashina tomonidan shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlar yaratiladi. Ushbu qurilmalar geografik jihatdan tarqalgan bo'lib, o'zlarining sensorlari yordamida turli xil ma'lumotlarni to'playdi va qayd etadi. Shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlarni turli xil qurilmalar yaratishi mumkin. Qurilmalar ishlab chiqarish jarayonlarida yoki ijtimoiy infratuzilmasining tarkibiy qismlari sifatida ishlatilishi mumkin, boshqalari esa aktivlar holati yoki yo'lovchilar oqimini kuzatish uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, tashkilot, xavfsizlik, joylashuv, chiqindilar haqidagi ma'lumotlar bunga misol bo'la oladi. Bu ma'lumotlarning barchasi inson aralashuvisiz yaratilishi va to'planishi hamda shaxsni aniqlash uchun ishlatib bo'lmaydigan tarzda birlashtirilishi, o'lchanishi yoki saqlanishi umumiy xarakter kasb etadi. Odatda, shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlarni to'playdigan xuddi shu mashinalar, foydalanuvchilar haqida, jumladan, ularning joylashuvi, sog'lig'i holati yoki xarajat odatlari haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni ham yaratishi mumkin<sup>123</sup>.

“Mulk”ni aniqlash – bu taxmin qilingan mulkdorning manfaatlari, raqobatdosh uchinchi tomon manfaatlari va mulkdan foydalanish yoki unga kirish bo'yicha jamoat da'volari o'rtasidagi muvozanatni topishni anglatadi<sup>124</sup>. Mulk huquqlari huquqning o'zi va huquq talab qilinadigan obyektдан (moddiy yoki nomoddiy) iborat. Biroq

---

<sup>122</sup> Recital 26, Official Journal of the European Union | L 119/1 REGULATION (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data, and repealing Directive 95/46/EC (General Data Protection Regulation) (Text with EEA relevance), <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:32016R0679&rom=EN> (last visited Sep 30, 2021).

<sup>123</sup> Deloitte LLP, Realising the economic potential of machine-generated, non-personal data in the EU (2018), [https://www.vodafone.com/content/dam/vodacom/files/publicpolicy/Realising\\_the\\_potential\\_of\\_IoT\\_data\\_report\\_for\\_Vodafone.pdf](https://www.vodafone.com/content/dam/vodacom/files/publicpolicy/Realising_the_potential_of_IoT_data_report_for_Vodafone.pdf) (last visited Sep 30, 2021).

<sup>124</sup> Raymond T. Nimmer & Patricia A. Krauthaus, *Information as Property Databases and Commercial Property*, 1 International Journal of Law and Information Technology 3-34 (1993).

mulkning mazmuni va shakli milliy huquqiy tizimlarda sezilarli darajada farq qiladi<sup>125</sup>.

Mulk huquqlari – bu obyektga nisbatan alohida huquqlar to‘plami hisoblanadi. Mulkchilik nazariyasiga bog‘liq holda, mulkchilik huquqlarning maxsus to‘plami yoki narsa ustidan (in rem) hukmronlik sifatida tushunilishi mumkin. Birinchi navbatdagi mulkchilik huquqlariga foydalanish, cheklash, sotish, egalik qilish, bo‘lish va ijaraga berish kabi huquqlari kiradi, biroq bular bilan cheklanmaydi. Ikkinchi navbatda mulkchilik insonlar va keng qirrali xususiyatga ega narsa o‘rtasidagi munosabat sifatida belgilanadi<sup>126</sup>.

Ma‘lumotlarga oid mulkiy huquqlar kompaniya yoki shaxsning tegishli ma‘lumotlarni oshkor qilish, foydalanish, o‘zgartirish va ko‘chirish ustidan nazoratni amalga oshirish huquqini belgilaydi. Natijada paydo bo‘ladigan huquqlar va cheklovlar ma‘lumotlarda qanday mulk mavjudligi to‘g‘risidagi bayonotni o‘z ichiga oladi. Ma‘lumotlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan mulk huquqlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- Ma‘lumotlar yaxlitligiga bo‘lgan huquq: ma‘lumotlarning “egasi” roziligisiz o‘zgartirilmasligi yoki yo‘q qilinmasligi ta‘minlanadi;
- Ma‘lumotlardan foydalanish huquqi: jismoniy yoki yuridik shaxsning ma‘lumotlardan biznesni boshqarish, texnologiyalarni rivojlantirish va marketing kabi ichki maqsadlarda foydalanish imkoniyati;
- Ma‘lumotlarni oshkor qilish huquqi: ma‘lumotlarni keng yoki tanlab oshkor qilish yoki bundan bosh tortish huquqi;
- Ma‘lumotlarni ko‘chirish huquqi: ma‘lumotlarni yozma yoki boshqa moddiy shaklda takrorlash huquqi;
- Ma‘lumotlarga kirishni nazorat qilish huquqi: egasining o‘ziga ma‘lum bo‘lgan ma‘lumotlarga kirishni cheklash huquqi<sup>127</sup>.

---

<sup>125</sup> Sjeff van Erp, *Ownership of Data: The Numerus Clausus of Legal Objects*, Brigham-Kanner property rights conference journal 235–257 (2017).

<sup>126</sup> See, Lisa M. Austin, *The Public Nature of Private Property*, in property theory: legal and political perspectives (James Penner & Michael Otsuka 2018).

<sup>127</sup> Raymond T. Nimmer & Patricia A. Krauthaus, *Information as Property Databases and Commercial Property*, 1 INTERNATIONAL JOURNAL OF LAW AND INFORMATION TECHNOLOGY 3-34 (1993).

Mulk huquqlari asosida shaxsiy ma'lumotlaringizdan siz rozi bo'ladigan foydalanish usullari, miqdori bo'yicha kompaniyalar bilan muzokaralar olib borish imkoniyati paydo bo'ladi<sup>128</sup>. Agar shaxslar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlariga egalik qilganda edi, ular har bir ma'lumotni oshkor qilish bilan bog'liq kutilayotgan maxfiylik xarajatlari uchun kompensatsiya olgan bo'lar edi<sup>129</sup>.

Ma'lumotlardagi mulkiy huquqlar ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni yaratish va hosil qilishga sanoatning sarmoya kiritishini qo'llab-quvvatlaydi, deb e'tirof etiladi. Ba'zilar shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz to'plash va foydalanishdan himoya qilish nuqtayi nazaridan, shaxsiy ma'lumotlarni nazorat qilishda mulk huquqlarini asos sifatida ko'radi<sup>130</sup>.

Mulkchilik kundalik hayotimiz va asosiy ijtimoiy mexanizmlarni qamrab oladigan fundamental tushunchadir. U mulk huquqlari va majburiyatlarini shaxs yoki tashkilotga topshirishni anglatadi. Huquqlarning uch turini ajratish mumkin: foydalanish, nazorat qilish va nazoratda qolish<sup>131</sup>.

Falsafiy jihatdan, mulkchilikning paydo bo'lishi va belgilanishini tushuntirishga imkon beradigan turli nazariyalar mavjud:

Immanuil Kantning birinchi *egallash nazariyasiga* ko'ra, mulk uni birinchi egalik qilgan odamga beriladi.

---

<sup>128</sup> Kenneth C. Laudon, *Markets and Privacy*, 39 *Communications of the ACM* 92-104 (1996); Richard S. Murphy, *Property Rights in Personal Information: An Economic Defense of Privacy*, 84 *GEO. L.J.* 2381, 2413 (1996); Lawrence Lessig, *The Architecture of Privacy: Remaking Privacy in Cyberspace*, 1 *VANDERBILT JOURNAL OF ENTERTAINMENT AND TECHNOLOGY LAW* 56-65 (1999); Patricia Mell, *Seeking Shade in a Land of Perpetual Sunlight: Privacy as Property in the Electronic Wilderness*, 11 *BERKELEY TECHNOLOGY LAW JOURNAL* 1-92 (1996); Lawrence Lessig, *Code And Other Laws of Cyberspace* 85-90 (1 ed. 1999); Jamie Lund, *Property Rights to Information*, 10 *NORTHWESTERN JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INTELLECTUAL PROPERTY* 1-18 (2011); Jane B. Baron, *Property as Control: The Case of Information*, 18 *MICHIGAN TELECOMMUNICATIONS AND TECHNOLOGY LAW REVIEW* 367-418 (2012); Jim Harper, *Perspectives on property rights in data* [www.aei.org](http://www.aei.org) (2019), <https://www.aei.org/technology-andinnovation/perspectives-on-property-rights-in-data/> (last visited Sep 30, 2021).

<sup>129</sup> Corien Prins, *When personal data, behavior and virtual identities become a commodity: Would a property rights approach matter?*, 3 *SCRIPT-ed* 270-303 (2006) at 271.

<sup>130</sup> Teresa Scassa, *Data Ownership*, CIGI Paper No. 187 (2018), <https://www.cigionline.org/publications/data-ownership/> (last visited May 30, 2024).

<sup>131</sup> Dennis Hart, *Ownership as an Issue in Data and Information Sharing: A Philosophically Based Review*, 10 *AUSTRALASIAN JOURNAL OF INFORMATION SYSTEMS* (2002).

Jon Lokkning *mehnat nazariyasiga* ko'ra, mulkchilik mehnat orqali qo'shilgan qiymat bilan belgilanadi.

Jeremi Bentam va Jon Styuart Millning *foydalilik nazariyasiga* ko'ra, mulk barcha ishtirokchilar uchun foyda maksimal darajada bo'ladigan tarzda taqsimlanadi.

Robert Nozik va Jon Rolsning *libertarian (erkinlik) nazariyasiga* ko'ra, mulkchilik boshqalarning mustaqil harakat qilish qobiliyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda taqsimlanishi kerak.

Georg Vilgelm Fridrix Gegelning *shaxsiyat nazariyasiga* ko'ra, mulkchilik shaxsning obyektga sarmoya kiritish istagi bilan belgilanadi va bu uni uning egasiga aylantiradi.

Mulkchilikka oid bu turli xil nazariyalar ma'lumotlar uchun ham amal qilishi mumkin, biroq bunda ma'lumotlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Mulk huquqi egasiga huquqni amalga oshirish (ya'ni foydalanish, o'zgartirish, yo'q qilish va egalik qilingan aktiv yaratishi mumkin bo'lgan foyda olish huquqi) bo'yicha to'liq erkinlik beradi. Mulkchilik huquqlarini o'rnatish keng ko'lamlı oqibatlariga olib keladi: mulk huquqi huquq egasiga mutlaq himoyani, ya'ni huquqlarni nafaqat shartnoma tomonlariga, balki har kimga nisbatan amalga oshirish va tatbiq etish imkonini beradi. Qurilmaning egasi (masalan, mobil telefon foydalanuvchisi yoki avtomobil haydovchisi) yoki qurilma ishlab chiqaruvchisi (masalan, mobil telefon ishlab chiqaruvchisi yoki avtomobil ishlab chiqaruvchisi) ma'lumotlarga qonuniy ravishda "egalik qilishi" mumkinligi keng tarqalgan noto'g'ri qarashdir. Mulk huquqlari faqat qonun bilan tan olinishi va belgilanishi mumkin<sup>132</sup>.

Biroq tadqiqot davomida ma'lumotlarga nisbatan mulk huquqi masalasini maxsus tartibga soladigan qonunchilik Yevropa Ittifoqida ham, a'zo davlatlarida ham yoki boshqa rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida ham aniqlanmaganligi qayd etish lozim. Ma'lumotlarga mulk huquqiga oid qonunlar yo'qligi ularga nisbatan u yoki bu huquqni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari mavjudligi yoki ma'lum turdagi ma'lumotlar yoki ma'lumotlar to'plamlariga

---

<sup>132</sup> Max Competition, Arguments Against "Data Ownership" – Max Planck Institute for Innovation and Competition Max Planck Institute for Innovation and Competition.

[https://www.ip.mpg.de/fileadmin/ipmpg/content/forschung/Argumentarium-Dateneigentum\\_eng.pdf](https://www.ip.mpg.de/fileadmin/ipmpg/content/forschung/Argumentarium-Dateneigentum_eng.pdf) (last visited Sep 30, 2021).

nisbatan huquqiy himoyani (ya'ni mualliflik huquqi, ma'lumotlar bazalari huquqlari va tijorat siri) berishini istisno qilmaydi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham Big Data va uning elementlariga nisbatan mulk huquqiga oid maxsus qoidalar nazarda tutilmagan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlarda, shuningdek, "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonunda Big Data elementi hisoblangan ma'lumotlar bazalariga nisbatan intellektual mulk obyekti sifatida mualliflik huquqi qoidalari keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida axborot resurslari yoki axborot tizimlarining mulkdori – axborot resurslari yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi, axborot resurslari yoki axborot tizimlarining egasi – qonun bilan yoki axborot resurslari, axborot tizimlari mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslari yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi alohida qayd etiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida shaxsga doir ma'lumotlar bazasining mulkdori (mulkdor) – shaxsga doir ma'lumotlar bazasiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan davlat organi, jismoniy va (yoki) yuridik shaxsligi, "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida axborot mulkdori – o'z mablag'iga yoki boshqa qonuniy yo'l bilan olingan axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsligi belgilangan.

Ushbu normalarda Big Dataning ajralmas qismi bo'lgan elementlar – axborot, shaxsga doir ma'lumotlar bazasi, axborot resurslarini mulk huquqi obyektlari sifatida ularga nisbatan mulk huquqlari mavjudligi haqidagi qoidalarni nazarda tutmoqda.

Vaholanki, tadqiqotning 1.2-paragrafida muhokama qilinganidek, Big Data va uning elementlarida ashyoga xos xususiyatlar mavjud

bo'lmasa-da, shuningdek, Big Data (ma'lumotlar)ning o'zigagina xos xususiyatlari tufayli alohida huquqiy tartibga solishni nazarda tutsa-da, yuqoridagi qonun hujjatlari bahsli normalarni ifodalaganligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun axborot resurslari va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqi masalalarini belgilaydi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida axborot resurslari va axborot tizimlari ommaviy hamda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Axborot resurslari va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqining vujudga kelishiga quyidagilar asos bo'ladi:

axborot resurslari hamda axborot tizimlarining davlat budjeti mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning o'z mablag'lari yoki qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan yaratilishi;

axborot resurslari va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqining o'zga shaxsga o'tishi shartlarini o'z ichiga olgan oldi-sotdi shartnomasi yoki boshqa bitim;

meros olish.

Qonunda axborot resurslari va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqi vujudga kelishining boshqa asoslari ham nazarda tutilishi mumkin.

Bizningcha, ushbu normalar milliy huquq tizimimizda bahsli savollar, qarama-qarshiliklar keltirib chiqarmoqda. Zero, axborot resursining o'ziga xosligi, asosan, ashyoviy xarakterga ega emasligi, ya'ni nomoddiy xarakterga egaligi, ularning yaratilishi insonning bevosita intellekti bilan bog'liqligi inobatga olinishi lozim.

Shu o'rinda muhim savol tug'iladi: agar axborot, shaxsga doir ma'lumotlar bazasi, axborot resurslari mulk huquqi obyektlari hisoblanadigan bo'lsa, nega milliy xususiy huquq sohasining kodekslashtirilgan qonuni, Fuqarolik kodeksiga yuqoridagi qonunlardan kelib chiqib o'zgartirishlar kiritilib, mulk huquqi obyektlari qatoridan o'rin berilmagan? Nima sababdan ma'lumotlar bazalariga mualliflik huquqi qoidalari nazarda tutilsa-da, shaxsga doir ma'lumotlar bazasiga mulk huquqi qoidalari nazarda tutilgan?

Fikrimizcha, shaxsga doir ma'lumotlar, xususan, shaxsga doir ma'lumotlar bazasi jamiyat manfaatlarini va inson huquqlariga daxldor

bo'lganligi sababli ular mulk huquqi obyektini bo'la olmaydi va unga nisbatan mulk huquqi huquqlar to'plami tatbiq etilmaydi. Ammo ma'lumotlar bazasining tashkiliy va ijodiy jihatlari mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi mumkin. Shu bois yuqoridagi qonunlarni qayta ko'rib chiqish zaruriyati mavjud.

Milliy qonunchilikdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uchun Yevropa Ittifoqi Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) tavsiyalari va rivojlangan davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, Big Data elementlariga nisbatan "mulkdor" tushunchasini "nazoratchi" tushunchasi bilan almashtirish lozim.

Bunda Fuqarolik kodeksi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunga Big Datani intellektual mulk obyektini sifatida ifodalash maqsadida o'zgartishlar kiritish, xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1031-moddasi 1-bandi to'rtinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq: "Big Data, elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari; "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun va "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi qonundan "mulkdor" atamasini chiqarib tashlash hamda uni "nazoratchi" tushunchasi bilan almashtirish lozim". Bu o'zgartishlar Big Data elementlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish va ularni himoya qilishda yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ko'pchilik davlatlardagi ma'lumotlarni huquqiy tartibga solishdagi tendensiyalardan farqli ravishda, Xitoyda ma'lumotlar mulkchiligi qonuni konsepsiyasi 2020-yilda taklif qilingan bo'lib, u yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum turdagi ma'lumotlarga nisbatan mulk huquqini tan olishni nazarda tutgan. Konsepsiya hozircha qabul qilinmagan bo'lsa-da, ma'lumotlarga oid munosabatlarni tartibga solish zaruratini ko'rsatgan.

Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab

qilish huquqidan iboratdir<sup>133</sup>. Ya'ni mulk huquqi – bu shaxs obyekt ustida ega bo'lishi mumkin bo'lgan eng keng huquqdir. Bundan tashqari, buyumlar – bu odamlar boshqara oladigan moddiy obyektlardir. Vaholanki, ushbu qarash ma'lumotlarga nisbatan qo'llanmaydi.

Ba'zi olimlarning fikricha, Yevropa Ittifoqi Sudining “UsedSoft” sud ishi bo'yicha qarori bilan nomoddiy aktivlarga nisbatan mulk huquqi haqidagi bahslar uchun eshik ochdi (C-128/11 ishi). Ushbu ish bo'yicha sud dasturiy ta'minotni Internetdan yuklab olish orqali tijorat maqsadida tarqatish nafaqat litsenziya, balki tovarlar savdosiga ham asoslanishi kerakligini qayd etdi<sup>134</sup>. Demak, dasturiy ta'minotning mualliflik huquqi egasi o'z dasturini (yuklab olingan fayl sifatida tushuniladi) umrbod “litsenziat”ning sotishiga to'sqinlik qila olmaydi. Ushbu qaror shuni anglatadiki, Internet orqali yuklab olingan dastur kabi nomoddiy ashyolarga muayyan mulk huquqi beriladi. Ushbu modelning boshqa raqamli mahsulotlarga qo'llanishi kelgusidagi sud ishlarida ko'rib chiqilishi mumkin. Bunday qaror va undan kelib chiqqan sharhlarga qaramasdan, ma'lumotlarga nisbatan mulk huquqi masalasi noaniqligicha qolmoqda.

Tadqiqot davomida o'rganilgan Yevropa davlatlari (Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya)da intellektual mulk va tijorat siriga taalluqli milliy qonunlarni hisobga olmaganda, ma'lumotlarga mulk huquqini aniq tan oladigan qonunchilik mavjud emasligi aniqlandi.

Shuni ham aytish kerakki, ba'zi mamlakatlarda ma'lumotlar oqimi-ni nazorat qilishga imkon beruvchi qonunchilik mavjud. Bunga Fransiyaning misol qilish mumkin bo'lib, Fuqarolik kodeksi ma'lumotlarni noto'g'ri ishlatishning oldini olish yoki cheklash imkonini beruvchi mexanizmlarni (FFK 9-16, 1240-1241) nazarda tutadi<sup>135</sup>.

Germaniya sudlari tomonidan “Ma'lumotlarga egalik (mulk huquqi)”ni ko'rib chiqishda qiziqarli bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi masalalar ko'rib chiqilgan.

---

<sup>133</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 164-moddasi. <https://lex.uz/docs/-111189#-153802>

<sup>134</sup> Thomas Hoeren, 'Big Data and the Ownership in Data: Recent Developments in Europe' (2014) 36(12) EIPR 751.

<sup>135</sup> French Civil Code 2016. [https://www.trans-lex.org/601101/\\_/french-civil-code-2016/](https://www.trans-lex.org/601101/_/french-civil-code-2016/)

Birinchi diqqatga sazovor sud qarori Karlsruhe<sup>136</sup> Oliy mintaqaviy sudiga tegishli bo'lib, u ma'lumotlarni yo'q qilishga oiddir. Sud ma'lumot tashuvchida saqlanadigan ma'lumotlarni o'chirishni Germaniya Fuqarolik kodeksi bo'yicha ma'lumot tashuvchidagi mulk huquqini buzishi mumkin deb hisobladi va ma'lumot tashuvchisiga unda saqlanadigan ma'lumotlar doirasida mulk huquqi himoyasini nazarda tutdi.

Boshqa tomondan, ma'lumotlarda zarur moddiy xususiyat yo'qligi<sup>137</sup> va ular Germaniya Fuqarolik kodeksiga ko'ra "narsa" deb hisoblanmasligi sababli Germaniya sudlarining keyingi qarorlari ma'lumotlarga nisbatan egalik qilish imkoniyatiga qarshi chiqdi<sup>138</sup>.

Nyuremberg apellyatsiya sudi Germaniyada qabul qilingan umumiy tamoyilga asoslandi. Unga ko'ra, na huquqlar, na tovarlar hisoblangan "narsalar" oldi-sotdi shartnomasi (Germaniya fuqarolik qonunining 453-bo'limi) bo'yicha sotilishi mumkin emas. Sobiq xodimlarning kompaniyaga tegishli noutbuklarida saqlangan ma'lumotlarni o'chirishga ruxsat berilganligi to'g'risida qaror chiqarish uchun Nyuremberg sudi "skripturakt" nazariyasiga murojaat qildi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ma'lumotlar yaratgan shaxs, garchi ma'lumotlar keyinchalik ish yoki ish beruvchi manfaatlari uchun ishlatilsa ham, ma'lumotlarga nisbatan huquqlarga ega bo'ladi. Natijada xodimlar jinoyat qonunchiligi bo'yicha ma'lumotlarni o'chirishga haqli edi<sup>139</sup>.

Biroq Nyuremberg sudi "skripturakt" nazariyasidan kelib chiqqan qoida mehnat munosabatlari kontekstida ham qo'llanishi, ammo agar ma'lumotlar allaqachon ish beruvchiga o'tkazilgan bo'lsa, vaziyat boshqacha bo'lishi mumkinligini ta'kidladi; bunday holda ish beruvchi ma'lumotlar egasiga aylanadi. Bundan tashqari, sud fikriga ko'ra, agar ma'lumotlar to'liq uning talablariga muvofiq yaratilgan bo'lsa, ma'lumotlar dastlab ish beruvchiga tegishli bo'ladi<sup>140</sup>.

---

<sup>136</sup> OLG Karlsruhe, Urt. v. 07.11.1995 - 3 U 15/95 - Haftung für Zerstörung von Computerdaten

<sup>137</sup> LG Konstanz, Urt. v. 10.05.1996 - 1 S 292/95 = NJW 1996,2662

<sup>138</sup> OLG Dresden, Beschl. v. 05.09.2012 - 4 W 961/12 = ZD 2013,232

<sup>139</sup> OLG Nürnberg 1. Strafsenat decision of 23.01.2013, 1 Ws 445/12, par. 14.

<sup>140</sup> OLG Nürnberg 1. Strafsenat decision of 23.01.2013, 1 Ws 445/12, par. 16-17.

Ish beruvchi Germaniya Jinoiy Kodeksining 303(a) (qamoq jazosi bilan kompyuter ma'lumotlarini noqonuniy yo'q qilish, buzish yoki o'zgartirishni taqiqlaydi) bo'limi bo'yicha ma'lumotlarni oldindan ruxsatsiz o'chirgan xodimlarni hukm qilishni so'radi, xodimlar o'g'irlikda ayblandi. Biroq Germaniya sudlari fuqarolik huquqi masalasida xuddi shunday qoidani qo'llashi noaniqligicha qolmoqda.

Saksoniya mehnat sudi apellyatsiyasi (Landesarbeitsgericht) 2007-yilda shunga o'xshash ishni fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan hal qilishi kerak edi. Biroq ushbu sud qarori Nyuremberg sudi keyinchalik chiqargan qarorga nisbatan biroz zid keladi. Saksoniya sudi xodim kompaniyaga tegishli noutbukka dasturiy ta'minotni (Microsoft Outlook) o'rnatganligi sababli ish beruvchi dasturiy ta'minotga mulk huquqini olgan deb da'vo qildi. Natijada xodim ushbu noutbukdan dasturni o'chirganda, u ish beruvchining ma'lumotlarini yo'q qildi deb topildi va oqibatda ishdan bo'shatildi.

Ma'lumotlarning "mulk huquqi" masalasi Buyuk Britaniya sudlari tomonidan ham bilvosita ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ular bu masalada aniq qoidalarni qayd etmadi. Hozirgacha Buyuk Britaniya sudlari ma'lumotlar mulk emasligi va shuning uchun o'g'irlanishi mumkin emasligi<sup>141</sup>, ma'lumotlar umumiy huquq garovi mavzusi bo'lishga loyiq emasligi<sup>142</sup> va elektron pochta tarkibida mulkiy huquq yo'qligini aytib o'tgan<sup>143</sup>.

Nihoyat, Fransiya Oliy sudi ("Kassatsiya sudi") "ma'lumotlarning" mulk huquqini tan olish yo'lini ochadigan qaror chiqardi<sup>144</sup>. Sud rozilikni olmasdan (masofadan) kompyuter ma'lumotlarini yuklab olish o'g'irlik jinoyatiga olib kelishi mumkinligini nazarda tutdi va shu bilan bilvosita bunday mustaqil ma'lumotlarga egalik qilinishi mumkinligini tan oldi.

Garchand ma'lumotlarga "mulk huquqi" muammosi ko'plab mualliflar tomonidan tan olingan bo'lsa-da, ulardan faqat bir nechta tegishli muammolarni chuqurroq tahlil qila olgan.

---

<sup>141</sup> Oxford v Moss [1979] 68 Cr App Rep 183.

<sup>142</sup> Your Response v Datateam Business Media [2014] EWCA Civ 281.

<sup>143</sup> Fairstar Heavy Industries v Adkin, [2013] EWCA Civ 886.

<sup>144</sup> May 20, 2015 (No14-81336).

Masalan, Kristofer Ris ingliz huquqida ma'lumotlarning holatidagi noaniqlik muammosini ko'tarib chiqdi<sup>145</sup>. U ma'lumotlar mulk sifatida tasniflashi mumkinligini qo'llab-quvvatlaydi (mulkni undan foydalanish va boshqalarning foydalanishini cheklash huquqi sifatida oddiy ta'rifga asoslangan).

Pol Shvarts "Ma'lumotlar mulkchiligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish" nomli maqolasida ma'lumotlarga mulk huquqini belgilashning afzallik va kamchiliklarini tahlil qiladi. Uning fikricha, ma'lumotlar bozorini rivojlantirish uchun ular ustidan mulk huquqini o'rnatish muhim, chunki bu ma'lumot egalariga iqtisodiy rag'bat yaratadi va ularning ma'lumotlardan foydalanish shartlarini nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, Shvarts ma'lumotlarga egalik huquqini shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq huquqlardan ajratish lozimligini ta'kidlaydi, chunki birinchisi ma'lumotlarning iqtisodiy qiymatiga, ikkinchisi esa shaxsiy hayot daxlsizligiga asoslanadi.

AQShlik huquqshunos olim Kennex Laudon shaxsiy ma'lumotlar bozorini yaratish va bu orqali odamlarga o'z axborotlari ustidan nazoratni amalga oshirish imkonini berishni taklif qiladi<sup>146</sup>. Uning fikricha, shaxsiy ma'lumotlarni mulk sifatida e'tirof etish va ulardan foydalanish uchun haq to'lash tizimini joriy qilish, bir tomondan, foydalanuvchilarning maxfiylik huquqini ta'minlaydi, boshqa tomondan, kompaniyalarni sifatli va foydali ma'lumotlar to'plashga rag'batlantiradi. Biroq bu yondashuv ba'zi tadqiqotchilar tomonidan tanqid qilinib, uning maxfiylikni pulga ayirboshlashga undashi va shaxsiy ma'lumotlarni ortiqcha "tovarlashtirishi" ta'kidlanadi.

Xususan, Nyu York universiteti professori Richard Epstein "Ma'lumotlar mulkchiligi: mumkin bo'lmagan qoidalar o'yini" sarlavhali maqolasida ma'lumotlarga mulkiy yondashuvni tanqid qiladi. Uning ta'kidlashicha, ma'lumotlarning xususiyatlari, jumladan, ularning har joyda tarqalganligi, nusxalanuvchanligi va bir vaqtning o'zida bir nechta subyektlarga tegishliligi an'anaviy moddiy ashyolar uchun mo'ljallangan mulk huquqi tushunchasiga mos kelmaydi. Shu

---

<sup>145</sup> Christopher Rees, 'Who Owns our Data?' (2014) 30(1) Computer Law & Security Review 75.

<sup>146</sup> Laudon, Kenneth, Markets and Privacy (July 1993). NYU Working Paper No. 2451/14257, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=1284878>

bois Epstein ma'lumotlarga individual yoki kollektiv mulk sifatida emas, balki "umumiy resurs" sifatida qarash tarafdori bo'lib, ulardan jamiyat manfaatlarini yo'lida erkin va innovatsion foydalanishni ta'minlash tarafdori.

Ber-Olli Karp "Shaxsiy ma'lumotlar mulki va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: sheriklik yoki raqobat?" nomli maqolasida mulk va maxfiylik huquqi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tadqiq etadi. Uning fikricha, shaxsiy ma'lumotlar ko'proq maxfiylik huquqining predmeti bo'lib, unga mulkiy yondashuvni qo'llash murakkab oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, Karp ma'lumotlar mulkchiligi va maxfiyligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilishning manfaatlar muvozanati va hamkorlikka asoslangan modelini taklif etadi.

Garchi ba'zi hollarda bunday huquqni yaratish zarurligini tan olishsa-da, germaniyalik olimlarning aksariyati Germaniya qonunlari ma'lumotlarga nisbatan bunday huquqni nazarda tutmasligini ta'kidlashadi<sup>147</sup>. Biroq Germaniya sudlarining yaqindagi yuridik amaliyotini hisobga olgan holda, ushbu fikrga qarshi chiquvchilar ham mavjud. Xususan, professor T. Xoren ma'lumotlarga egalik masalalarini amaldagi Germaniya huquqiy asoslari va yuridik amaliyoti doirasida o'rganib, umumiy qilib aytganda, ma'lumotlarga mulk huquqi ma'lumotlarning asoschisi, yaratuvchisi yoki ishlab chiqaruvchisiga tegishli<sup>148</sup> ekanligi, biroq ish beruvchi uchun tayyorlangan ma'lumotlar holatida ma'lumotlar ish beruvchiga tegishli degan xulosaga keldi.

Boshqa olimlar ma'lumotlarga mulk huquqini da'vo qilish uchun Germaniya Fuqarolik kodeksi 950-moddasining amaldagi matniga tayanish mumkinligini taklif qilishadi. Ushbu bo'limda shunday deyiladi: "Yangi ko'chma narsani ishlov berish yoki o'zgartirish orqali yaratgan shaxs, agar ishlov berish yoki o'zgartirish qiymati moddaning qiymatidan ancha past bo'lmasa, yangi narsaga egalik huquqini oladi. Ishlov berish, shuningdek, sirtni yozish, chizish, bo'yash, bosib chiqarish, o'yib yozish yoki shunga

---

<sup>147</sup> See e.g.: Michael Dorner, Big Data und "Dateneigentum" (2014) 9 CR 617, Malte Grützmacher, 'Dateneigentum – ein Flickenteppich' (2016) 8 CR 485.

<sup>148</sup> Thomas Hoeren, 'Big Data and the Ownership in Data: Recent Developments in Europe' (2014) 36(12) EIPR 751.

o'xshash ishlov berishni ham o'z ichiga oladi". Bunday nazariyaga nisbatan noaniqliklarga, shuningdek, uning ma'lumotlar kabi nomoddiy aktivlarga alohida qo'llanishiga qaramay, ayrim korxonalar allaqachon o'zlarining umumiy qoidalari va shartlarida ushbu normalarga tayanib kelishadi.

Shuni qayd etish kerakki, nemis olimlarining aksariyati ma'lumotlarga nisbatan hech qanday huquq mavjud emasligini ma'qullashadi.

Fransiya qonunchiligi bo'yicha ma'lumotlarga egalik masalasida olimlar ikkiga bo'lingan. Ba'zi tadqiqotchilar ma'lumotlarni o'zlashtirib bo'lmasligini ko'rsatsa<sup>149</sup>, boshqalari yuqorida aytib o'tilgan Fransiya Oliy sudining qaroriga ko'ra, ma'lumotlarga egalik qilishga shubha yo'q deb hisoblashadi<sup>150</sup>. Shuni aytish kerakki, egalikni tan olish bo'yicha munozaralarning aksariyati shaxslarning o'zlarining shaxsiy ma'lumotlariga egalik qilishiga qaratilgan<sup>151</sup>.

"Ma'lumotlarga egalik an'anaviy ma'noda egalik masalasi emas, bu rozilik va nazorat bilan bog'liq hisoblanadi. Odamlar ma'lumotlarga egalik haqida gapirganda, ular mulk qoidasi bilan himoyalangan ma'lumotlarni, haqiqiy mulk huquqlarini emas, balki ma'lumotlarga egalikni nazarda tutadilar"<sup>152</sup>. Ma'lumotlarga egalik odamlarga o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini boshqarish imkonini beradi, bunda ular uni qachon berish va buning evaziga qancha haq olishni kutishni hal qiladi.

Ma'lumotlarni xususiyashtirish to'g'risidagi ko'plab munozaralar ma'lumotlarga egalikni ma'lumotlarni nazorat qilish bilan aralashtirib yuboradi. Ushbu atamalar oddiy ma'noda bir xil ma'noga ega bo'lishi mumkin, ammo ular huquqiy kontekstda qo'llanganda,

---

<sup>149</sup> Alexandra Mendoza-Caminade, 'La protection pénale des biens incorporels de l'entreprise: vers l'achèvement de la dématérialisation du délit' (2015) 7 Recueil Dalloz 415; Céline Castets-Renard, 'Les opportunités et risques pour les utilisateurs dans l'ouverture des données de santé: Big Data et open data' (2014) 108 Revue Lamy Droit de l'immatériel 38

<sup>150</sup> Pierre Berlioz, 'Consécration du vol de données informatiques. Peut-on encore douter de la propriété de l'information?' (2015) 4 Revue des contrats 951

<sup>151</sup> Alain Bensoussan, 'Propriété des données et protection des fichiers' (2010) 296 Gazette du Palais 2; Isabelle Beyneix, 'Le traitement des données personnelles par les entreprises: bigdata et vie privée, état des lieux' (2015) 46-47 Semaine juridique 2113

<sup>152</sup> Cofone, *Beyond Data Ownership*, 43 CARDOZO LAW REVIEW,

[https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=3564480&download=yes](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3564480&download=yes).

shaxslarga huquq va majburiyatlarning juda boshqacha to'plamini beradi.

Ma'lumotlarga egalik yoki maxfiylikni mulk sifatida ko'rib chiqishni qo'llab-quvvatlaydigan takliflarning aksariyati rozilikni maxfiylikdan voz kechishga vakolat beruvchi mexanizm sifatida qo'llaydi. Ushbu takliflar ma'lumotlar subyektlarining o'z shaxsiy ma'lumotlariga bo'lgan huquqlari (maxfiylik huquqlari) ularning rozilgisiz va ijtimoiy jihatdan belgilangan kompensatsiya evaziga emas, balki ularning roziligiga asoslangan holda va savdolashilgan kompensatsiya evaziga uzatilishi kerak deb taklif qiladi<sup>153</sup>.

So'nggi yillardagi maxfiylik bilan bog'liq qonunchilikdagi ko'plab o'zgarishlar nazorat qilish huquqini o'z ichiga olgan. Misol uchun, ma'lumotlar roziligini tartibga soluvchi qonunlar shaxslarga o'z ma'lumotlaridan foydalanish va tarqatishni cheklash orqali o'z ma'lumotlarini nazorat qilish va shu bilan birga, kompaniyalarga ham biznes, ham iste'molchilar foydasi uchun xuddi shu ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi. "Nazorat" "egalik"dan farq qiladi. Shaxs ma'lumotlarni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin, ammo bu har doim ham u egalik bilan bog'liq boshqa huquqlar va majburiyatlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega ekanligini anglatmaydi. Darhaqiqat, iste'molchilar ma'lumotlarining xususiyatlari shaxslarga o'z ma'lumotlariga an'anaviy mulk huquqini berishni qiyinlashtiradi<sup>154</sup>.

Shaxslar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanishni cheklash imkoniyatiga ega bo'lsa-da, bu cheklovlar "nazoratni" ko'rsatadi, ammo egalikni anglatmaydi. Hozirgi kunda shaxslar o'z ma'lumotlariga "ega" emas<sup>155</sup>.

Bu nazorat cheksiz bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Misol uchun, hokimiyat qonuniy majburiyatlarini bajarish uchun ushbu ma'lumotlar zarur bo'lganligi sababli fuqaro o'z ma'lumotlari ustidan cheklangan nazorat huquqiga ega. Bu ma'lumotlar aniq,

---

<sup>153</sup> Ignacio Cofone, *Beyond Data Ownership*, 43 CARDOZO LAW REVIEW, [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=3564480&download=yes](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3564480&download=yes).

<sup>154</sup> Thomas M. Boyd & Tara Sugiyama Potashnik, *Data Ownership - The Suitability of a Consumer Property Right in a 21st Century Economy* (2020), <https://www.venable.com/insights/publications/2020/09/data-ownership> (last visited Sep 30, 2021).

<sup>155</sup> Lothar Determann, *No One Owns Data*, 70 HASTINGS LAW JOURNAL 1-44 (2019), at 38-39.

aktual, mavjud va ishonchli bo'lishi kerak. Misol uchun, fuqaro hukumat tomonidan o'z ismi, manzili va tug'ilgan sanasini qayd etilishini rad eta olmaydi.

Bugungi kunda ma'lumotlarning katta qismi iste'molchilar kundalik hayotda foydalanadigan bir nechta texnologiyalar tomonidan yaratiladi. Natijada ushbu aktivlar/tizimlar/ilovalarning egalari bo'lgan brendlar – Apple, Amazon, Facebook, Google va Microsoft kabi – global mijozlar ma'lumotlarining katta qismini nazorat qiladi. Shaxsiy ma'lumotlarning aksariyati ma'lumotlar subyektlari tomonidan emas, shaxslarga turli xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalar yoki ma'lumotlar brokerlari tomonidan to'planadi va saqlanadi. Shunday qilib, ushbu kompaniyalar qonuniy jihatdan ma'lumotlarga egalik qilmasalar-da, ularni de-fakto ma'lumotlar egalari (iqtisodiy ma'noda egalari) deb hisoblash mumkin. Kompaniyalar ma'lumotlarni nazorat qilishdan foydalanadi va bu nazoratni shaxslar ma'lumotlarga egalik huquqini talab qilganda, o'zlari tomonidan nazorat qilinadi.

Ma'lumotlarda ko'pincha bir nechta manfaatlar to'qnash keladi. Ma'lumotlarga mulk huquqi masalasi ma'lumotlar shakllanishi jarayonida yanada murakkablashib, ko'plab manfaatdor tomonlarni qamrab olishi mumkin. Bu ma'lumotlarga mulk huquqini da'vo qilishi mumkin bo'lgan yoki haqli shaxsni aniqlashdagi qiyinchiliklarni oshiradi. Bunday manfaatdor tomonlarning ko'pchiligi ma'lumotlarga mulk huquqini da'vo qilishi mumkin. Chunki ular ma'lumotlarni yaratadi yoki hosil qiladi yoki ma'lumotlardan foydalanadi, ularni to'playdi, tanlab oladi, shaklga keltiradi, qayta formatlaydi, boyitadi, xarid qiladi, litsenziya oladi yoki ularga qo'shimcha qiymat qo'shadi.

Hatto shaxsiy ma'lumotlarda ham o'zaro manfaatlarni tasavvur qilish mumkin. Masalan, shaxsning tibbiy tarixi, jumladan, DNKsi uning farzandlari uchun ham shaxsiy ma'lumot bo'lishi mumkin. Egalik huquqlari ziddiyatli manfaatlarni hal qilish uchun noaniq vosita bo'lib tuyuladi. Xususan, shaxsiy ma'lumotlarni to'playotgan kompaniyaning manfaatlari va shaxsiy ma'lumotlari to'planayotgan shaxslarning manfaatlarni misol qilib keltirish mumkin. Huquqlar ma'lumotlarning manbasi (subyekt) yoki uni aniqlash va to'plashga sarflangan resurslardan kelib chiqadimi?! Ma'lumotlarni yig'ish

uchun uning hududiga kirishga ruxsat beruvchi shahar ma'muriyati, ma'lumotlarni oluvchi kompaniya, ma'lumotlarni to'plash uchun apparat vositalarini taqdim etuvchi kompaniya manfaatlarini qanday muvozanatlashtirish mumkin?<sup>156</sup> Turli xil manfaatdor tomonlar o'zlarining aniq roliga qarab turli xil vakolatlariga ega bo'lishadi. Shu sababli biron-bir ma'lumotlar manfaatdor tomoni mutlaq (ustun mavqe) huquqlarga ega bo'lmaydi<sup>157</sup>.

Shaxsiy ma'lumotlar bo'yicha "ma'lumotlar subyektlari", ya'ni shaxsiy ma'lumotlari to'plangan va qayta ishlangan shaxslar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlari qanday ishlatilishini nazorat qilish orqali egalikni ko'rsatishlari mumkin. Natijada ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunlarga ko'ra, ma'lumotlar subyektlari o'z shaxsiy ma'lumotlarining egalari sifatida tan olinadi. Shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlar bo'yicha ma'lumotlar subyektlarining yo'qligi sababli individual mulkchilik yondashuvini qo'llash imkoniyati yo'q.

Shaxslar ma'lumotlar subyektlari sifatida ma'lumotlarga egalik huquqini tobora ko'proq tasdiqlamoqda (subyekt mulkdor sifatida). Tashkilotlar (korxonalar mulkdor sifatida) jihatidan ma'lumotlarga egalik tushunchasi tashkilotlar ichida ma'lumotlarni yaratish va ishlov berishning tarqalishi tufayli yanada murakkablashadi. Bu yerda mulkchilikni da'vo qilishning uchta alohida asosi aniqlanishi mumkin. Birinchidan, tashkilotlar moliyaviy mulohazalar, masalan, moliyalashtirish (mulkdor sifatida moliyalashtiruvchi tashkilot) yoki ma'lumotlarni sotib olish/litsenziyalash (mulkdor sifatida xaridor/litsenziatar) asosida mulkchilik huquqini da'vo qiladi. Ushbu paradigmalarda har doim ikki tomonlama bo'ladi. Bir tomondan, ma'lumotlarni yaratuvchini moliyalashtiruvchi tashkilot; ikkinchi tomondan, boshqa tomonning ma'lumotlarini sotib oluvchi yoki litsenziyaga oluvchi tashkilot. Birinchi holatda ma'lumotlarni egalik qilish huquqi moliyalashtiruvchi tashkilotga cheklovsiz o'tkazilsa, ikkinchi holatda ma'lumotlarga egalik huquqi ma'lum cheklovlar bilan xarid qiluvchi/litsenziyaga oluvchi tomonga o'tkaziladi. Ikkinchidan, tashkilot ma'lumotlardan foydalanish orqali egalikni

---

<sup>156</sup> Teresa Scassa, *Sharing Data in the Platform Economy: A Public Interest Argument for Access to Platform Data*, 50 UBC LAW REVIEW 1017-1071 (2017).

<sup>157</sup> Teresa Scassa, *Sharing Data in the Platform Economy: A Public Interest Argument for Access to Platform Data*, 50 UBC LAW REVIEW 1017-1071 (2017).

da'vo qilishi mumkin. Bu ko'pincha ma'lumotlarga yuqori darajada ishonch talab qiladigan va shu bilan mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan iste'molchi tomonlar (iste'molchilar mulkdor sifatida) uchun xos. Bundan tashqari, u turli manbalardan (o'quvchi mulkdor sifatida) ma'lumotlarni o'qib, o'z bilim bazasini yaratish yoki to'ldirish uchun bo'lishi mumkin. Uchinchidan, tashkilotlar ma'lumotlarni ishlov berishdan qiymat oladi va shu bilan egalikni da'vo qiladi. Ishlov berish turiga qarab to'rtta paradigmani ajratish mumkin: ma'lumotlar yaratish (mulkdor sifatida yaratuvchi), ma'lumotlarni formatlash (mulkdor sifatida qadoqlovchi), turli ma'lumot manbalaridan ma'lumotlar to'plash (mulkdor sifatida to'plovchi) va ma'lumotlarni qayta kodlash (mulkdor sifatida qayta kodlovchi).

Darhaqiqat, Big Data va IoT sohasidagi ma'lumotlar ekotizimi bir nechta ishtirokchilar va operatsiyalarning o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi. Turli manfaatdor tomonlar ma'lumotlarni yaratish va hosil qilish jarayonlarida turli darajalarda harakat qilishlari mumkin. Ular, masalan, ma'lumotlardan foydalanishi, ularni to'plashi, yaratishi, tanlashi, boyitishi, tahlil qilishi va qiymat qo'shishi mumkin. Natijada ma'lumotlarga egalik huquqini kim talab qilishga haqli ekanligini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin, chunki ushbu ishtirokchilarning har biri o'zlarining muayyan rollariga qarab turli darajada egalik huquqini talab qilishlari mumkin. Biror-bir ishtirokchining mutlaq huquqlarga ega bo'lishi ehtimoli kam. Ma'lumotlarga kim egalik qilishi bir nechta da'vogarlar bilan murakkablashishi mumkin. Qanchalik ko'p manbalar birlashtirilsa, vaziyat shunchalik murakkablashadi<sup>158</sup>.

Bugungi kunda ma'lumotlarga egalik qilishni tartibga solishga nisbatan turli yondashuvlar ilgari surilmoqda.

*Ma'lumotlarga oid yondashuv.* Ushbu yondashuv ma'lumotlar turiga qarab ma'lumotlarga egalikni tasniflashni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar turi uning shaxs yoki biznesga tegishli ekanligini belgilaydi. Masalan, agar ma'lumotlar biznes bilan bog'liq bo'lsa

---

<sup>158</sup> Who owns the Machine Generated Data in IoT – Men or Machine?, IIoT World (2017), <https://www.iiot-world.com/industrial-iot/digital-disruption/who-owns-the-machine-generated-data-in-iiot-men-or-machine/> (last visited Sep 30, 2021).

(masalan, mashina ma'lumotlari), ular ma'lumotlar tegishli bo'lgan shaxs emas, balki biznesga tegishli bo'ladi.

*Mulk huquqi yondashuvi.* Ma'lumotlarga egalikni uning qanday va qayerda saqlanishiga qarab tasniflash mumkin. Bu yondashuv "moddiylik" hissini beradi. Biroq ma'lumotlarning asosiy qiymati uning ko'chma ekanligi va kompaniyalar o'z ma'lumotlarini tobora bulutli (cloud) tizimlarda saqlayotganligi sababli ushbu yondashuv ma'lumotlarning aktiv sinfini yetarlicha qamrab olmasligi mumkin.

*Harakatga asoslangan yondashuv.* Bu yondashuv ma'lumotlar ishlab chiqaruvchisiga ma'lumotlarga egalik huquqini berishdir. Ushbu model ham noaniqlikni keltirib chiqaradi. Misol uchun, "ma'lumotlar ishlab chiqaruvchisi" kim bo'lishi mumkin: (i) ma'lumotlar tegishli bo'lgan shaxslar, (ii) ma'lumotlar to'plovchisi yoki (iii) boshqa birov?

*Foyda oluvchi mulkdor yondashuvi.* Muqobil yondashuv ma'lumotlarni "foйда oluvchi mulkdor"ga tayinlashni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ma'lumotlarga egalik ma'lumot yaratish, ishlab chiqarish xarajatlari va ma'lumotlarni saqlash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar kabi omillarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Biroq yuqorida tavsiflangan ma'lumotlarni ishlab chiqish va saqlashning eksponensial o'sishini inobatga olsak, bu yondashuv deyarli muqarrar ravishda ma'lumotlar bilan bog'liq xarajatlarni ko'targan turli tomonlar o'rtasida ko'plab nizolarga olib keladi<sup>159</sup>.

Ma'lumotdan manfaatdor tomonlarning ayrim toifalariga ma'lumotlarga (eksklyuziv) egalik huquqini berish eng maqbul yechim bo'lmasligi mumkin. Bu jiddiy raqobat xavflarini keltirib chiqarishdan tashqari, ma'lumotlarga egalikni tartibga solish juda qiyin bo'ladi. Misol uchun, huquq egasini aniqlash har doim ham oson emas, chunki bir nechta manfaatdor tomonlar ko'pincha ma'lumotlarni to'plash va ishlov berishga bevosita yoki bilvosita hissa qo'shadi. Bundan tashqari, potensial ma'lumotlarga birgalikda egalik qilish bloklanish holatlariga olib kelishi va ma'lumotlardan yetarlicha foydalanmaslik tufayli yuzaga keladigan samarasizlikni ku-

---

<sup>159</sup> Who owns the Machine Generated Data in IoT – Men or Machine?, IIoT World (2017), <https://www.iiot-world.com/industrial-iot/digital-disruption/who-owns-the-machine-generated-data-in-iiot-men-or-machine/> (last visited Sep 30, 2021).

chaytirishi mumkin. Shunday qilib, barcha subyektlar manfaatlarini hisobga olishda istisnolar va cheklovlarning murakkab tizimini amalga oshirishga to'g'ri keladi.

Agar ma'lumotlarga nisbatan mulk huquqlari nazarda tutilsa, nazoratni amalga oshirish qobiliyati xavf tug'iladi. Misol uchun, iste'molchining mulk huquqi sotilganda, iste'molchi o'zining mulk huquqlari va mulkni nazorat qilish qobiliyatidan voz kechadi.

Agar shaxslar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlariga mulk huquqiga ega bo'lsa, tadqiqot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga kirish imkoniyati kerakli ma'lumotlarni olish xarajatlari va/yoki ma'lumotlar egalari ma'lumotlarni bermaslik qarori tufayli kamayishi mumkin. Ma'lumotlarni to'plash xarajatlari tadqiqotchilar uchun juda qimmat bo'lib, ular kichikroq ma'lumotlar to'plamlari va namunalar hajmidan foydalangan holda, tadqiqot o'tkazishga majbur bo'lishi mumkin. Kichikroq ma'lumotlar to'plamlari va namunalar hajmi bilan bunday tadqiqotlar kamroq ishonchli bo'ladi va ilmiy taraqqiyot sekinlashadi, bu, ayniqsa, sog'liqni saqlash sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumotlarda mulk huquqini yaratish cheklangan resurslarga ega bo'lgan odamlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ko'proq resurslarga ega bo'lgan shaxslar ma'lumotlarni kompaniyalarga sotishga kamroq moyil bo'lishi mumkin, bu kompaniyalar tomonidan to'plangan ma'lumotlar to'plamlarini buzishi mumkin, ammo, ehtimol, bundan ham muhimroq – maxfiylikni himoya qilishning iqtisodiy maqomga asoslanishiga olib kelishi mumkin. Ma'lumotlarga oid mulk huquqi maxfiylik uchun haq to'lash (payment for privacy – PFP) modelining in'ikosiga aylanishi mumkin. Iste'molchilar PFP modellari orqali oshirilgan maxfiylik cheklovlari uchun haq to'lashi mumkin.

Dunyodagi eng yirik kompaniyalardan bir nechtasi biznes modellari ma'lumotlarga juda bog'liq. Agar ma'lumotlarga mulk huquqi mavjud bo'lsa, bunday bozorga kirish xarajatlari haddan tashqari yuqori bo'lib qolishi mumkin.

Bitim xarajatlari deyarli muqarrar ravishda sezilarli darajada oshadi, chunki shartnoma tomonlari ma'lumotlarni nazorat qiluvchi tomonlar potensial "ma'lumotlar egalari" sifatida harakat qiluvchi

uchinchi shaxslarga kirish huquqini berish vakolatiga ega ekanligini aniqlab olishlari kerak. Bundan tashqari, ma'lumotlarga egalik huquqlari"ni belgilash, ayniqsa, "ma'lumotlarga egalik" allaqachon ustun bo'lgan shartnoma tomoniga topshirilgan bo'lsa, shartnoma tomonlarining savdolashish pozitsiyalarida nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, "ma'lumotlarga egalik huquqlari"ni joriy etish asossiz raqobat cheklovlariga qarshi kafolatlar uchun keng qamrovli istisnolar ishlab chiqishni talab qiladi. Bu uzoq va ko'plab sudlov nizolarining ehtimolini oshiradi. "Ma'lumotlarga egalik huquqlari"ni joriy etish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va ma'lumotlarga kirish, eng avvalo, jamoatchilik manfaatlarida osonlashtirishga hissa qo'shish o'rniga, aynan teskarisiga ishlash ehtimoli yuqori.

Mavjud tizimlar "mulk huquqi" tushunchasini emas, de-fakto "egalik"ni himoya qiladi. Umuman, ma'lumotlarga nisbatan qo'llanadigan keng qamrovli mulk rejimining yo'qligi sharoitida xom ma'lumotlar, asosan, haqiqiy eksklyuzivlikka asoslangan va xususiy huquq ma'nosida egalikni tan olmasdan, shartnomaviy va kirishni cheklash mexanizmlari orqali boshqariladi.

Ma'lumotlarga egalik qilish masalasi, bir tomondan, maxfiylikni himoya qilish va axborotli o'zini o'zi belgilash bilan, boshqa tomondan, fikr, aloqa, fan, iqtisodiy raqobat va texnologik innovatsiyalar erkinligi bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumotlar hozirgacha har ikki turdagi manfaatlarni himoya qilish uchun mulk huquqi bilan himoyalangan.

Shunga qaramay, ma'lumotlarning muayyan qismi ma'lum bir shaxs bilan bog'langanligining o'zi shaxs o'zining shaxsiy ma'lumotlariga yuridik jihatdan "egalik qiladi" degani emas. Darhaqiqat, amaldagi ma'lumotlarni himoya qilish qonunlari shaxsiy ma'lumotlarga kim egalik qilishi va kim egalik qilmasligi o'rtasida farq qilmaydi.

## 2.2-§. Big Data kontekstida intellektual mulk huquqlariga oid yondashuvlar

Ma'lumotlar bilan bog'liq asosiy intellektual mulk huquqlari sifatida mualliflik huquqi, Sui Generis ma'lumotlar bazasi huquqlari va tijorat sirini keltirish mumkin. Tovar yoki xizmat ko'rsatish belgisi ma'lumotlar mahsulotlarida (masalan, indekslarda) ishlatilishi mumkin, lekin, umuman olganda, xom ma'lumotlarda emas. Patentlar va boshqa intellektual mulk shakllari ma'lumotlarni manipulyatsiya qiluvchi va qayta ishlovchi dasturiy ta'minot va biznes jarayonlarini himoya qilishi mumkin, lekin ma'lumotlarning o'zini emas<sup>160</sup>.

### Mualliflik huquqi

AQShning "*Feist Publications, Inc. v. Rural Telephone Service Co.*" sud ishida ma'lumotlar bazasini mualliflik huquqi bilan himoya qilish mezonlari ko'rib chiqildi. AQSh Oliy sudi ma'lumotlar bazasini mualliflik huquqi obyekti sifatida himoya qilish uchun u original bo'lishi va muayyan darajadagi ijodiy mehnatni aks ettirishi kerakligini ta'kidladi. Ushbu qaror ma'lumotlar bazalarini, shu jumladan, Big Data bazalarini intellektual faoliyat natijasi sifatida mualliflik huquqi bilan himoyalash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mualliflik huquqlari muallifning original asarlarini himoya qiladi<sup>161</sup>. Mualliflik huquqi – bu mualliflarning adabiy va badiiy asarlariga nisbatan huquqlarini anglatuvchi yuridik atama. Mualliflik huquqi kitoblar, musiqa, rangtasvir, haykaltaroshlik va filmlar kabi ko'plab asarlarni, shuningdek, kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazalari, reklamalar, xaritalar va texnik chizmalarni himoya qiladi. Mualliflik huquqlari faqat ifoda shakllariga nisbatan qo'llanadi, tushunchalar, jarayonlar, ishlash usullari yoki matematik ifodalar uchun umumiy tarzda qo'llanmaydi<sup>162</sup>.

AQSh huquqshunos olimi Jeyms Grimmelman Big Data-ni "ma'lumotlarning katta to'plami" sifatida ta'riflaydi va ular-

---

<sup>160</sup> Richard Kemp. *Legal aspects of Managing Big Data*, 30 Computer law & security review, 482–491 (2014).

<sup>161</sup> A.K. Koul & V.K. Ahuja. *The law of intellectual property rights* (2001).

<sup>162</sup> Copyright, Wipo.int, <https://www.wipo.int/copyright/en/> (last visited Sep 30, 2021).

ning huquqiy maqomini aniqlashda qiyinchiliklar mavjudligini ta'kidlaydi. U Big Datani yaratishda ko'plab subyektlar ishtirok etishi, ma'lumotlarning turli manbalardan olinishi va doimiy yangilanib turishi kabi omillar mualliflik huquqini belgilashni murakkablashtiradi, deb hisoblaydi.

Fransiyalik huquqshunos Olivye Lavo Big Datani ikkiga bo'lib, "ma'lumotlar to'plamlari" va "ma'lumotlar oqimlari" tushunchalarini kiritgan. U ma'lumotlar to'plamlariga nisbatan mualliflik huquqini qo'llash mumkinligi, ammo ma'lumotlar oqimlari bundan mustasno ekanligini ta'kidlaydi.

Rossiyalik olim Ye.V. Xalanskiy Big Data kontekstida mualliflik huquqining yangi talqinlarini taklif qiladi. U Big Data to'plamlari ham ijodiylik elementi mavjud bo'lganda, ularni mualliflik huquqi obyekt sifatida tan olish mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Xalanskiy ma'lumotlar massivlari doimo ham originallik talablariga javob bera olmasligini qayd etadi.

Big Data va mualliflik huquqi masalasida xalqaro miqyosda ham turli yondashuvlar mavjud. Intellektual Property Watch tashkiloti tomonidan 2019-yilda e'lon qilingan maqolada Big Data kontekstida mualliflik huquqi va ma'lumotlar bazasi sui generis huquqining o'zaro nisbati tahlil qilingan. Maqolada AQSh va Yevropa Ittifoqi qonunchiligidagi farqli jihatlar ko'rsatib o'tilgan. Xususan, AQShda ma'lumotlar bazasini mualliflik huquqi bilan himoya qilish uchun uning "tanlash va joylashtirish" (selection and arrangement) mezonlariga javob berishi talab etiladi. Yevropa Ittifoqida esa ma'lumotlar bazasini yaratishda "sezilarli investitsiya" (substantial investment) mavjudligi sui generis huquqni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, germaniyalik olim Tomas Margoni esa Big Dataning mualliflik huquqi bilan himoyalinishiga skeptik yondashadi. Uning fikricha, Big Data ko'pincha faktlar, statistika va sensorlardan olingan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bular esa TRIPS kelishuvi va milliy qonunchilikka ko'ra mualliflik huquqi obyekt sifatida hisoblanmaydi. U Big Datani sui generis huquq asosida himoya qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

Ko'pgina mamlakatlarda ma'lumotlar bazalari mualliflik huquqi qoidalari asosida himoyalaniadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi

Fuqarolik kodeksining 1043-moddasiga ko'ra, ma'lumotlar bazalari mualliflik huquqi obyektini deb e'tirof etiladi.

Ma'lumotlar bazalari turli mamlakatlarda turlicha ta'riflanadi, shuningdek, mualliflik huquqiy himoyasining yuridik talqinlari ham farqlanadi. Bugungi kunda ma'lumotlar bazalarini yaratish uchun zarur bo'lgan intellektual qobiliyatlar atrofida bahslar davom etmoqda. Ko'plab ma'lumotlar bazalari amaldagi qonunchilik bo'yicha mualliflik huquqiy himoyasi uchun minimal talablarga javob bermaydi<sup>163</sup>.

Sud amaliyotidan kelib chiqadigan bo'lsak, Yevropa Ittifoqi Sudi esa "*Football Dataco Ltd and Others v Yahoo! UK Ltd and Others*" (2012) ishida futbol o'yinlari jadvallarining mualliflik huquqi bilan himoya qilinishini rad etgan. Sud bunday jadvallarda originallilikning yetarli darajasi yo'qligini ta'kidlagan<sup>164</sup>.

TRIPS kelishuvining 10(2)-moddasi<sup>165</sup> va WIPO mualliflik huquqi shartnomasining 5-moddasi<sup>166</sup> "tanlash va tartibga solish tufayli intellektual ijod bo'lgan"<sup>167</sup> ma'lumotlar yoki boshqa materiallar to'plamlariga mualliflik huquqi himoyasini beradi. Bern konvensiyasining 2(5)-moddasi mualliflarning adabiy va badiiy to'plamlariga mualliflik huquqini berdi. Bu to'plamlar o'z tarkibidagi tanlash va joylashtirilishi tufayli intellektual ijoddir<sup>168</sup>.

AQShda 1976-yilgi Mualliflik huquqi qonunining 101-bo'limi "to'plamlar va jamoa asarlar"ni ta'riflaydi. Ushbu qonunga ko'ra, ja-

---

<sup>163</sup> V.K. Gupta, *Copyright Issues Relating to Database Use*, 17 DESLDOC BULLETIN OF INFORMATION TECHNOLOGY 11-16 (1997).

<sup>164</sup> Case C-604/10, *Football Dataco Ltd and Others v Yahoo! UK Ltd and Others*, ECLI:EU:C:2012:115

<sup>165</sup> Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights, (1995) [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/31bis\\_trips\\_01\\_e.htm](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/31bis_trips_01_e.htm) (last visited Sep 30, 2021).

<sup>166</sup> WIPO Copyright Treaty (WCT) (1996), <https://wipolex.wipo.int/en/text/295157> (last visited Sep 30, 2021). [hereinafter WCT]

<sup>167</sup> Compare TRIPS art. 10(2) with WCT art. 5. Basic Proposal for the Substantive Provisions of the Treaty on Certain Questions Concerning the Protection of Literary and Artistic Works to be considered by the Diplomatic Conference CRNR/DC/4, In Diplomatic Conference on Certain Copyright and Neighboring Rights Questions (1996), [https://www.wipo.int/edocs/mdocs/diplconf/en/cnrn\\_dc/cnrn\\_dc\\_4.pdf](https://www.wipo.int/edocs/mdocs/diplconf/en/cnrn_dc/cnrn_dc_4.pdf) (last visited Sep 30, 2021). (According to the Explanatory Notes, no differences were seen between the words "collection" and "compilation").

<sup>168</sup> Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works Paris Act of July 24, 1971, as amended on September 28, 1979, <https://wipolex.wipo.int/en/text/283693> (last visited Sep 30, 2021), art. 2(5).

moa asarlarida mualliflik materiallarni tanlash, muvofiqlashtirish va tartibga solishga nisbatan qo'llanadi. Bunda faktual ma'lumotlarning o'zi mualliflik huquqi obyektini hisoblanmaydi.

Mualliflik huquqi qonunlari ma'lumotlar bazalarini adabiy va ijodiy asarlar to'plami yoki jamlanmasi sifatida himoya qiladi. Asosiy mezon shundan iboratki, ma'lumotlar bazasi uning yaratuvchisining intellektual mehnatining mahsuli bo'lib, originallikning yetarli darajasini namoyon qiladi<sup>169</sup>.

WIPO mualliflik huquqi shartnomasi har qanday shakldagi ma'lumotlar yoki boshqa materiallar to'plamini, agar ular o'z tarkibini tanlash yoki tartibga solish tufayli intellektual ijod hisoblansa, himoya qiladi. Bunday ijod bo'lmasa, ma'lumotlar bazasi Shartnoma doirasida qamrab olinmaydi<sup>170</sup>.

Ma'lumotlar to'plamlari uchun ham mualliflik huquqi asosida himoya mavjud bo'lib, bu Big Data kontekstida juda muhimdir. AQSh Mualliflik Huquqi qonunchiligiga ko'ra, to'plam – bu “avvaldan mavjud materiallar yoki ma'lumotlar to'plami yoki yig'indisi bo'lib, ular shunday tarzda tanlanadi, muvofiqlashtiriladi yoki tartibga solinadiki, natijada hosil bo'lgan asar butun sifatida mualliflikning original asari hisoblanadi. To'plam atamasi jamoa asarlarini ham o'z ichiga oladi<sup>171</sup>”. Faqat faktual ma'lumotlar to'plami mualliflik huquqi bilan himoyalanganmaydi. Aksincha, to'plam faqatgina agar u ijodiy yoki original harakatni, masalan, materialni tanlash va tartibga solishni o'z ichiga olsa, mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi mumkin. Himoya faqat to'plamning ijodiy yoki original jihatlari bilan cheklangan<sup>172</sup>.

O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunida ham ma'lumotlar bazalari va to'plamlariga oid normalar mavjud. Qonunning 7-moddasiga ko'ra, ma'lumotlar bazalari va to'plamlar mualliflik huquqi obyektini bo'lishi mumkin, agar ular mazmunini tanlash va joylashtirish jihatidan ijodiy mehnat natijasi bo'lsa. Demak, ma'lumotlar to'plamining originallik va ijodkorlik mezonlariga javob berishi muhim shart hisoblanadi.

---

<sup>169</sup> O'sha manba.

<sup>170</sup> WCT, art 5.

<sup>171</sup> 17 U.S. Code § 101- Definitions.

<sup>172</sup> 17 U.S. Code § 103 – Subject Matter of Copyright: Compilations and Derivative Works.

1991-yilgacha AQSh Oliy Sudi “peshona teri” doktrinasi faktual to‘plamlar yoki “sanoat to‘plamlari”<sup>173</sup>ga nisbatan qo‘llanishi kerak, degan fikrni bildirgan. Bern konvensiyasi ratifikatsiya qilingandan ikki yil o‘tgach, AQSh sudlari o‘zlarining ilgarigi qarorlarini bekor qildilar, “peshona teri” doktrinasini rad etdilar va faktual to‘plamlarni mualliflik huquqini buzishdan himoya qilish qoidalarini o‘rnatdilar. AQSh sudlari muallifning shunchaki mehnatidan ko‘ra, uning o‘z asarlaridagi ijodkorligini tan olish va qadrlashni boshladi. Faktlar yoki ma‘lumotlarni to‘plash va tuzish davomida qilingan mehnat hissalarini mualliflik huquqi obyekti bo‘lmay qoldi. AQSh Oliy Sudi “Feist Publications, Inc. v. Rural Telephone Service Co., Inc. (1991)”<sup>174</sup> deb nomlangan mashhur ishda faktual to‘plamni tanlash va tartibga solishda muallifning ijodiy ifodasini isbotlashni talab qildi. Ushbu ish xom ma‘lumotlarga, xususan, telefon ma‘lumotnomalarida keltirilgan abonentlarning ismlari va manzillariga taalluqli edi. AQSh Oliy Sudi ikki qoidani belgilab berdi: (a) faktlar mualliflik huquqi bilan himoyalalanmaydi va (b) faktlar to‘plamlari himoyalalanadi<sup>175</sup>. Oliy Sud to‘plam originallikning kamida minimal darajasini o‘z ichiga olishi kerakligini aytdi. Ma‘lumotlarning xronologik, ketma-ket yoki alifbo tartibidagi ro‘yxati ishonchli darajada yetarli bo‘lmasligi mumkin, ammo subyektiv mulohazani aks ettiruvchi boshqa guruhlash ehtimol shunday bo‘lishi mumkin<sup>176</sup>.

Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, hosila va jamlanma asarlar, ularning yaratilishi uchun asos bo‘lgan yoki ular tarkibiga kirgan asarlar mualliflik huquqi obyektlari bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadi. Masalan,

---

<sup>173</sup> *Hutchinson v. Frontier*, 770 F.2d 128 (1985) (8th. Cir. 1989) (Concerning copyrightable telephone directories); *Applied Innovations, Inc. v. Regents of Univ. of Minn.*, 876 F.2d 626, 634-35 (8th. Cir. 1989) (Concerning copyrightable data of a psychological test only as compilations); *Dow Jones & Company, Inc., v. Board of Trade of the City of Chicago* 546 F. Supp. 113 (1982) (Concerning copyrightable lists of component stocks) and in *List Pub. Co. v. Keller*, 30 F. 772 (1887) (Concerning copyrightable society directories).

<sup>174</sup> *Feist Publications, Inc. v. Rural Telephone Service Co., Inc.*, 499 U.S. 340, 111 S. Ct. 1282 (1991).

<sup>175</sup> *Id.* at 345.

<sup>176</sup> Paven Malhotra, *How Big Data and IP Intersect Big Data is big business—but who owns it?*, Intellectual Property an ALM Supplement to Corporate Counsel, 2016.

[https://www.keker.com/Templates/media/files/Articles/How%20Big%20Data%20and%20IP%20Intersect\\_Malhotra.pdf](https://www.keker.com/Templates/media/files/Articles/How%20Big%20Data%20and%20IP%20Intersect_Malhotra.pdf) (last visited Sep 30, 2021).

muddat o'tganligi tufayli muhofaza qilinmaydigan asarlar tarjimasida (masalan, A. Navoiy g'azallarining hozirgi zamon tarjimalari) huquqiy muhofazadan mahrum etilmaydi, normativ-huquqiy hujjatlar to'plamini muayyan tizim asosida tuzish esa ushbu to'plamni mualliflik huquqi obyekt sifatida e'tirof etishga to'sqinlik qilmaydi, vaholanki, to'plamga kiritilgan hujjatlarning o'zi mualliflik huquqi bilan umuman muhofaza etilmaydi. Ayni bir vaqtda hosila va jamlanma asarlarning "tobeligi" yoki "mustaqil emasligi" ularning huquqiy rejimiga ham muayyan ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunda ushbu turdagi asarlar nafaqat mualliflik huquqi obyektlari to'g'risidagi moddada (Qonunning 6-moddasi) ajratib ko'rsatiladi, balki bunday asarlarga jamlanma asarga bo'lgan mualliflik huquqiga (14-modda) doir moddalar bag'ishlanadi. Ushbu moddalarga muvofiq, jamlanma asar muallifiga (tuzuvchisiga) fan, adabiyot va san'at asarlariga ishlov berishga, ijodiy mehnat natijasini ifodalovchi materiallarni tanlab olish yoki joylashtirishga bo'lgan mualliflik huquqi tegishlidir. Tuzuvchi jamlanma asarga kiritilgan asarlardan har birining muallifi huquqlariga rioya etgan taqdirda, mualliflik huquqidan foydalanadi. Agar mualliflik shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamlanma asarga kiritilgan asarlarning mualliflari o'z asarlaridan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlarini jamlanma asardan qat'i nazar, saqlab qoladilar. Tuzuvchining mualliflik huquqi boshqa shaxslarning o'z jamlanma asarlarini yaratish uchun ayni o'sha materiallarni mustaqil ravishda tanlab olishlari yoki joylashtirishlariga to'sqinlik qilmaydi<sup>177</sup>. Ushbu qoidalar bevosita jamlanma asar toifasiga kiruvchi ma'lumotlar bazasiga tatbiq etiladi.

Big Data dastlab to'planganda, ko'pincha tuzilmagan va xom bo'ladi. Shu sababli Big Data uchun xarajatlarning asosiy qismi ma'lumotlarni tashkil qilish uchun dasturiy ta'minot va xodimlarga sarflanadi. Mualliflik huquqi ma'lumotlarni korporatsiyaning mulohazasi va sa'y-harakatlarini aks ettiruvchi formatga to'plashga nisbatan qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, to'plamni tashkil etuvchi

---

<sup>177</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh. Ilmiy sharhlar. T 3./O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Baktria press, 2013. – 800-b.

individual ma'lumotlar mualliflik huquqi bilan himoyalanganligini ta'kidlash joiz – bu qonunning sezilarli kamchiligidir. AQShning Oliy Sudi Feist Publications ishida ta'kidlaganidek, “xom faktlar xohlaganicha nusxalanishi mumkin”<sup>178</sup>.

Yevropa Ittifoqining “Ma'lumotlar bazalari to'g'risida”<sup>179</sup>gi Direktivasi Yevropa Ittifoqi ichidagi ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi asosida himoya qiladi. Direktiva ma'lumotlar to'plamiga har qanday shaklda, jumladan, qattiq nusxa to'plamlari va elektron ma'lumotlar bazalariga nisbatan qo'llanadi<sup>180</sup>. Direktivaning mualliflik huquqiga oid qismi, II Bob, ma'lumotlar bazasi tarkibiga nisbatan mavjud mualliflik huquqiy himoyasiga zarar yetkazmasdan, faqat ma'lumotlar bazasining tuzilishi yoki sxemasi uchun ishlatiladi. Direktivaning standartiga ko'ra, ma'lumotlar bazasi “o'z tarkibini tashlash yoki tartibga solish” orqali “muallifning intellektual ijodi”ni tashkil etishi kerak.

Ushbu talablarni biz yuqorida keltirilgan milliy qonunchilik normalarida ham ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida ma'lumotlar bazalari va to'plamlariga nisbatan mualliflik huquqi tatbiq etilishida ham bir qator muammolar mavjud. Xususan, ma'lumotlar bazalari tarkibining doimiy yangilanib turishi, ularning hajmi va manbalarining xilmaxilligi, shuningdek, yaratilishida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi kabi omillar mualliflik huquqi me'yorlaridan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, Big Datani boshqaruvchilar ko'pincha ular to'plagan ma'lumotlarni ajratishi va korrelyatsiya qilishi kerak. Ma'lumotlar hajmi juda katta va doimiy o'zgaruvchan bo'lsa-da, ular, shubhasiz, Big Data nazoratchilarining qiymat ustunliklarini

---

<sup>178</sup> Paven Malhotra, *How Big Data and IP Intersect Big Data is big business—but who owns it?*, Intellectual Property an ALM Supplement to Corporate Counsel, 2016.

[https://www.keker.com/Templates/media/files/Articles/How%20Big%20Data%20and%20IP%20Intersect\\_Malhotra.pdf](https://www.keker.com/Templates/media/files/Articles/How%20Big%20Data%20and%20IP%20Intersect_Malhotra.pdf) (last visited Sep 30, 2021).

<sup>179</sup> Directive 96/9/EC of the European Parliament and of the Council of 11 March 1996 on the legal protection of databases. *Official Journal of the European Communities*, L 77, 27 March 1996, pp. 20–28. <https://eurlex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=CELEX:31996L0009:EN:HTML> (last visited Sep 30,

2021). [hereinafter Database Directive]

<sup>180</sup> *Id.* art. 1(1), recital (14).

aks ettiradi. Natijada ma'lumotlardan foydalanuvchilar turli Big Data nazoratchilaridan olgan Big Data ko'pincha tartibda turlicha va hatto diametral qarama-qarshi bo'ladi, bu tabiiy ravishda ularning ma'lumotlarni tanlash va tartibga solishni aks ettiradi. Bu to'plam ishining original talablariga mos keladi. Ko'rinib turibdiki, Big Dataning mualliflik huquqini himoya qilish yaxshi tanlovdir<sup>181</sup>.

1990-yillarda odatiy ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlar umumiy jihatdan "tuzilgan" bo'lib, bu tuzilish ma'lumotlar bazasiga (ingichka) mualliflik huquqiy himoyasini tashkiliy darajada bergan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, eski ma'lumotlar bazalari zamonaviy ma'lumotlar bazalariga qaraganda kamroq ma'lumotlar to'plamiga ("kichik ma'lumotlar") ega edi. Haqiqatan ham, Big Data ko'pincha SQL ma'lumotlar bazasi tushunchasiga qarama-qarshi tarzda, TRIPS kelishuvida va Yevropa Ittifoqining ma'lumotlar bazalari bo'yicha direktivasida aks ettirilganidek ta'riflanadi. Big Data dasturiy ta'minotining ma'lumotlarni mualliflik huquqini ishga tushiruvchi tarzda "tanlashi yoki tartibga solishi" juda kam ehtimol. Ba'zilar mualliflik huquqi jadvallar yoki TDM tizimi tahlili natijalari kabi boshqa natijalarni himoya qilish uchun ishlatilishi mumkinligini aytishadi<sup>182</sup>. Kompyuter tomonidan yaratilgan asarlar mualliflik huquqi asarlari sifatida tan olinishi kerakligi hali hal qilinmagan yoki inson muallifligining talab qilinishi foydasiga hal qilingan<sup>183</sup>.

---

<sup>181</sup> Meng Lu, *Intellectual Property Protection of Big Data*, 1693 *Journal of physics:conference series* 012012 (2020).

<sup>182</sup> Daniel Gervais, *Exploring the Interfaces Between Big Data and Intellectual Property Law*, 10 *Journal of intellectual property, information technology and ecommerce law* (2019).

<sup>183</sup> The US Copyright Office, for example takes that view, See, U.S. COPYRIGHT OFFICE, COMPENDIUM OF U.S. COPYRIGHT OFFICE PRACTICES § 101 (3d ed. 2021), at 3-4. See, Amir Khoury, *Intellectual Property Rights for Hubots: On the Legal Implications of Human-like Robots as Innovators and Creators*, 35 *CARDOZO ARTS & ENT. LJ* 635-665 (2016). For an older but potentially still relevant article on the same topic, see Daniel Gervais, *The Protection Under International Copyright Law of Works Created with or by Computers*, 5 *IIC INT'L REV. IND'L PROP. AND COPYRIGHT LAW*, 629, 644-45 (1991). For a critique, see Shlomit Yanisky-Ravid & Luis Antonio Luis Antonio Velez-Hernandez, *Copyrightability of Artworks Produced by Creative Robots and Originality: The Formality-Objective Model*, 19 *MINNESOTA JOURNAL OF LAW, SCIENCE & TECHNOLOGY* (2018). A recent proposal suggests applying the work-made-for-hire doctrine for AI works so that the human operating the AI system would be the author under US law.

See Shlomit Yanisky-Ravid & Samuel Moorhead, *Generating Rembrandt: Artificial Intelligence, Accountability and Copyright – The Human-Like Workers Are Already Here – A New Model*, 2017 *MICHIGAN STATE LAW REVIEW* 659 (2017).

Big Data mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lsa-da, mualliflik huquqi g'oyaning o'zini emas, balki ifodalash g'oyasini himoya qiladi<sup>184</sup>. Bu Big Datani himoya qilish uchun samarasiz, chunki u raqobatga yo'l ochib beradi. Biznes va tahliliy yechimlarning aksariyati shunchaki to'plangan ma'lumotlarda muayyan muammolarni hal qilish yoki naqshlarni aniqlash uchun ishlatiladigan matematik modellar ifodasidir<sup>185</sup>.

### **Sui generis himoyasi**

Big Dataning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ularni an'anaviy intellektual mulk obyektlari doirasida himoya qilish murakkab masala hisoblanadi. Yevropada ma'lumotlar bazalari yaratuvchilari mualliflik huquqi himoyasi yetarli emas, degan xulosaga kelishdi, chunki u faqat ijodiy ma'lumotlarni (fotosuratlar, musiqiy kompozitsiyalar, adabiy asarlar va boshqalar) va nusxa ko'chirish, ko'rish, olish va ularning ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlardan foydalanishni himoya qilgan, ammo ma'lumotlar bazasining faktual tarkibini (statistika, xom ilmiy ma'lumotlar va shu kabilar) himoyalamagan. Ular ma'lumotlar bazalari sanoatiga qilingan investitsiyalarni himoya qilish hamda ta'minlash uchun ularga faktlar va ma'lumotlar tarkibiga yangi huquq – sui generis huquqlari berilishini ilgari surishdi. Sui generis himoyasi haqiqiy intellektual mulk huquqi emas. Aksincha, u ma'lumotlar bazalarida to'plovchining sezilarli investitsiyalarini himoya qilish uchun ishlatiladigan noyob iqtisodiy mezonidir<sup>186</sup>. Sui generis qonunchiligi dastlab AQShda 1996-yilda joriy qilingan, ammo hozirgacha qabul qilinmagan<sup>187</sup>.

Shuningdek, 2018-yilda "Intellektual mulk va raqamli iqtisodiyot" mavzusida o'tkazilgan AQSh Kongress Qo'mitasi eshituvlarida ham

---

<sup>184</sup> Frequently Asked Questions: Copyright, wipo.int, [https://www.wipo.int/copyright/en/faq\\_copyright.html](https://www.wipo.int/copyright/en/faq_copyright.html) (last visited Sep 30, 2021).

<sup>185</sup> Stephen Baker, *Big Data and Math* Thenumerati.net (2012), <http://thenumerati.net/?postID=845&big-data-and-math> (last visited Sep 30, 2021).

<sup>186</sup> Chana Rungrojanakul, *Legal Protection of Sui Generis Databases*, 2005, <https://digitalcommons.law.ggu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1015&context=theses> (last visited Sep 30, 2021).

<sup>187</sup> H.R.3531 – Database Investment and Intellectual Property Antipiracy Act of 1996 104th Congress (1995-1996), <https://www.congress.gov/bill/104th-congress/house-bill/3531/text> (last visited Sep 30, 2021).

Big Datani mualliflik huquqi asosida himoya qilish masalasi ko'tarildi. Biroq AQSh Mualliflik huquqi byurosi vakili Karla Hayden "katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamlari bunday himoyaga muhtoj emas", degan fikrni bildirdi. U buning o'rniga ma'lumotlar bazalari uchun sui generis rejimni taklif qildi.

Rossiyalik huquqshunos olim I.A. Zenin Big Datani intellektual mulkning yangi obyektini sifatida tan olish zarurligini ilgari suradi. Uning fikricha, Big Data mualliflik huquqi yoki ma'lumotlar bazasi sui generis huquqi doirasiga to'liq tushmaydi. Zenin Big Data uchun alohida sui generis rejimni ishlab chiqish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Bunday rejim Big Datani yaratish va foydalanishda ishtirok etgan subyektlarning huquq va manfaatlarini muvozanatlashi lozim.

AQSh huquqshunos olimi Jeyson Shultz Big Dataga nisbatan sui generis huquqini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Big Data an'anaviy ma'lumotlar bazasiga qaraganda yanada murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularni yaratish va ishlov berishda sezilarli mehnat va investitsiya talab etiladi. Shultz Big Dataga sui generis huquqini tatbiq etish orqali ularni noqonuniy foydalanish va tarqatishdan himoya qilish mumkinligini qayd etadi<sup>188</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunida sui generis huquq normasi mavjud emas. Biroq Big Datani himoya qilishda sui generis yondashuvini joriy etish masalasi dolzarb va muhokama talab ekanligini inobatga olish zarur. Bu borada chet el tajribalarini o'rganish, xalqaro tashkilotlar tavsiyanomalarini hisobga olish va milliy manfaatlardan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, sui generis himoyasi faqat ma'lumotlar bazalari uchungina emas, balki umuman Big Data uchun tatbiq etilishi mumkinligini ham ko'rib chiqish lozim.

O'zbek olimlaridan biri Q. Mehmonov ma'lumotlar bazasini himoya qilishda *sui generis* institutini milliy qonunchilikka qo'llash istiqbollari haqida fikr bildirib, ushbu institut ma'lumotlar bazasini huquqiy himoya qilishda original bo'lmagan obyektlarni qamrab

---

<sup>188</sup> Crawford, Kate and Schultz, Jason, Big Data and Due Process: Toward a Framework to Redress Predictive Privacy Harms (October 1, 2013). Boston College Law Review, Vol. 55, No. 93, 2014, NYU School of Law, Public Law Research Paper No. 13-64, NYU Law and Economics Research Paper No. 13-36, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2325784>

olish hamda huquq egalarning mulkiy huquqlarini himoya qilishga keng imkon berishini qayd etadi<sup>189</sup>.

Sui generis ma'lumotlar bazasi huquqlari 1996-yilda Yevropa Ittifoqining ma'lumotlar bazalari bo'yicha direktiva tomonidan joriy qilingan<sup>190</sup>. Direktivada ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi va sui generis huquqi bilan himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi. Direktivaning II bobi ma'lumotlar bazasining original tuzilmasiga mualliflik huquqini qo'llasa, III bob esa ma'lumotlar bazasini yaratishda sarflangan sezilarli investitsiyani himoya qiluvchi sui generis rejimini joriy etadi. Direktivaga ko'ra, ma'lumotlar bazasini yaratishda sezilarli investitsiya (substantial investment) amalga oshirilgan bo'lsa, unga nisbatan sui generis huquqi vujudga keladi. Mazkur huquq ma'lumotlar bazasi yaratuvchisiga 15 yil davomida bazadan foydalanish va uni boshqalarga taqdim etishda mutlaq huquq beradi. Sui generis ma'lumotlar bazasi huquqlari yaratuvchining ruxsatisiz ma'lumotlar bazasidan ma'lumotlarni ishlatish yoki chiqarib olishni taqiqlaydi. Ular vaqt, pul va kuch sarflab yaratilgan har qanday ma'lumotlar bazasini himoya qiladi. Ma'lumotlar bazasi yaratuvchilari, agar ma'lumotlar bazasi tarkibini olish, tekshirish yoki taqdim etishda sifat va/yoki miqdor jihatidan sezilarli investitsiya qilinganligini isbotlay olsa, ularning ma'lumotlar bazalarining butunlay yoki sezilarli qismini chiqarib olish va/yoki qayta foydalanishni taqiqlashlari mumkin<sup>191</sup>. Jiddiy o'zgarishlar ma'lumotlar bazasining sezilarli yangi investitsiya sifatida ko'rilishiga olib keladi. Yangilangan ma'lumotlar bazasi o'zining himoya davri uchun mos keladi<sup>192</sup>.

---

<sup>189</sup> Mehmonov Q.M. "Kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazasiga oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" mavzusidagi yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent: 2018-y.

<sup>190</sup> Database Directive.

<sup>191</sup> Case C-46/02 Fixtures Marketing Ltd v. Oy Veikkaus Ab [2004] ECR I-10396 (ECJ); Case C-203/02 British Horseracing Board v. William Hill Organization [2004] ECR I-10415 (ECJ); Case C-338/02 Fixtures Marketing Ltd v. Svenska Spel AB, Fixtures Marketing v. Svenska Spel [2004] ECR I-10497 (ECJ); Case C-444/02 Fixtures Marketing Ltd v. Organismos prognostikon agonon podofairou

AE (OPAP) [2004] ECR I-10549

<sup>192</sup> Catherine Colston, *Sui Generis Database Right: Ripe for Review?*, 3 JOURNAL OF INFORMATION LAW & TECHNOLOGY (2001).

1997-yildagi “Mualliflik huquqi va ma’lumotlar bazalari huquqlari to’g’risida”gi Nizomlar Direktivani Buyuk Britaniya qonunchiligiga kiritdi.

Yangi huquq ma’lumotlar bazasining o’zi va uning tarkibi o’rtasida mualliflik huquqida bo’lgani kabi aniq farq belgilanmaydi. Natijada ma’lumotlar bazasining asosiy elementlari ham huquqiy himoyaga ega bo’lishi mumkin. “British Horseracing Board Limited v. William Hill Organization (2001)” sud ishi – Buyuk Britaniyada sui generis huquq bo’yicha chiqarilgan birinchi qaror – aynan shu asosiy ma’lumotlar uchun bunday himoyani tasdiqlagan. Bu holatda asosiy ma’lumotlar moliyaviy resurslar va/yoki vaqt, mehnat va energiya shaklidagi investitsiyalar natijasi sifatida ko’riladi hamda himoyalani kerak bo’lgan obyekt hisoblanadi. Huquqning maqsadi esa ushbu investitsiyani nafaqat nohaq raqobatdan, balki unga yetkazilishi mumkin bo’lgan zararlardan ham himoya qilishdir. Laddie J hamda Apellyatsiya sudi aynan “British Horseracing Board Ltd v. William Hill Organization (2001)” ishida mazkur Direktivani talqin etishda ushbu holatni muhim omil sifatida e’tirof etgan.

“Ma’lumotlar bazasi sui generis huquqi hozirga qadar yaratilgan eng nomutanosib va potensial antikonkurent intellektual mulk huquqlaridan biri sifatida e’tirof etilgan”<sup>193</sup>. “Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlar bazalari to’g’risida”gi Direktivasi cheksiz muddat davomida himoya yaratishi mumkin. Yevropa Ittifoqi direktivasining 10(3)-moddasi, agar “ma’lumotlar bazasi tarkibidagi har qanday sezilarli o’zgarish, sifat yoki miqdor jihatidan baholanadigan bo’lsa, shu jumladan, ketma-ket qo’shishlar, o’chirishlar yoki o’zgartirishlar to’plamidan kelib chiqadigan har qanday sezilarli o’zgarish” bo’lsa, bu ma’lumotlar bazasini sezilarli yangi investitsiya deb hisoblashni nazarda tutadi<sup>194</sup>. Bunday takroriy himoya muddatlari himoyaning

---

<sup>193</sup> Jerome H. Reichman & Pamela Samuelson, *Intellectual Property Rights in Data?*, 50 VANDERBILT LAW REVIEW 52-166 (1997), at 81; ESTELLE DERCLAYE, *THE LEGAL PROTECTION OF DATABASES - A COMPARATIVE ANALYSIS* (2008); ROBIN ELIZABETH HERR, *IS THE SUI GENERIS RIGHT A FAILED EXPERIMENT* (2008), at 122.

<sup>194</sup> Article 10(3) and recital 54. “... the burden of proof that the criteria exist for concluding that a substantial modification of the contents of a database is to be regarded as a substantial new investment lies with the of the database resulting from such investment”.

uzoq va deyarli cheksiz muddatiga olib keladi, bu esa Yevropa ma'lumotlar bazasi sanoatida monopoliyani yaratadi. Buni Big Dataga qo'llaganda, katta miqdordagi ma'lumotlar har soniyada yaratilmoqda. Bunday ma'lumotlarning qo'shilishi ma'lumotlar to'plamiga yangi investitsiya kiritilganligini anglatadi. Bu, o'z navbatida, Big Data to'plamiga abadiy himoya beradi.

Direktiva ma'lumotlar bazasi yaratuvchisining "ma'lumotlar bazasi tarkibini olish, tekshirish yoki taqdim etish" uchun qilgan investitsiyasiga murojaat qiladi va keyin ma'lumotlar bazasi egasiga "butun yoki sezilarli qismini chiqarib olish va/yoki qayta foydalanishni oldini olish" huquqini beradi<sup>195</sup>. Bundan tashqari, Direktivaning tavsiflarida ma'lumotlar bazasi – bu "mustaqil asarlar, ma'lumotlar yoki boshqa materiallar to'plami bo'lib, ular tizimli yoki metodik tarzda tashkil etilgan va individual tarzda kirishga ega" deb aytiladi. Professor Hugenholtz bunday himoya mashina tomonidan yaratilgan xom ma'lumotlarga – mualliflik huquqi yoki sui generis huquqlar orqali – taqiqlanishini tasdiqlaydi<sup>196</sup>.

NoSQL texnologiyalaridan foydalanish Big Data korpusining sui generis huquqini bekor qilishi mumkin. Bundan tashqari, Big Data tahlillari natijasida hosil bo'lgan mashina tomonidan yaratilgan chiqishlar (masalan, yangi ma'lumotlar korpusi) "olinmagan" yoki "to'planmagan", balki mashina tomonidan yaratilgan deb ta'kidlash uchun asosli ko'rinadi. Bu endi sui generis huquqi ularni himoya qilmasligini anglatadi.

Ma'lumotlar bazalari bo'yicha direktivaning iqtisodiy asosi ma'lumotlar yaratishga emas, balki ma'lumotlar bazalari ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish va mukofotlashdir<sup>197</sup>. Bu esa investitsiya tushunchasi Big Data kompaniyalariga maxsus munosabatni oqlash uchun yetarli ekanligini savol ostiga qo'yadi. Biroq Matthias Leistnerga ko'ra, barcha sensor yoki mashina

---

<sup>195</sup> Database Directive, art 7(1).

<sup>196</sup> P. Bernt Hugenholtz, *Data Property: Unwelcome Guest in the House of IP*, 3 *Kritika. Essays on Intellectual Property*. See also, Estelle Derclaye, *The Database Directive, in EU COPYRIGHT LAW - A COMMENTARY* 298–354 (Irina A. Stamatoudi & Paul Torremans 2014) at 302-303.

<sup>197</sup> See generally, *Database rights: the basics*, *Pinsent Masons* (2019), <https://www.pinsentmasons.com/out-law/guides/database-rights-the-basics> (last visited Sep 30, 2021).

tomonidan yaratilgan ma'lumotlar, odatda, sui generis huquqidan chiqarib tashlanadi, degan keng xulosa asossizdir<sup>198</sup>.

“Big Data” korpuslarining mualliflik huquqi yoki sui generis ma'lumotlar bazasi huquqi bilan himoyalanganligi bevosita 2017-yildagi Komissiya xabarnomasiga ilova qilingan Komissiya xodimlarining hujjatida o'z aksini topgan. Unda ma'lumotlar ishlab chiqaruvchisining huquqini o'rnatish g'oyasi ilgari surilgan edi. Xodimlar hujjatida Direktiva ma'lumotlarga yangi huquq yaratmaganligi ta'kidlangan. Yevropa Sudiga ko'ra, Direktivaning mualliflik huquqiy himoyasi ham, sui generis huquq ham ma'lumotlar bazalarining tarkibini himoya qilishga mo'ljallanmagan. Yevropa Komissiyasi ma'lumotlarni yaratishga sarflangan investitsiyalar ma'lumotlar bazasi sui generis huquqi asosida himoyalaniishi mumkinligini aniqlashda hisobga olinmasligi kerakligini ham aytgan<sup>199</sup>.

Fikrimizcha, Big Dataga nisbatan milliy qonunchiligimizdagi to'plamlar (ensiklopediyalar, antologiyalar, ma'lumotlar bazalari) va materiallarning tanlanganligi yoki joylashtirilganligiga ko'ra, ijodiy mehnat natijasi bo'lgan boshqa jamlanma asarlar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanishi haqidagi normaga tayangan holda, mualliflik huquqi qo'llanishi lozimligi, shu bilan birga, Big Dataning murakkab tuzilishi hamda ko'p mehnat va investitsiya talab etishini inobatga olgan holda, Jeyson Shultz va Zenin fikrlarini qo'llab-quvvatlab, Big Dataga nisbatan mualliflik huquqi bilan birgalikda sui generis huquqini ham nazarda tutish lozim deb hisoblaymiz. Big Dataga nisbatan mualliflik huquqi va sui generis huquqini tatbiq etish orqali uning to'laqonli himoyasini ta'minlashga erishiladi.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini sui generis huquqi institutiga bag'ishlangan **60<sup>1</sup>-bob. Sui generis huquqi**

---

<sup>198</sup> Matthias Leistner, *Big Data and the EU Database Directive 96/9/EC: Current Law and Potential for Reform*, SSRN Electronic Journal (2018).

<sup>199</sup> European Commission, Commission Staff Working Document on the free flow of data and emerging issues of the European data economy Accompanying the document Communication Building a European data economy {COM(2017) 9 final} (2017), [https://ec.europa.eu/newsroom/dae/document.cfm?doc\\_id=41247](https://ec.europa.eu/newsroom/dae/document.cfm?doc_id=41247) (last visited Sep 30, 2021); See also, European Commission, Building A European Data Economy {SWD(2017) 2 final} (2017), <https://eurlex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:52017DC0009&from=EN> (last visited Sep 30,

deb nomlangan yangi bob bilan to'ldirish lozim. Xususan, ushbu bob doirasida ma'lumotlar bazasi yaratishda sezilarli darajadagi sarmoya kiritilgan va uning tarkibi, tizimlashtirish va taqdim etish shakli o'ziga xoslik kasb etgan hollarda ma'lumotlar bazasiga sui generis huquqi vujudga kelishi, sui generis huquqi ma'lumotlar bazasidan butunlay yoki uning sezilarli qismidan nusxa ko'chirish yoki qayta ishlatishdan himoya qilishi kabi normalar o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

### **Tijorat siri**

Mualliflik huquqi to'plamni tashkil etuvchi individual ma'lumotlar uchun ma'lum darajada himoya bersada, tijorat siri qonunlari yanada kuchli muhofazani ta'minlaydi. Tijorat siri qonunlari to'plam va uning asosidagi ma'lumotlarni ham himoya qilganligi sababli ular kompaniyalarga samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

AQShlik tadqiqotchi Braden Hickok Big Data bilan bog'liq tijorat sirini himoya qilishda alohida yondashuvlarni tahlil qilgan. U AQSh sud amaliyotini o'rganib, "Wellogix v. Accenture" (2013) ishini misol sifatida keltiradi. Mazkur ishda Texas shtati Oliy sudi Wellogix kompaniyasining neft va gaz sanoatiga oid dasturiy ta'minotdagi tijorat sirini tasdiqlagan va ularning Accenture tomonidan o'zlashtirilishini qoralagan. Hickok fikriga ko'ra, ushbu pretsedent Big Data va tijorat siri o'rtasidagi munosabatni aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, fransiyalik tadqiqotchi Jyul Russo (Jules Rousseau) ma'lumotlar hajmi, ularning tez o'zgaruvchanligi va turli manbalardan olinishi kabi omillar an'anaviy tijorat siriga nisbatan yangicha yondashuvlar talab qilishini ta'kidlaydi. U "Michelin v. Tire Kingdom" (2013) ishini misol sifatida keltiradi. Unda AQSh sudi Michelin kompaniyasining raqamli ma'lumotlar to'plami tijorat siri ekanligini tan olgan. Russo fikriga ko'ra, bu pretsedent Big Datani tijorat siri sifatida kvalifikatsiya qilish mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyalik tadqiqotchi Yutaka Arai (Yutaka Arai) Big Data kontekstida tijorat sirining yangi turlarini ajratib ko'rsatadi. U "algoritmik tijorat siri" tushunchasini kiritadi va bunga tavsiya tizimlari hamda narxlarni belgilash algoritmlari kabi ma'lumotlarga asoslangan biznes modellarni misol qilib keltiradi. Arai fikriga ko'ra, bunday tijorat sirini himoya qilish uchun maxsus huquqiy mexanizmlar zarur bo'ladi.

Tijorat siri – bu intellektual mulk huquqlari bilan himoyalangan maxfiy ma’lumotlar bo’lib, ularni sotish yoki litsenziyalash mumkin<sup>200</sup>. Iqtisodiyotdagi kompaniyalar o’zlarining ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) va boshqa tijoratda qimmatli ma’lumotlarni himoya qilish uchun tijorat siridan muntazam ravishda foydalanadi, bu esa raqobatbardoshlik va innovatsiyalarni oshiradi<sup>201</sup>.

Big Data maxfiylik, qiymat va konfidensiallik bo’yicha tijorat siri mezonlariga javob beradi. Birinchidan, Big Data maxfiylik talabiga javob beradi, chunki uning mohiyati ma’lumotlar to’plashdir. Foydalanuvchi o’z shaxsiy ma’lumotlarini Big Data nazorat qiluvchisiga berishga rozilik beradi va bu har ikki taraf tomonidan imzolangan maxfiylik kelishuviga asoslangan bo’lishi kerak. Bu Big Data nazorat qiluvchisini maxfiylik majburiyati ostiga qo’yadi, ya’ni tegishli asos bo’lmasa, foydalanuvchi ma’lumoti oshkor qilinmasligi kerak. Tabiiy ravishda Big Data nazorat qiluvchilari raqobatchilar bozor ustunligini qo’lga kiritmasligi uchun to’plangan ma’lumotlarni maxfiy saqlaydi. Ikkinchidan, Big Dataning tijorat foydalanishi o’z-o’zidan aniq. Ulkan Big Data global iqtisodiyot to’lqinida mamlakat va korxonaning maxfiy qurolidir. Bu ma’lumotlarning maqsadli yaratilishi va tahlili hukumatlar va kompaniyalarga ilmiy qarorlar qabul qilishda yordam beradigan qimmatli axborot resursini yaratadi. Bundan tashqari, Big Data nazorat qiluvchilari Big Datadan ham foyda olishi mumkin, bu esa sezilarli iqtisodiy qiymatga ega. Nihoyat, maxfiylik nuqtayi nazaridan, Big Data nazorat qiluvchilari, odatda, tizimli yangilanishlar orqali Big Data boshqaruvining xavfsizligini yaxshilaydi, bu esa xakerlarni chetlab o’tish va ma’lumotlar sizib chiqishining oldini olishga qaratilgan.

TRIPS kelishuvi nashr qilinmagan ma’lumotlarni himoya qilishni talab qiladi. 39.2-moddaga ko’ra, himoya uning maxfiyligi tufayli tijorat qiymatiga ega bo’lgan va uni maxfiy saqlash uchun oqilona choralar qo’llangan maxfiy ma’lumotlarga nisbatan qo’llanishi kerak. Bu ma’lumotni qonuniy nazorat qiluvchi shaxsga uning roziligisiz uni oshkor qilish, olish yoki boshqalar tomonidan halol ti-

---

<sup>200</sup> Trade Secrets, wipo.int, <https://www.wipo.int/tradesecrets/en/> (last visited Sep 30, 2021).

<sup>201</sup> John Hull, *Protecting trade secrets: how organizations can meet the challenge of taking “reasonable steps”*, WIPO Magazine, 2019. [https://www.wipo.int/wipo\\_magazine/en/2019/05/article\\_0006.html](https://www.wipo.int/wipo_magazine/en/2019/05/article_0006.html) (last visited Sep 30, 2021).

jorat amaliyotiga zid tarzda foydalanishning oldini olish imkonini beradi<sup>202</sup>.

Tijorat siri bo'yicha direktiva (2016/943) Yevropa Ittifoqida tijorat sirini himoya qilishni ma'lum darajada uyg'unlashtirdi. Yevropa Ittifoqining Tijorat siri to'g'risidagi direktivasi (2016/943) himoyasi ma'lumotlar bazalari va ularning asosiy ma'lumotlariga tatbiq etiladi. Ma'lumotlar bazasining asosli va asossiz qismlari himoyalaniadi. Tijorat siri to'g'risidagi direktiva va Ma'lumotlar bazalari to'g'risidagi direktiva bir-birini to'ldiradi<sup>203</sup>.

AQShda tijorat siri shtat qonunchiligi (UTSA qonuni va umumiy huquq) va federal qonun bilan tartibga solinadi. AQShning Tijorat sirini himoya qilish to'g'risidagi qonuni ma'lumotlar to'plamlarini himoya qiladi. Ma'lumotlar bazalari keng miqyosda potensial tijorat siri sifatida tan olinadi va bu himoya ma'lumotlar bazasini to'plash, tanlash va tozalash uchun ishlatiladigan asosiy metodologiyalarga ham taalluqli bo'lishi mumkin.

2014-yili Rossiyada "Tijorat siri to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun qabul qilindi. Unda tijorat sirining tarkibiy qismlari va ularni himoya qilish choralari aniqlab berildi. Yurist A.A. Sergunina qonundagi "axborotlar majmui" tushunchasini Big Data elementlari nuqtayi nazaridan talqin qiladi va uni tijorat siri sifatida himoya qilish imkoniyatlarini ko'rsatib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 98-moddasiga ko'ra, fuqarolik huquqlarining obyektlari jumlasiga "xizmat yoki tijorat siri bo'lgan axborot" ham kiradi. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi tijorat sirlarini himoya qilishni kafolatlaydi. Shuningdek, "Raqobat to'g'risida"gi Qonun ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning tijorat sirlarini himoya qilish mexanizmlarini nazarda tutadi. Demak, O'zbekiston qonunchiligida tijorat sirini himoya qilishning huquqiy asoslari mavjud. Biroq Big Data kontekstidagi tijorat siri masalasi hali maxsus qonunchilik darajasida tartibga solinmagan. Biroq keltirilgan

---

<sup>202</sup> WTO | Intellectual Property – Overview of TRIPS Agreement, wto.org, [https://www.wto.org/english/tratop\\_e/trips\\_e/intel2\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/trips_e/intel2_e.htm) (last visited Sep 30, 2021).

<sup>203</sup> Richard M. Assmus, Mark Prinsley & Lana Khoury, *IP Rights for Data: Mortaring Over the Cracks*, (2019), <https://www.mayerbrown.com/-/media/files/perspectivesevents/events/2019/07/event190723chiwebinartrightsslides.pdf> (last visited Sep 30, 2021).

misollar va xorijiy tajribalar asosida tijorat siri institutini Big Data munosabatlariga tatbiq etish mumkin.

Tijorat siri ko'plab turdagi ma'lumotlarni himoya qilishning optimal usuli bo'lib qolmoqda. Kompaniya ma'lumotlarni mustaqil ravishda to'plagan yoki yaratgan va ularni boshqa kompaniyadan olmagan bo'lsa, kompaniyaning boshqa kompaniya bilan bir xil ma'lumotga ega bo'lishiga ruxsat beriladi.

Ba'zilarining fikricha, tijorat siri ko'zbo'yamachilik, chunki hatto tashkilotlar boshqalar undan foydalanishini istamasa ham, barcha ma'lumotlar sir saqlanmaydi. *Birinchi*dan, marketing qilish yoki ula-shish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bazalari uchun maxfiylik talabiga rioya qilish qiyin. Ma'lumotlar bazasi yaratuvchisi ma'lumotlarni oshkor qilmaslikni taqiqlovchi shartnomalar orqali maxfiylikni saqlab qolishga harakat qilishi mumkin. Bu mijozlar bazasi kichik bo'lganda va ma'lumot almashish talab qilinmaganda, samarali bo'lishi mumkin. Biroq manfaatdor tomonlarning murakkab tarmog'iga ega tizim monitoring qilish va mijozlar ma'lumotlarini almashishni nazorat qilish bilan bog'liq yuqori operatsion xarajatlar tufayli shartnomaga asoslangan yechim tezda yaroqsiz bo'lib qoladi<sup>204</sup>.

Ikkinchidan, Big Datani tijorat siri sifatida tasniflash uchun aniq va yagona standart yo'q. Aniqroq qilib aytganda, Big Data nazorat qiluvchilari tomonidan amalga oshirilgan maxfiylikni ta'minlash choralari qay darajada "oqilona" deb hisoblanishi kerak? Big Data sir saqlanishi qanday aniqlanishi mumkin? Foydalanuvchilar onlayn xarid qilish, veb-sahifalarni ko'rish va hokazolardan izlar qoldirgan siri ma'lumotlarni to'plash qulay va xilma-xil bo'lib boradi, bu esa Big Data sirini qanday aniqlash bo'yicha kelishmovchiliklarga olib keladi. Afsuski, amaldagi qonunchilik bu savolga aniq javob bermaydi. Tijorat siri ularning egalariga hech qanday maxsus mutlaqlik huquqlarini bermaydi. Gap ma'lumotlarning sir saqlanishida emas, balki ma'lumotlarning "egasi" ulardan foydalanishni cheklashni istashida<sup>205</sup>.

---

<sup>204</sup> Julie E. Cohen & William M. Martin, *Intellectual Property Rights in Data*, in INFORMATION SYSTEMS AND THE ENVIRONMENT 45-55 (Deanna J. Richards, Braden R. Allenby & W. Dale Compton 2001).

<sup>205</sup> Robert D. Atkinson, *IP Protection in the Data Economy: Getting the Balance Right on 13 Critical Issues* (2019), [https://www2.itif.org/2019-ip-protection-dataeconomy.pdf?\\_ga=2.177242277.1647718639.1632912651-1493660189.1632912651](https://www2.itif.org/2019-ip-protection-dataeconomy.pdf?_ga=2.177242277.1647718639.1632912651-1493660189.1632912651) (last visited Sep 30, 2021).

### III BOB. BIG DATA DOIRASIDA MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH VA MAXFIYLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ASOSIY QOIDALAR

#### 3.1-§. Big Data tahlilida ma'lumotlarni himoya qilishda tamoyillarning o'rni

Bizga ma'lumki, hozirda shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish masalasini hal qilmasdan turib, bu munosabatlarni huquqiy tartibga solishning xususiyatlarini aniqlashning iloji yo'q, chunki aynan inson haqidagi ma'lumotlar, uning istaklari va shaxsiy ma'lumotlari alohida qimmatga ega bo'lmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq muammolar ko'pincha shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining o'zlarining harakatlari tufayli kelib chiqadi, ular esa o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini umumiy resurslarda joylashtirishadi<sup>206</sup>, bu esa oxir-oqibat insonning raqamli profilini shakllantiradi.

Endilikda Big Data davlat va xususiy sektordagi ko'plab tashkilotlar uchun odatdagi tadbirkorlikning bir qismiga aylanib bormoqda. Bunga ma'lumotlarning uzluksiz o'sishi, shu jumladan, IoT kabi yangi manbalardan olingan ma'lumotlar, ularni boshqarish va tahlil qilish uchun vositalarning rivojlanishi, tadbirkorlar foydalari va imkoniyatlarining o'sib borayotganligi sabab bo'lmoqda.

Big Data, shuningdek, biznesni boshqarish va qaror qabul qilishni yaxshilash, ayniqsa, real vaqt rejimida tahlillar orqali yangi biznes imkoniyatlarini ochish potensialini taqdim etadi<sup>207</sup>.

AQShlik olim John Gantz ta'kidlaganidek, "Big Data kompaniyalar foydalanadigan narsa va u ular qanday bizneslarga kirishishini belgilaydi"<sup>208</sup>. U Big Dataning kuchli raqobat ustunligini ta'minlashini qayd etadi.

---

<sup>206</sup> Терещенко Т. Что думает законодатель о больших пользовательских данных? // URL: [https://zakon.ru/blog/2018/10/27/chto\\_dumaet\\_zakonodatel\\_o\\_bolshih\\_polzovatelских\\_dannyh](https://zakon.ru/blog/2018/10/27/chto_dumaet_zakonodatel_o_bolshih_polzovatelских_dannyh) (дата обращения: 03.05.2023).

<sup>207</sup> Côrte-Real, N., Ruivo, P., & Oliveira, T. (2019). Leveraging internet of things and Big Data analytics initiatives in European and American firms: Is data quality a way to extract business value?. *Information & Management*, 57(1), 103141. <https://doi.org/10.1016/j.im.2019.01.003>

<sup>208</sup> Gantz, John. «Big Data: The Competitive Advantage for Businesses.» IDC

Yaponiyalik tadqiqotchi Toshiaki Satoga ko'ra, Big Data nafaqat texnologik rivojlanish, balki inson huquqlari va erkinliklariga ham ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-huquqiy hodisadir<sup>209</sup>. U Big Datadan foydalanishda ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qilish zarurligini qayd etadi.

Big Data doirasida ma'lumotlar to'plash, saqlash va tahlil qilishda maxfiylik va xavfsizlik masalalarini chuqur ko'rib chiqish muhimdir, chunki bu ma'lumotlar yuqori xavf va zaiflikni o'z ichiga oladi<sup>210</sup>.

Bundan tashqari, Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimining noaniq bo'lishi ushbu obyektga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishda muammolarga olib keladi<sup>211</sup>.

Big Data doirasida, odatda, to'rt turdagi ma'lumotlar ajratib ko'rsatiladi<sup>212</sup>:

- **Taqdim etilgan ma'lumotlar** – shaxslar tomonidan ongli ravishda beriladi, masalan, onlayn shaklda to'ldiriladi.

- **Kuzatilgan ma'lumotlar** – avtomatik ravishda qayd etiladi, masalan, onlayn kukilar (online cookies) yoki sensorlar yoki yuz tanish bilan bog'liq kameralar orqali.

- **Kelib chiqadigan ma'lumotlar** – boshqa ma'lumotlardan nisbatan oddiy va to'g'ridan to'g'ri tarzda ishlab chiqiladi, masalan, mijozning daromad keltirishini hisoblash.

- **Taxmin qilingan ma'lumotlar** – ma'lumotlar to'plamlari o'rtasidagi bog'liqliklarni topish va ulardan odamlarni toifalash yoki profilashtirish uchun foydalanish orqali tahlilning murakkab usuli yordamida ishlab chiqiladi, masalan, kredit ballarini hisoblash yoki kelajakdagi sog'liq natijalarini bashorat qilish.

Taxmin qilingan ma'lumotlar murakkab statistik modellar va mashinalashgan o'rganish algoritmlari yordamida yaratiladi va ular

---

<sup>209</sup> Sato, Toshiaki. «Big Data and Its Impact on Personal Information Protection.» Journal of Information Processing, vol. 28, 2020, pp. 506–512.

<sup>210</sup> Xu, L., Jiang, C., Wang, J., Yuan, J., & Ren, Y. (2014). Information security in Big Data: privacy and data mining. IEEE access, 2, 1149-1176. <https://doi.org/10.1109/ACCESS.2014.2362522>

<sup>211</sup> Аюшеева И. З. Большие данные: проблемы определения гражданско-правового режима. Lex russica. 2023. Т. 76. № 10. С. 125–134. DOI: 10.17803/1729-5920.2023.203.10.125-134.

<sup>212</sup> Abrams, Martin. The origins of personal data and its implications for governance. OECD, March 2014. <http://informationaccountability.org/wp-content/uploads/Data-Origins-Abrams.pdf> Accessed 17 June 2016.

ma'lum darajada noaniqlikka ega bo'lishi mumkin, shuning uchun ulardan foydalanishda shaffoflik va hisobdorlik masalalari alohida e'tibor talab qiladi<sup>213</sup>.

Janubiy Koreyaning "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (PIPA)ga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlar ularning manbayi va shakliga qarab tasniflanadi: to'g'ridan to'g'ri to'plangan, boshqa manbalardan olingan va taxmin qilingan ma'lumotlar<sup>214</sup>.

Singapur "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunida (PDPA) ham ma'lumotlarning to'rt turi keltiriladi: to'g'ridan to'g'ri, kuzatilgan, hosilaviy va taxmin qilingan<sup>215</sup>.

Biroq O'zbekiston qonunchiligida<sup>216</sup> shaxsiy ma'lumotlar guruhlariga ajratilmagan. Big Data va sun'iy intellekt kabi zamonaviy fenomenlar dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan hozirgi kunda shaxsiy ma'lumotlar klassifikatsiyasini ishlab chiqish ham huquqiy himoya yo'nalishlarini aniqlashtirishda, ham subyektlar huquqlarini himoyasini ta'minlashda birdek zarur hisoblanadi.

Odatda, IoT qurilmalari kuzatilgan ma'lumotlar manbayi hisoblanadi, kelib chiqqan va taxmin qilingan ma'lumotlar esa ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida ishlab chiqiladi.

Big Data tahlilining ko'plab holatlari umuman shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olmasligi mumkinligini qayd etish lozim. Shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlar asosidagi Big Data ma'lumotlariga dunyo iqlimi va ob-havo ma'lumotlari, GPS bilan jihozlangan avtobuslardan geopozitsion ma'lumotlardan foydalangan holda, yetib kelish vaqtini bashorat qilish, kvadrat kilometr massivi<sup>217</sup>da joylashgan radioteleskoplardan olingan astronomik ma'lumotlar va kemada tashiladigan konteynerlar sensorlaridan olingan ma'lumotlar kiradi. Bular shaxsiy ma'lumotlardan foydalanmagan holda, Big Data

---

<sup>213</sup> Lepri, B., Oliver, N., Letouzé, E., Pentland, A., & Vinck, P. (2018). Fair, transparent, and accountable algorithmic decision-making processes. *Philosophy & Technology*, 31(4), 611-627. <https://doi.org/10.1007/s13347-017-0279-x>

<sup>214</sup> Personal Information Protection Act (PIPA) of South Korea, Article 23. [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG](https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG)

<sup>215</sup> Personal Data Protection Act of Singapore (PDPA), Chapter 1 [https://sso.agc.gov.sg/Act/PDPA2012?ViewType=Pdf&\\_id=20210111164941](https://sso.agc.gov.sg/Act/PDPA2012?ViewType=Pdf&_id=20210111164941)

<sup>216</sup> O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 02.07.2019. <https://lex.uz/docs/4396428>

<sup>217</sup> Square Kilometre Array website <https://www.skatelescope.org/> Accessed 17 June 2016.

tahlili natijasida yangi kashfiyotlar amalga oshiriladigan va xizmatlar hamda tadbirkorlik jarayonlari yaxshilanadigan sohalar hisoblanadi. Shuningdek, Big Data tahlili boshqa sabablarga ko'ra ham shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olmasligi mumkin. Xususan, dastlab shaxsiy bo'lgan ma'lumotlarni muvaffaqiyatli ravishda anonimlashtirish mumkin, bunda hech qanday shaxsni aniqlashning imkoni bo'lmaydi.

Shunga qaramay, Big Data tahlilining boshqa misollari shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olishi aniq. Ma'lumotlar bevosita shaxslarni identifikatsiya qilishi yoki ular avval anonim ko'ringan ma'lumotlar to'plami birlashtirilishi orqali identifikatsiya qilinishi mumkin. Bunday hollarda ishlov berish ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Ba'zan Big Data tahlili g'arazli yoki maxfiylikka tahdid sifatida tavsiflanadi. Bunga sabab esa u ma'lumotlarni kutilmagan usullarda boshqa maqsadlarda ishlatish, murakkab algoritmlarni qo'llash va shaxslar haqida kutilmagan va ba'zida xush kelmaydigan ta'sirlarga ega xulosalarni chiqarishidir<sup>218</sup>.

Big Data tahlilining ayrim jarayonlari, xususan, profillashtirish jarayonlari shaxslarning huquq va manfaatlariga zid bo'lgan ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Big Data tahlili usullarining murakkabligi, jumladan, sun'iy intellekt va mashinalashgan o'rganish yondashuvlarining qo'llanishi tashkilotlar uchun shaxsiy ma'lumotlarni ishlov berish jarayonlarining oshkoraligini ta'minlashni qiyinlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bois Big Data texnologiyalaridan foydalanuvchi korxonalar odamlarning shaxsiy ma'lumotlari bilan bog'liq jarayonlarda ma'lumotlarning himoyasi va maxfiyligini ta'minlovchi barcha huquqiy talablarga rioya etishlari zarur.

Shu o'rinda Big Data doirasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga tahdidlar nimadan iborat bo'lishi mumkinligi haqida o'rinli savol tug'iladi. Tadqiqot natijasi sifatida shaxsga doir ma'lumotlar

---

<sup>218</sup> For example, Naughton, John Why Big Data has made your privacy a thing of the past Guardian online, 6 October 2013 <http://www.theguardian.com/technology/2013/oct/06/big-data-predictive-analytics-privacy>; Richards Neil M. and King, Jonathan H. Three paradoxes of Big Data 66 Stanford Law Review Online, 41 3 September 2013. <http://www.stanfordlawreview.org/online/privacy-and-big-data/three-paradoxes-big-data>; Leonard, Peter. Doing Big Data business: evolving business models and privacy regulation. August 2013. International Data Privacy Law, 18 December 2013. <http://idpl.oxfordjournals.org/content/early/2013/12/18/idpl.ipt032.short?rss=1> All accessed 17 June 2016.

xavfsizligiga tahdidlar tushunchasi, u nimalardan iborat bo'lishi haqida taklif ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi mazmundagi ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risida"gi nizomning 7-bandi birinchi xatboshisini ishlab chiqishda inobatga olingan: ***"Shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligiga tahdidlar – ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz, shu jumladan, tasodifiy kirish natijasida shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish, yo'q qilish, nusxalash, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar va omillar yig'indisi"***.

Big Data doirasidagi ishlov berish jarayonida adolatlilik va shaffoflik muhim qoidalar bo'lib, ma'lumotlar subyektlariga ma'lumotlardan foydalanishning oqibatlarini haqida to'liq tushuncha berishni talab qiladi<sup>219</sup>.

GDPR 5(1)(a)-moddasida shaxsiy ma'lumotlar "ma'lumotlar subyektiga nisbatan adolatli, qonuniy va shaffof tarzda qayta ishlanishi kerak", deyiladi.

Xuddi shuningdek, Yaponiya "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 6-moddasida ma'lumotlarni adolatli va qonuniy ishlab chiqish tamoyili mustahkamlangan<sup>220</sup> bo'lsa, Rossiya Federatsiyasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi federal qonuni 5-moddasida ham shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish qonuniylik, adolatlilik tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozimligi qayd etiladi<sup>221</sup>.

Shu bilan birga, AQSh Federal savdo komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Ma'lumotlarni adolatli ishlatish tamoyillari" (Fair Information Practice Principles)ga ko'ra, tashkilotlar ma'lumotlarni

---

<sup>219</sup> Mittelstadt, B.D., Allo, P., Taddeo, M., Wachter, S., & Floridi, L. (2016). The ethics of algorithms: Mapping the debate. *Big Data & Society*, 3(2), 2053951716679679. <https://doi.org/10.1177/2053951716679679>

<sup>220</sup> Yaponiya "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, 6-modda. [https://elaws.e-gov.go.jp/document?lawid=415AC0000000057\\_20200601\\_502AC0000000044](https://elaws.e-gov.go.jp/document?lawid=415AC0000000057_20200601_502AC0000000044)

<sup>221</sup> Rossiyaning "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi federal qonuni, 5-modda [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_61801/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61801/)

to'plash va ulardan foydalanishda shaffoflik, maqsadli cheklash, ma'lumot sifati va xavfsizligini ta'minlashi lozim<sup>222</sup>.

Shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash jarayonida rioya etilishi zarur bo'lgan huquqiy talablar ichida eng asosiysi adolatlilik hisoblanib, bu har bir Big Data tizimini baholovchi asosiy kriteriya bo'lib xizmat qiladi.

Biroq O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunida adolatlilik tamoyili butun qonun matnida bir marta ham tilga olinmaganligi payqash mumkin. Vaholanki, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning, avvalo, adolatli amalga oshirilishi bu sohada inson huquqlari kafolatlanganligining dalolati hisoblanadi.

Shu bois qonunga adolatlilik tamoyilini kiritish, adolatlilik tamoyilini kamsitishga yo'l qo'ymaslik hamda qonuniylik, shaffoflik bilan uzviy bog'lash, shuningdek, ma'lumotlarga ishlov berishda adolatli, shaffof va qonuniy amalga oshirish talabini nazarda tutish lozim.

Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun Qonunning 5-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to'ldirish taklif etiladi: *"adolatlilik va kamsitishga yo'l qo'yilmasligi"*.

Shunday qilib, shaxsiy ma'lumotlardan Big Data tahlili uchun foydalanadigan tashkilotlar oldidagi asosiy savol – bu ishlov berish adolatli ekanligi sanaladi. Adolatlilik bir nechta elementni o'z ichiga oladi. Xususan, shaffoflik – odamlar ishlov berish haqida qanday ma'lumotga ega ekanligi – juda muhimdir. Lekin adolatlilikni baholash ishlov berishning shaxslarga ta'siri va ularning ma'lumotlaridan qanday foydalanilishi mumkinligi haqidagi munosabatlarini ko'rib chiqishni ham o'z ichiga oladi<sup>223</sup>.

Big Data tahlili asosida qarorlar qabul qilish jarayoni diskriminatsiyaga olib kelishi va ba'zi guruhlar uchun salbiy oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin, masalan, sug'urta yoki kreditga kirish imkoniyatlarining cheklanishi<sup>224</sup>.

---

<sup>222</sup> AQSh FTC Adolatli axborot amaliyoti tamoyillari. <https://www.consumer.ftc.gov/articles/0042-fair-information-practice-principles-fipps-fair-information-practice-principles>

<sup>223</sup> Information Commissioner's Office. Guide to data protection. ICO, May 2016. [http://ico.org.uk/for\\_organisations/data\\_protection/~media/documents/library/Data\\_Protection/Practical\\_application/the\\_guide\\_to\\_data\\_protection.pdf](http://ico.org.uk/for_organisations/data_protection/~/media/documents/library/Data_Protection/Practical_application/the_guide_to_data_protection.pdf) Accessed 12 December 2016.

<sup>224</sup> Žliobaitė, I., & Custers, B. (2016). Using sensitive personal data may be necessary for avoiding discrimination in data-driven decision models. *Artificial Intelligence and Law*, 24(2), 183-201. <https://doi.org/10.1007/s10506-016-9182-5>.

Singapurning “Shaxsiy ma’lumotlar to’g’risida”gi qonuni (PDPA) ham adolatlilikni ta’minlashda kompaniyalardan mijozlar ma’lumotlarini qanday ishlatishini tushuntirib berishni talab qiladi<sup>225</sup>.

AQShda ham “Adolatli kredit hisoboti to’g’risida”gi qonun (Fair Credit Reporting Act) kreditga oid ma’lumotlarni yig’ish va ishlatishda adolatlilikni ta’minlashga qaratilgan<sup>226</sup>.

Big Datadan qanday foydalanilayotganligi adolatlilikni baholashda muhim omil hisoblanadi. Big Data tahlili shaxsiy ma’lumotlardan faqat tadqiqot maqsadlarida, masalan, umumiy tendensiyalar va bog’liqliklarni aniqlash yoki shaxsiy ma’lumotlardan shaxslarga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan qarorlar qabul qilishda foydalanishi mumkin. Ushbu qarorlarning ba’zilari bir shaxsga boshqa shaxslardan ko’ra ko’proq ta’sir qilishi mumkin. Shaxsning ijtimoiy tarmoqdagi “layk”lari, xaridlari va brauzer tarixi asosida unga muayyan reklamaning internetda namoyish etish, agar reklama o’z vaqtida va shaxsning qiziqishlariga mos ravishda berilsa, salbiy yoki adolatsizlik deb hisoblanmasdan qabul qilinishi mumkin. Biroq ba’zi hollarda hatto turli xil reklamalarni namoyish etish ham xizmatdan foydalanuvchilarga, masalan, irqi asosida<sup>227</sup> kamsitilayotganligini anglatishi mumkin. AQShda o’tkazilgan tadqiqot “qora tanlilarni identifikatsiya qiluvchi” ismlar bo’yicha internet qidiruvi “oq tanlilarni identifikatsiya qiluvchi” ismlar bo’yicha qidiruvga qaraganda ko’proq hollarda hibsga olish yozuvlari bilan bog’liq reklamalar yaratganini ko’rsatdi<sup>228</sup>. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada ham kamsitish haqida shu kabi holatlar qayd etilgan, masalan, avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimi “Dr” unvonini erkaklar bilan bog’lashi tufayli ayol shifokorni sport zalidagi ayollar kiyinish xonasiga kiritmaydi<sup>229</sup>.

---

<sup>225</sup> <https://www.pdpc.gov.sg/Guidelines-and-Consultation/2020/03/Advisory-Guidelines-on-the-Personal-Data-Protection-Act-for-Selected-Topics> - Personal Data Protection Act of Singapore (PDPA), Chapter 3.

<sup>226</sup> <https://www.ftc.gov/enforcement/rules/rulemaking-regulatory-reform-proceedings/fair-credit-reporting-act> AQSh “Adolatli kredit hisoboti to’g’risida”gi qonuni.

<sup>227</sup> Rabess, Cecilia Esther. Can Big Data be racist? The Bold Italic, 31 March 2014. <http://www.thebolditalic.com/articles/4502-can-big-data-be-racist> Accessed 20 June 2016.

<sup>228</sup> Sweeney, Latanya. Discrimination in online ad delivery. Data Privacy Lab, January 2013. <http://dataprivacylab.org/projects/onlineads/1071-1.pdf> Accessed 20 June 2016

<sup>229</sup> Fleig, Jessica. Doctor locked out of women’s changing room because gym automatically registered everyone with Dr title as male. Mirror, 18 March 2015. <http://www.mirror.co.uk/news/uk-news/doctor-locked-out-womens-changing-5358594> Accessed 16 December 2016

Yaponiyalik tadqiqotchi Mariko Kawaguchi onlayn reklamada algoritmik kamsitish holatlarini o'rgangan. Uning ta'kidlashicha, reklama tizimlarida qo'llanadigan Big Data algoritmlari yoshlar va ayollarga nisbatan kamsituvchi tendensiyalarga ega<sup>230</sup>.

Janubiy Koreyada o'tkazilgan tadqiqotda onlayn reklamalarda gender va yosh bo'yicha kamsitish holatlari aniqlangan. Xususan, ayollar va o'rta yoshdagilar uchun kosmetika va oziq-ovqat reklamalari ko'proq ko'rsatilgan<sup>231</sup>.

Singapurda ham Big Data tahlili asosidagi reklama va kredit skoring<sup>232</sup>larda diskriminatsiya xavfi borligi qayd etilgan<sup>233</sup>.

Profillashtirish shaxslar uchun yanada salbiy ta'sir ko'rsatadigan usullarda ishlatilishi mumkin. Masalan, AQShda Federal savdo komissiyasi odamlarning kredit imkoniyatlarini ular bilan bir xil do'konlarda xarid qiladigan boshqa odamlarning yomon to'lov tarixlarini tahlil qilish asosida pasaytirilganligini aniqladi<sup>234</sup>. Ushbu holatlarda odamlar muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi sababli kamsitilmaydi, biroq tahlilda ularning muayyan guruh a'zolari bilan o'zaro bog'liq omillari asosida tegishli munosabat shakllanadi.

GDPR 4-moddasiga ko'ra, profillashtirish - bu shaxsiy ma'lumotlarni, ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda, jismoniy shaxsga tegishli ma'lum shaxsiy jihatlarni baholash, xususan, ushbu jismoniy shaxsning ish faoliyati, iqtisodiy holati, sog'lig'i, shaxsiy afzalliklari, qiziqishlari, ishonchliligi, xulq-atvori, joylashuvi yoki harakati jihatlarni tahlil qilish yoki bashorat qilish uchun avtomatlashtirilgan ishlov berishning har qanday shakli.

---

<sup>230</sup> Kawaguchi, M. The new algorithmic fairness of online advertising. *Waseda Bulletin of Comparative Law*, vol.37, 2019

<sup>231</sup> Tae Yano. Privacy in the era of Big Data and artificial intelligence: Challenges and future directions in Japan. *Asian Journal of Law & Society*, 2020

<sup>232</sup> Skoring asosida statistika usullari yotuvchi, mijozlarning to'lovga qodirligini baholash tizimi. Odatda, bu potensial qarz oluvchining ma'lumotlari kiritiladigan kompyuter dasturi. Dastur vijdonli qarz oluvchilarga "ballar" berib, ularning reytingini ko'taradi va qarzdorlarga shunday "ball"ga jarima soladi. "Skoring" nomi inglizcha score, ya'ni "hisob" so'zidan olingan. <https://kapital24.uz/uz/crediting/info/skoring/>

<sup>233</sup> <https://www.pdpc.gov.sg/Guidelines-and-Consultation/2020/03/Advisory-Guidelines-on-the-Personal-Data-Protection-Act-for-Selected-Topics> - Personal Data Protection Act of Singapore (PDPA), Chapter 3.

<sup>234</sup> Federal Trade Commission. Big Data: a tool for inclusion or exclusion. FTC, January 2016 <https://www.ftc.gov/reports/big-data-tool-inclusion-or-exclusion-understanding-issues-ftc-report> Accessed 4 March 2016.

Shuningdek, GDPRning 71-moddasida “onlayn kredit arizasini avtomatik rad etish yoki insonlar aralashuvisiz elektron ishga yollash amaliyotlari” kabi avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish misollari ham keltirilgan. Bular Big Data tahlili bilan ta’minlanadigan avtomatlashtirilgan profillashtirish turlarining potensial xususiyatini aks ettiradi. GDPR avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish yoki profillashtirishni taqiqlamaydi, lekin u shaxslarga to’liq avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishning obyekt bo’lmashlik huquqini beradi<sup>235</sup>. Unda, shuningdek, ma’lumot nazoratchilaridan profillashtirish uchun mos matematik yoki statistik jarayonlarni qo’llash va irqi yoki etnik kelib chiqishi, siyosiy fikrlar, din yoki e’tiqod, kasaba uyushmasi a’zoligi, genetik yoki sog’liq holati yoki jinsiy orientatsiyasi asosida kamsitishning oldini olish choralari ko’rishi talab etiladi.

Yaponiya maxfiylik qonuni profillashtirish uchun alohida rozilik olishni talab qiladi va shaxslar profillashtirish jarayonlarida qatnashishni rad etish huquqiga ega<sup>236</sup>.

Rossiya qonunchiligida ham avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish va profillashtirish cheklangan. Ular faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki shaxsning aniq roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin<sup>237</sup>.

Xuddi shuningdek, O’zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonuni 24-moddasiga ko’ra, subyekt o’z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo’lgan, yuridik oqibatlar keltirib chiqaradigan o’z shaxsiga doir ma’lumotlariga faqat avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish asosida qaror qabul qilishga duchor etilmaslik huquqiga egaligi, subyektning yozma shakldagi, shu jumladan, elektron hujjat tarzidagi roziligi yoki mulkdor va subyekt o’rtasidagi shartnomani ijro etish yoki qaror ilgari tuzilgan shartnoma shartlarini bajarish uchun qabul qilinayotgan bo’lsa-da, shaxsga doir ma’lumotlariga faqat avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish asosida qaror qabul qilinishi mumkinligi belgilangan.

---

<sup>235</sup> GDPR Article 22.

<sup>236</sup> [https://www.ppc.go.jp/files/pdf/The\\_handling\\_of\\_personal\\_data\\_with\\_regards\\_to\\_the\\_utilization\\_of\\_personal\\_data.pdf](https://www.ppc.go.jp/files/pdf/The_handling_of_personal_data_with_regards_to_the_utilization_of_personal_data.pdf) – Yaponiya Shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish qoidalari.

<sup>237</sup> [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_61801/4d38c8f753d22e90f7d8dd27dcc1691cbd2ac445/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61801/4d38c8f753d22e90f7d8dd27dcc1691cbd2ac445/) Rossiya Shaxsiy ma’lumotlar to’g’risidagi qonuni, 16-modda.

Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish va profillashtirish jarayonlarida shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash maqsadida "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 25-moddasini quyidagi mazmundagi 5-qism bilan to'ldirish taklif etiladi: *"Faqat avtomatlashtirilgan ishlov berish asosida, shu jumladan, profillash natijalariga ko'ra, shaxsga doir qarorlar qabul qilish taqiqlanadi. Ushbu qoida quyidagi hollarga nisbatan qo'llanmaydi: qaror ma'lumotlar subyekti bilan tuzilgan shartnoma ijrosi uchun zarur bo'lsa yoki ma'lumotlar subyekti aniq va ochiq rozilik bildirgan bo'lsa; qaror qonun hujjatlari bilan ruxsat etilgan bo'lsa va ma'lumotlar subyektining huquq va erkinliklarini himoya qilishning tegishli choralari nazarda tutilgan bo'lsa"*.

Profillashtirish jarayonida kamsituvchi xulq-atvor yuzaga kelishi uning "tushuntira olmaslik" ("opacity") xususiyati bilan bog'liq, ya'ni qarorlar qabul qilish jarayoni murakkab algoritmlar orqali amalga oshirilgani uchun uning sabablari aniq bo'lmasligi mumkin<sup>238</sup>.

AQShda sug'urta sohasida Big Data qo'llanishining adolatligi bo'yicha qizg'in munozaralar bo'lgan. Masalan, ba'zi shtatlarda avtosug'urta mukofotlarini belgilashda haydovchining kredit reyting ballarini hisobga olish taqiqlangan, chunki bu past daromadli guruhlarni kamsitishi mumkin<sup>239</sup>.

Janubiy Koreyada sog'liqni saqlash va sug'urtada Big Data ishlatilganda, ma'lumotlar diskriminatsiyasining oldini olish choralari ko'rilishi kerakligi qonunda mustahkamlab qo'yilgan<sup>240</sup>.

Demak, Big Data tashkilotlari shaxsiy ma'lumotlardan foydalana-yotganda, adolatlilikni baholashning bir qismi sifatida ular ishlov berishning tegishli shaxslar, jamoalar va ijtimoiy guruhlarga ta'siridan xabardor bo'lishlari zarur.

---

<sup>238</sup> Hildebrandt, M. (2008). Defining profiling: A new type of knowledge?. In *Profiling the European citizen* (pp. 17-45). Springer, Dordrecht. [https://doi.org/10.1007/978-1-4020-6914-7\\_2](https://doi.org/10.1007/978-1-4020-6914-7_2)

<sup>239</sup> <https://www.propublica.org/article/minority-neighborhoods-higher-car-insurance-premiums-white-areas-same-risk> ProPublica tadqiqoti: AQSh sug'urta kompaniyalari ozchiliklarni kamsitadi

<sup>240</sup> [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG](https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG) - PIPA, Article 23-2, Paragraphs 1-3.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, adolatlilikni ta'minlash uchun shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida ma'lumotlar subyektlari bilan aloqada bo'lish va ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish talab etiladi<sup>241</sup>.

Shaxsiy ma'lumotlarni to'playotgan tashkilot, odatda, ma'lumotlar nima uchun kerakligini tushuntiradigan maxfiylik bildirishnomasini shaxslarga taqdim etishi kerak. Tashkilotlar shaxsiy ma'lumotlaridan Big Data tahliliga imkon beradigan usullarda foydalanishda shaxslarning oqilona kutishini hisobga olishlari ham muhim sanaladi.

Ishlov berish maqsadi odamlar xizmatdan foydalanish sabablariga tabiiy ravishda bog'liq bo'lgan vaziyat bilan shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatga bog'liq bo'lmagan vaziyat o'rtasida ham farq mavjud. *Birinchi vaziyatga misol sifatida* – chakana savdogarning bozor tadqiqotlari uchun sodiq mijozlik kartasi (loyalty card) ma'lumotlaridan foydalanganda, ushbu ma'lumotlardan o'z mijozlari va faoliyat yuritayotgan bozorni yaxshiroq tushunish uchun ishlatishi haqida munosabat bildirishi mumkin. *Ikkinchi vaziyatga misol sifatida* – ijtimoiy media kompaniyasining o'z ma'lumotlarini bozor tadqiqotlari uchun taqdim etishini keltirish mumkin. Odamlar ijtimoiy tarmoqlarda post qo'rganlarida, kompaniya bu ma'lumotlardan boshqa maqsadlarda foydalanishi mumkin. Bunday foydalanish, albatta, adolatsiz ekanligini anglatmaydi; bu odamlarning umumiy oqilona kutishini tashkil etuvchi turli omillarga bog'liq, masalan, ular ijtimoiy media xizmatiga qo'shilganda va undan foydalanganda, nima haqida xabardor qilinishganiga bog'liq.

Ijtimoiy tarmoqlar kontekstida foydalanuvchilarning maxfiylik bo'yicha kutishlari va haqiqiy tajribalari o'rtasidagi nomuvofiqlik "maxfiylik paradoksi" ("privacy paradox") tushunchasi bilan ifodalanadi va u ma'lumotlar subyektlarining o'z ma'lumotlariga nisbatan nazorat yetishmasligini aks ettiradi<sup>242</sup>.

---

<sup>241</sup> Binns, R. (2018, January). Fairness in machine learning: Lessons from political philosophy. In Conference on Fairness, Accountability and Transparency (pp. 149-159). PMLR. <http://proceedings.mlr.press/v81/binns18a.html>

<sup>242</sup> Kokolakis, S. (2017). Privacy attitudes and privacy behaviour: A review of current research on the privacy paradox phenomenon. *Computers & security*, 64, 122-134. <https://doi.org/10.1016/j.cose.2015.07.002>.

Yaponiyada ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha komissiyaning yo'riqnomalarida tashkilotlar shaxslarning "oqilona kutish"larini (reasonable expectations) hurmat qilishlari lozimligi ta'kidlanadi. Bu ularning ma'lumotlaridan aniq ruxsatisiz foydalanmaslikni anglatadi<sup>243</sup>.

Kanadada Maxfiylik komissari (Office of the Privacy Commissioner) maxfiylik bildirishnomalarida "oqilona kutishlar" standartiga rioya qilishni talab qiladi. Unga ko'ra, tashkilotlar shaxsiy ma'lumotlarni faqat kutilgan va asosli maqsadlarda ishlatishlari kerak<sup>244</sup>.

Biroq milliy qonunchiligimizda "Oqilona kutish" tushunchasi uchramasligini aytib o'tish lozim. Amaldagi Fuqarolik kodeksida "fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutiladi" degan norma mavjud bo'lib, bu ma'lum ma'noda oqilona kutish tamoyiliga yaqin deyishimiz mumkin, ammo aynan tushuncha mazmunini to'liq bermaydi. Shu bois "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga *"oqilonalik (oqilona kutish) tamoyiliga muvofiq bo'lishi"* normasining kiritilishi ma'lumotlar subyektlari huquqlari kafolatlarini ta'minlashga yordam beradi.

Nima oqilona kutish ekanligini aniqlash maxfiylik bildirishnomalaridan foydalanish, shaffoflik masalasi bilan, shuningdek, ma'lumotlardan keyingi foydalanish uni olish uchun mo'ljallangan maqsadga mos kelmasligi, ya'ni ma'lumotlarning maqsadli cheklaniishi tamoyili bilan ham bog'liq.

Odamlarning shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan munosabati kontekstga bog'liq bo'lib, ular ma'lumotlar turiga, ulardan foydalanish maqsadiga va tashkilotga bo'lgan ishonchiga qarab farqlanadi<sup>245</sup>.

---

<sup>243</sup> [https://www.ppc.go.jp/files/pdf/guidelines\\_on\\_the\\_protection\\_of\\_personal\\_information.pdf](https://www.ppc.go.jp/files/pdf/guidelines_on_the_protection_of_personal_information.pdf) – Yaponiya qo'llanmasi, 6-bob.

<sup>244</sup> [https://www.priv.gc.ca/en/privacy-topics/privacy-laws-in-canada/the-personal-information-protection-and-electronic-documents-act-pipeda/r\\_o\\_p/02\\_05\\_d\\_14/](https://www.priv.gc.ca/en/privacy-topics/privacy-laws-in-canada/the-personal-information-protection-and-electronic-documents-act-pipeda/r_o_p/02_05_d_14/) - Kanada Maxfiylik komissari "Oqilona kutishlar" tamoyili.

<sup>245</sup> Kshetri, N. (2014). Big Data' s impact on privacy, security and consumer welfare. Telecommunications Policy, 38(11), 1134-1145. <https://doi.org/10.1016/j.telpol.2014.10.002>.

**Xalqaro aloqa institutining (IAI – The International Institute of Communications (IIC))** tadqiqotlari<sup>246</sup> shuni ko'rsatdiki, odamlarning shaxsiy ma'lumotlar berishga tayyorligi va ushbu ma'lumotlardan qanday foydalanilishiga bo'lgan munosabati (oqilana kutishi) muayyan vaziyatlarga, masalan, shaxs tashkilotga qanchalik ishonishi va qanday ma'lumot so'ralayotganligiga bog'liq.

Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar almashilishi evaziga olinadigan foyda ham odamlarning bu masaladagi munosabatiga ta'sir qiladi – agar ular ma'lumotlarni ulashish orqali sezilarli qiymat olishsa (masalan, chakana savdodagi personallashtirish orqali), ular bunga ko'proq moyil bo'lishlari mumkin<sup>247</sup>.

**Boston Consulting Group (BCG)** aksariyat mamlakatlardagi iste'molchilarning 75 foizi uchun shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligi hali ham eng muhim muammo ekanligi va 18–24 yoshli yoshlar onlayn shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishda kattaroq yoshdagilarga qaraganda kamroq ehtiyotkorlik qilishlarini aniqladi<sup>248</sup>.

KPMG firmasi tomonidan o'tkazilgan global so'rovga ko'ra<sup>249</sup>, maxfiylik bo'yicha munosabatlar turlicha bo'lsa-da (ma'lumotlar turlari, ma'lumotlardan foydalanish va iste'molchilarning joylashuvi kabi omillarga asoslangan holda), o'rtacha 56 % respondentlar kompaniyalar ularning shaxsiy ma'lumotlaridan qanday foydalanayotganligi haqida “tashvishli” ekanliklarini bildirgan.

Ba'zi tadqiqotlar “maxfiylik paradoksi”ni ko'rsatdi: odamlar o'z ma'lumotlarining “xush kelmaydigan” foydalanilishi ularning maxfiyligiga ta'sir qilishi haqida tashvishlarini bildirsalar-da, ammo amalda ular baribir o'z ma'lumotlarini onlayn tizimlar orqali uzatib borishadi. Boshqacha qilib aytganda, ular internet xizmatlaridan foydala-

---

<sup>246</sup> International Institute of Communications. Personal data management: the user's perspective. International Institute of Communications, September 2012..

<sup>247</sup> Lancelot Miltgen, C., Popovič, A., & Oliveira, T. (2013). Determinants of end-user acceptance of biometrics: Integrating the «Big 3» of technology acceptance with privacy context. *Decision Support Systems*, 56, 103-114. <https://doi.org/10.1016/j.dss.2013.05.010>.

<sup>248</sup> Rose, John et al. The trust advantage: how to win with Big Data. Boston Consulting Group, November 2013. [https://www.bcgperspectives.com/content/articles/information\\_technology\\_strategy\\_consumer\\_products\\_trust\\_advantage\\_win\\_big\\_data/](https://www.bcgperspectives.com/content/articles/information_technology_strategy_consumer_products_trust_advantage_win_big_data/) Accessed 17 June 2016.

<sup>249</sup> KPMG. Crossing the line: Staying on the right side of consumer privacy. KPMG, November 2016. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/xx/pdf/2016/11/crossing-the-line.pdf> Accessed 23 January 2017.

nish bahosi sifatida ma'lumotlarni taqdim etadilar. Masalan, Buyuk Britaniyadagi yoshlarning mobil telefonlardan foydalanishi bo'yicha Pybus, Coté va Blanke tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari<sup>250</sup> hamda Shklovski va boshqalarning<sup>251</sup> G'arbiy Yevropada smartfonlardan foydalanish bo'yicha ikkita alohida tadqiqoti maxfiylik paradoksi g'oyasini qo'llab-quvvatladi. Shuningdek, veb-kuzatuvning keng tarqalganligi amalda veb-foydalanuvchilar o'z ma'lumotlaridan foydalanishga ruxsat berishda "nomaqbul shartnoma"ga kirishga majbur ekanligini ko'rsatdi. Bu Annenberg Communication maktabining Amerika iste'molchilari bo'yicha tadqiqotiga ko'ra<sup>252</sup>, odamlar muqobili yo'q deb hisoblaganlari uchun emas, balki befarq yoki uni ijobiy qabul qilganlari uchun o'z ma'lumotlaridan foydalanishga ko'nikib qolgan bo'lishlari mumkin. Tadqiqotda iste'molchilar chegirmalar kabi imtiyozlar evaziga shaxsiy ma'lumotlarni almashish jarayonida ongli ravishda ishtirok etayotganlari uchun marketologlarga o'z ma'lumotlarini taqdim etishda davom etayotganlari haqidagi fikr tanqid qilindi. Aksincha, tadqiqot aksariyat amerikaliklar kompaniyalar ular haqida nima o'rganishlarini nazorat qilishga urinish befoyda deb o'ylashi haqidagi xulosaga keldi. Ular o'zlarining shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazoratni yo'qotishni xohlamaganlar, shunchaki vaziyatga qo'yib berishgan.

Ushbu fikrlar tadqiqot davomida o'rtacha o'zbekistonliklar orasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomada ham ma'lum darajada tasdig'ini topdi. Xususan, mazkur so'rovnomada 200 dan ortiq shaxslar ishtirok etgan bo'lsa, ishtirokchilarning 40 nafari, ya'ni 20 foizi shaxsiy ma'lumotlarini sir tutmasliklarini ma'lum qilishdi<sup>253</sup>.

---

<sup>250</sup> Pybus, Jennifer; Cote, Mark; Blanke, Tobias. Hacking the social life of Big Data Big Data & Society, July-December 2015 vol. 2 no. 2 <http://m.bds.sagepub.com/content/2/2/2053951715616649>

Accessed 18 March 2016.

<sup>251</sup> Shklovski, Irina et al. Leakiness and creepiness in app space: Perceptions of privacy and mobile app use. In Proceedings of the 32nd annual ACM conference on Human factors in computing systems, pp. 2347-2356. ACM, 2014.

<sup>252</sup> Turow, Joseph; Hennessy, Michael and Draper, Nora. The tradeoff fallacy: how marketers are misrepresenting American consumers and opening them up to exploitation. University of Pennsylvania. Annenberg School for Communication, June 2015. [https://www.asc.upenn.edu/sites/default/files/TradeoffFallacy\\_1.pdf](https://www.asc.upenn.edu/sites/default/files/TradeoffFallacy_1.pdf) Accessed 31 March 2016.

<sup>253</sup> <https://docs.google.com/forms/d/1SLF-8DORfAI7FaQjO2y1RsOyso5dcao3mK3yCUMBfM/edit?pli=1#responses>

Ba'zi hollarda odamlar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini olish va tahlil qilish uchun xizmatlardan foydalanishni davom ettirishi, ular ushbu tashkilotlarga, ayniqsa, yirik xizmat ko'rsatuvchi yoki taniqli brendlar hisoblangan tashkilotlarga ma'lum darajada ishonch bildirishi mumkinligini ham anglatadi. Ular tashkilot ularning ma'lumotlaridan yomon maqsadlarda foydalanmasligiga ishonadilar. Ushbu gapning isboti sifatida o'rtacha o'zbekistonliklar ishtirok etgan so'rovdan "Internetda shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizlikni ta'minlash uchun nima qilasiz?" degan savolga 50 foiz ishtirokchilar "Men internetdagi saytlarga ishonaman, xavfsizlik haqida o'ylashga hojat yo'q", deb javob berishlarida ko'rishimiz mumkin<sup>254</sup>. Bu esa, o'z navbatida, tashkilotlar odamlarning ishonchini suiiste'mol qilmay, ma'lumotlarning tegishli boshqaruvini amalga oshirishlarini talab etadi.

Big Data tahlilining murakkabligi, ma'lumotlaridan foydalaniladigan fuqarolar va iste'molchilar uchun ishlov berish jarayoni noaniq bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shaxslarga ma'lumotlari to'planayotganligi (masalan, ularning mobil telefoni joylashuvi) yoki ular qanday ishlov berilayotganligi (masalan, ularning qidiruv natijalari algoritmi asosida filtrlanganda – "filtr pufagi"<sup>255</sup> ta'siri) aniq bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, ular haqida qanday qarorlar qabul qilinayotgani, masalan, ijtimoiy tarmoq ma'lumotlarini kredit reytingi uchun ishlash ularga noma'lum bo'lishi mumkin.

"Qora quti" xususiyati ("black box" nature) Big Data algoritmlari ishining shaffofligini cheklovchi xususiyat hisoblanadi<sup>256</sup>.

Bu noaniqlik ishlov berishni amalga oshirayotgan tashkilotga nisbatan ishonchning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

GDPR 12-moddasiga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarni ishlov berish jarayoni va unga oid huquqlar to'g'risidagi axborot "ixcham, shaffof, tushunarli va oson mavjud bo'lgan shaklda" taqdim etilishi kerak<sup>257</sup>.

---

<sup>254</sup> <https://docs.google.com/forms/d/1SLFX8DORfAI7FaQjO2y1Rs0yso5dcao3mK3yCUMBfM/edit?pli=1#responses>

<sup>255</sup> Pariser, Eli. Beware online "filter bubbles". TED Talk, March 2011. [http://www.ted.com/talks/eli\\_pariser\\_beware\\_online\\_filter\\_bubbles/transcript?language=en](http://www.ted.com/talks/eli_pariser_beware_online_filter_bubbles/transcript?language=en) Accessed 1 April 2016.

<sup>256</sup> Pasquale, F. (2015). The black box society. Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674970847>

<sup>257</sup> <https://gdpr-info.eu/art-12-gdpr/> GDPR 12-moddasi.

Yaponiyada kompaniyalar shaxsiy ma'lumotlarni qanday ishlatishi bo'yicha batafsil maxfiylik siyosatini e'lon qilishi va foydalanuvchilarga to'liq tushuntirib berishi shart<sup>258</sup>.

Singapur ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligida (PDPA) ma'lumotlar operatorlari maxfiy ma'lumotlarni ishlov berish jarayonlari haqida iste'molchilarga aniq va lo'nda ma'lumot berishlari belgilab qo'yilgan<sup>259</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni 31-moddasiga binoan, shaxsga doir ma'lumotlar (mulkdori) operatori subyektga shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga taalluqli axborotni taqdim etishi, shaxsga doir ma'lumotlar o'zgartirilgan, yo'q qilingan va ulardan foydalanish cheklangan hollarda subyektni, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning boshqa ishtirokchilarini yozma shaklda xabardor qilishi, shaxsga doir ma'lumotlar uchinchi shaxsga berilgan taqdirda, subyektni yozma shaklda xabardor qilishi shart<sup>260</sup>.

Shu bilan birga, tadqiqot natijasi sifatida ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularni himoya qilish talablari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu ishlab chiqilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 14-bandida inobatga olinganligini tadqiqotning yutug'i sifatida keltirish mumkin.

Bundan tashqari, xususiyl sektorida shaffoflikning yetishmasligi kompaniyalar iste'molchilarning ishonchini qozonishdan keladigan raqobatbardosh ustunlikni boy berishiga ham olib kelishi mumkin. Kompaniyalar tomonidan to'plangan shaxsiy ma'lumotlar oddiy mulk sifatida ishlatilishi, bir martalik va qaytarib bo'lmaydigan tarzda ma'lumotlar subyektidan ma'lumotlardan foydalanuvchiga o'tkazilishi mumkin emas. Ma'lumotlar ulashish faqat unda ishtirok etuvchi tashkilotlar o'z mijozlarining ongli ishonchini qozongan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'ladi. Bugungi kunda bunday

---

<sup>258</sup> <https://ghrs.com.my/wp-content/uploads/2020/09/Japan-Personal-Information-Protection-Act-2017.pdf> - Yaponiya qonuni, 18-modda.

<sup>259</sup> <https://ghrs.com.my/wp-content/uploads/2020/09/Japan-Personal-Information-Protection-Act-2017.pdf> - Yaponiya qonuni, 18-modda.

<sup>260</sup> O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 21-modda. 02.07.2019. <https://lex.uz/docs/4396428>

ko'plab kelishuvlar noaniq, yashirin, oshkor etilmagan, ko'pchiligi ma'lumotlar subyektini xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan mijoz sifatida emas, balki qayta sotilishi mumkin bo'lgan mahsulot sifatida ko'radi. Bu kompaniyalarni noroziliklar xavfi ostida qoldirsa, raqobatchilarga esa mijozlar bilan ishonch va qonuniylikni o'rnatish orqali raqobatbardosh ustunlikni qo'lga kiritishga imkoniyat yaratadi<sup>261</sup>.

### **3.2-§. Big Data tahlilida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shartlari va shartnomaviy munosabatlar**

Odatda, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash shaxsiy ma'lumotlar subyektining roziligiga asosan amalga oshiriladi. Raqamli platformalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni joylashtirish paytida, albatta, foydalanuvchining roziligi olinishi lozim. Bunda sayt administratori va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlar foydalanuvchi axborot tizimiga, tegishli xizmat ko'rsatish xizmatlariga kirish huquqiga ega bo'ladigan shartnoma asosida o'rnatiladi. Odatda, bunday shartnomalar foydalanuvchi shartnomalari, saytdan foydalanish qoidalari<sup>262</sup> va boshqalar deb nomlanadi. Ular elektron hujjat shaklida, shartlar qabul qilinganligini tasdiqlovchi bosish (click-wrap) orqali tuziladi. Ko'rsatilgan qoidalardan tashqari, boshqa hujjatlar, masalan, VK.com saytining foydalanuvchilari haqidagi ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari<sup>263</sup> ishlab chiqiladi<sup>264</sup>.

Shartnomalarni tuzishda foydalanuvchi tegishli tizimdagi o'z sahifasida login va parol oladi, tegishli ma'lumotlarni, xususan, shaxsiy ma'lumotlar rejimiga ega bo'lgan ma'lumotlarni tarmoq administratoriga taqdim etadi. Ta'kidlash kerakki, tarmoq egasi va

---

<sup>261</sup> Rose, John et al. The trust advantage: how to win with Big Data. Boston Consulting Group, November 2013. [https://www.bcgperspectives.com/content/articles/information\\_technology\\_strategy\\_consumer\\_products\\_trust\\_advantage\\_win\\_big\\_data/](https://www.bcgperspectives.com/content/articles/information_technology_strategy_consumer_products_trust_advantage_win_big_data/) Accessed 17 June 2016.

<sup>262</sup> См., например: Правила пользования сайтом «В Контакте» // URL: <https://vk.com/terms> (дата обращения: 03.05.2023).

<sup>263</sup> URL: <https://vk.com/privacy> (дата обращения: 03.05.2023).

<sup>264</sup> Аюшеева И.З. Большие данные: проблемы определения гражданско-правового режима. Lex russica. 2023. Т. 76. № 10. С. 125–134. DOI: 10.17803/1729-5920.2023.203.10.125-134

foydalanuvchi o'rtasidagi shartnoma hamda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va tarqatishga rozilik amaldagi qonunchilikka ko'ra turli yuridik faktlar sifatida qaraladi. Shartnomani ikki tomonlama bitim, rozilikni bir tomonlama bitim deb qarash mumkin. U foydalanuvchi tomonidan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin. Munosabatlarni raqamlashtirish sharoitida bunday foydalanuvchi shartnomalari keng tarqalganligi sababli ularning huquqiy tabiati xususida savol tug'iladi.

E.B. Poduzova foydalanuvchi shartnomasini litsenziya shartnomasi deb hisoblaydi<sup>265</sup>. L.V. Kuznetsova bunday shartnomalarga xizmat ko'rsatish modelidan foydalanishni taklif qiladi<sup>266</sup>. V.O. Puchkov tadqiq qilinadigan munosabatlar iste'mol xarakteriga ega ekanligini qayd etadi<sup>267</sup>.

Turli xil platformalar shartnomaviy munosabatlarning turli modellarini taklif qilganligi sababli operatorning rolini baholashda bir xillik yo'qligi ko'zga tashlanadi<sup>268</sup>.

*Ushbu shartnomalar nafaqat litsenziya shartnomasi elementlari, balki xizmat ko'rsatish shartnomasi elementlarini, ba'zida boshqa shartnomalarning elementlarini ham o'z ichiga oladi, shuning uchun ularni ko'p hollarda aralash shartnomalarga kiritish mumkin.*

Big Datani tahlil qilish natijasida olingan va mustaqil qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatish ham shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak: ularni tarqatish faqat shaxsiy ma'lumotlar subyektidan rozilik olinganda mumkin. Tegishli rozilik mavjud bo'lsa, platformaning egasi uchinchi shaxslar bilan bunday ma'lumotlarni mustaqil qayta ishlash uchun litsenziya shartnomalari tuzishi mumkin yoki agar gap operatorning o'zi tomonidan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida olingan ma'lumotlarni uzatish haqida

---

<sup>265</sup> Василевская Л. Ю., Подузова Е. Б., Тасалов Ф. А. Указ. соч. С. 86–88.

<sup>266</sup> Привод. по: Василевская Л.Ю., Подузова Е.Б., Тасалов Ф.А. Указ. соч. – С. 84.

<sup>267</sup> Пучков В.О. Посмертная передача цифровых объектов: пользовательское соглашение vs национальное наследственное право // Наследственное право. 2020. № 3. С. 17–23.

<sup>268</sup> Краснова С.А. Гражданско-правовой статус операторов онлайн-платформ: неопределенное настоящее и возможное будущее // Имущественные отношения в Российской Федерации. 2022. № 1. С. 67–82; № 2. С. 76–86.

ketayotgan bo'lsa, ma'lumot taqdim etish bo'yicha xizmat ko'rsatish shartnomasi tuziladi.

Tegishli saytda joylashtirilgan ma'lumotlarning bir qismi, jumladan, shaxsiy ma'lumotlar joylashtirilgandan so'ng umumiy foydalanish uchun ochiq bo'lib qolganligi sababli uchinchi shaxslar tomonidan uni mustaqil qayta ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, tarmoqqa shaxsiy ma'lumotlarni joylashtirgan foydalanuvchining huquqlari ham, ma'lumotlar joylashtirilgan tegishli saytning egasi (ma'lumotlar bazasining yaratuvchisi) huquqlari ham hurmat qilinishi kerak. Ochiq ma'lumotlarni tahlil qilish va keyin tahlil qilish asosida yangi Big Data yaratish bir tomondan taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin emas, boshqa tomondan esa tegishli dastlabki resurslar (ma'lumotlar, dasturlar va boshqalar) egalarining mutlaq huquqlariga rioya qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ochiq ma'lumotlardan foydalanish va ularni tahlil qilish jarayonida umumiy foydalanish uchun ochiq ma'lumotlar bo'yicha majburiy litsenziya institutini joriy etish masalasini ko'rib chiqish mumkin<sup>269</sup>.

Demak, Big Data tahlilida huquqning asosiy tamoyillariga rioya etish bilan birgalikda, ma'lum bir shartlarga rioya etish va tegishli amalga oshirish talab etiladi. Big Data kontekstida shunday shartlardan bir hisoblangan ongli rozilik olish ko'pincha qiyin bo'lsa-da, yangi va innovatsion yondashuvlar bunga imkon berishi mumkin. Big Data tashkilotlari har doim o'zlarining manfaatlarini tegishli shaxslarning manfaatlarini bilan muvozanatlashtirishi kerak.

Agar tashkilot odamlarning o'z shaxsiy ma'lumotlarini ishlov berish sharti sifatida roziligiga tayanayotgan bo'lsa, unda bu rozilik erkin berilgan, aniq va ishlov berishga roziligini anglatadigan xabardor bildirish bo'lishi kerak<sup>270</sup>. Bu odamlar tashkilot ularning ma'lumotlari bilan nima qilmoqchi ekanligini tushunishlari ("aniq va xabardor") va bunga rozilik bildirishlarining aniq ifodasi bo'lishi kerakligini anglatadi.

---

<sup>269</sup> Аюшеева И.З. Большие данные: проблемы определения гражданско-правового режима. Lex russica. 2023. Т. 76. № 10. С. 125–134. DOI: 10.17803/1729-5920.2023.203.10.125-134

<sup>270</sup> Directive 95/46/EC of the European Parliament and of the Council of 24 October 1995 on the protection of individuals with regard to the processing of personal data and of the free movement of such data. Article 2(h).

GDPR rozilikning “mujmal” bo‘lmasligi kerakligi va u veb-saytdagi tegishli to‘rtburchakni belgilash yoki “ijtimoiy axborot xizmatlari” (masalan, ijtimoiy tarmoq ilovasi) uchun muayyan texnik sozlamalarni tanlash kabi “aniq tasdiq harakati” bo‘lishi kerakligini nazarda tutadi. Bundan tashqari, ma‘lumotlar nazoratchisi rozilik berilganligini isbotlay olishi, shu bilan birga, ma‘lumotlar subyekti ushbu rozilikni bekor qila olishi kerak<sup>271</sup>.

AQShda Kaliforniya shtatining “Iste‘molchilar maxfiyligi to‘g‘risida”gi qonuni (CCPA) biznesdan mijozlarning shaxsiy ma‘lumotlarini ishlov berish uchun aniq va tushunarli roziligini olishni talab qiladi<sup>272</sup>.

Yaponiyaning “Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, roziliksiz shaxsiy ma‘lumotlarni yig‘ish va ishlatish taqiqlanadi<sup>273</sup>.

Janubiy Koreyaning “Ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni (PIPA) foydalanuvchilarning roziligsiz shaxsiy ma‘lumotlarni to‘plash, ishlatish yoki ulashishni taqiqlaydi<sup>274</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunida ham shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish shartlaridan biri subyektning bu haqidagi roziligi ekanligi belgilangan<sup>275</sup>. Shu o‘rinda milliy qonunchiligimizda rozilik shartining ifodalanishida muallif tadqiqot natijalari tegishli vakolatli organlar tomonidan inobatga olinib, qonunchilikda foydalanilganligini g‘urur bilan qayd etish lozim. Xususan, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi qonunning quyidagi normalari ishlab chiqilishida muallif takliflari inobatga olinib, foydalanilgan:

### **26-moddaning uchinchi qismi** ishlab chiqilishida:

*“Subyektning shaxsini aniqlash uchun foydalaniladigan biometrik va genetik ma‘lumotlarga faqat mazkur subyektning roziligi mavjud bo‘lgan taqdirda, bundan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro*

---

<sup>271</sup> GDPR Article 7.

<sup>272</sup> Kaliforniya “Iste‘molchilar maxfiyligi to‘g‘risida”gi qonuni (CCPA). <https://oag.ca.gov/privacy/ccpa>

<sup>273</sup> Yaponiya “Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni, 16-modda. [https://www.ppc.go.jp/files/pdf/APPI\\_english.pdf](https://www.ppc.go.jp/files/pdf/APPI_english.pdf)

<sup>274</sup> PIPA, Article 15. [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_mobile/viewer.do?hseq=53044&type=sogan&key=7](https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=53044&type=sogan&key=7)

<sup>275</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 18-modda. <https://lex.uz/docs/-2819025>

*shartnomalarini ro'yobga chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish, ijro ishini yuritish bilan bog'liq hollar mustasno, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishlov berilishi mumkin".*

**31-moddaning ikkinchi qismi oltinchi xatboshisi** ishlab chiqilishida:

*"Mulkdor va (yoki) operator qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda subyektning o'z shaxsiga doir ma'lumotlariga ishlov berish uchun roziligi olinganligi dalilini taqdim etishi".*

Biroq tashkilot tomonidan ma'lumotlar subyektlariga ularning ma'lumotlari bilan nima qilishni rejalashtirayotgani aytiladigan "Bildirishnoma va rozilik" modeli Big Data doirasida amaliy ahamiyatga ega emas, degan fikrlar bildiriladi. Sun'iy intellekt texnikalaridan foydalangan holda, tahlilning noaniq tabiati ongli rozilik berishni qiyinlashtirishi mumkin<sup>276</sup>, shu bilan birga, rozilik "ikkilik", ya'ni odamlarga faqat ha/yo'q tanlovini beradigan bo'lgani uchun ham tanqid qilingan. Bu Big Dataning eksperimental tabiati va ma'lumotlardan yangi foydalanish yo'llarini topishga moyilligi sababli Big Data tahliliga to'g'ri kelmasligida ko'riladi<sup>277</sup>.

Shunga qaramay, rozilikning muhimligi saqlanib qolmoqda va tadqiqotchilar rozilik olishning adaptiv modellari, jumladan, kontekstga bog'liq rozilik olish usullarini taklif qilmoqda<sup>278</sup>.

Biroq rozilikka yondashuvlarning yangi usullari mavjud bo'lib, ular oddiy ikkilik modelidan tashqariga chiqadi. Boshida oddiy ikkilik tanlovni bermasdan odamlar xizmat ko'rsatuvchi bilan bo'lgan munosabatlari davomida ularning ma'lumotlari turli maqsadlarda ishlatilishiga rozilik berishi yoki bermasligi mumkin bo'lgan bosqichma-bosqich rozilik jarayoni nazarda tutilishi mumkin. Bu "o'z vaqtida" bildirishnomalarga bog'liq bo'ladi. Masalan, ilova mobil telefon joylashuvi ma'lumotlaridan foydalanmoqchi bo'lganda

---

<sup>276</sup> Buttarelli, Giovanni. A smart approach: counteract the bias in artificial intelligence. European Data Protection Supervisor, 8 November 2016. <https://secure.edps.europa.eu/EDPSWEB/edps/pid/696> Accessed 13 December 2016.

<sup>277</sup> Nguyen, M-H Carolyn et al. A user-centred approach to the data dilemma: context, architecture and policy. Digital Enlightenment Forum Yearbook, 2013.

<sup>278</sup> Luger, E., & Rodden, T. (2013, April). An informed view on consent for UbiComp. In Proceedings of the 2013 ACM international joint conference on Pervasive and ubiquitous computing (pp. 529-538). <https://doi.org/10.1145/2493432.2493446>

yoki ma'lumotlarni uchinchi tomonga ulashmoqchi bo'lganda, foydalanuvchidan rozilik berishni so'rashi mumkin.

Big Datada rozilikni amalda qo'llash mavjud modellardan tashqariga chiqishi va rozilikni olishda hamda qaytarib olishda, ayniqsa, ko'proq avtomatlashtirishni ta'minlashi kerak. Ma'lum ilovalarning xususiyatlariga asoslangan holda, foydalanuvchi nomidan rozilik beruvchi dasturiy agentlar yaratish masalasi tadqiq etilishi kerak. Bundan tashqari, Big Datadagi sensorlar va aqlli qurilmalarni hisobga olgan holda, rozilikni anglatishi mumkin bo'lgan boshqa turdagi qulay va amaliy foydalanuvchining ijobiy harakatlari (masalan, imo-ishora, joylashuv tarzi, xulq-atvor belgilari, harakatlar) tahlil qilinishi kerak<sup>279</sup>.

Avtomatlashtirilgan rozilik olish tizimlari ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligi talablariga mos kelishini ta'minlash uchun puxta ishlab chiqilishi va sinovdan o'tkazilishi kerak<sup>280</sup>.

Agar tashkilot shaxsiy ma'lumotlarni Big Data tahlilida ishlatishdan potensial foyda olishni rejalashtirsa, u taqdim etadigan shartnoma ofertasida buni foydalanuvchilarga tushuntirishi, agar bu tashkilot tayanadigan shart bo'lsa, tegishli rozilik olishi kerak. Tashkilot tahlilning foydasini tushuntiradigan vaqtni aniqlab, foydalanuvchilarga ahamiyatli tanlov berishi va keyin foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini ishlov berish bo'yicha tanlovlarini hurmat qilishi kerak.

Agar tashkilot tahlil maqsadlarida katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlar to'plamini sotib olsa, u ushbu ma'lumotlar bo'yicha ma'lumotlar nazoratchisiga aylanadi. Agar u ma'lumotlar ta'minotchisi tomonidan olingan dastlabki rozilikka ushbu shart sifatida tayanayotgan bo'lsa, u ushbu ma'lumotlar uchun rejalashtirayotgan keyingi ishlov berishni qamrab olishiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu masala ko'pincha marketing ma'lumotlar bazalari kontekstida uchraydi.

---

<sup>279</sup> D'Acquisito, Giuseppe et al. Privacy by design in Big Data. An overview of privacy enhancing technologies in the era of Big Data analytics. ENISA, December 2015. <https://www.enisa.europa.eu/activities/identity-and-trust/library/deliverables/big-data-protection> Accessed 19 April 2016.

<sup>280</sup> Agarwal, S., Steyskal, S., Antunovic, F., & Kirrane, S. (2018, May). Legislative compliance assessment: Framework, model and GDPR instantiation. In Annual Privacy Forum (pp. 131-149). Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-030-02547-2\\_8](https://doi.org/10.1007/978-3-030-02547-2_8)

Ma'lumotlar brokerlari tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni sotish amaliyoti axloqiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki dastlabki ma'lumot to'plovchilar ma'lumotlarni keyingi foydalanish uchun sotishni ko'zda tutmagan bo'lishi mumkin<sup>281</sup>.

Odamlar ijtimoiy tarmoqlarga kirishni cheklamasdan ma'lumotlarni joylashtirgan bo'lsa, bu avtomatik ravishda ulardan keyingi barcha foydalanishni qonuniylashtiravermaydi. Ma'lumotlarni hamma ko'ra olishi mumkinligi, hech kim undan har qanday maqsadda foydalanishga haqli ekanligi yoki uni joylashtirgan shaxs keyingi foydalanishga bevosita rozi bo'lganligini anglatmaydi. Bu, ayniqsa, agar ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilish umumiy fikrlarni tahlil qilish uchun emas, balki shaxslarni profillashtirish uchun ishlatilganda muammo keltirib chiqaradi. Agar kompaniya ijtimoiy tarmoqdagi ma'lumotlardan shaxslarni, masalan, ishga qabul qilish yoki sug'urta yoki kredit xavfini baholash uchun profillashtirsa, u ma'lumotlarga ishlov berish uchun ma'lumotlarni himoya qilish shartiga ega ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Shaxslar ijtimoiy tarmoqlardagi xizmatga qo'shilganda, bunga aniq rozi bo'lgan bo'lishlari mumkin yoki kompaniya ularning roziligini, masalan, shaxslarga onlaynligini boshqarishda yordam beradigan xizmatning bir qismi sifatida so'rashi mumkin. Agar kompaniya tegishli rozilikka ega bo'lmasa, u boshqa qaysi ma'lumotlarni himoya qilish shartlari tegishli bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlarni "ochiq" joylashtirish shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishni avtomatik ravishda oqlamaydi va bunday ma'lumotlardan foydalanish ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini, jumladan, rozilik huquqini hurmat qilishi lozim<sup>282</sup>.

Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tegishli qonun talablarining kamida bittasiga javob berishi zarur. Rozilik shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish uchun shartlardan biridir. Lekin bu mavjud bo'lgan yagona talab emas va

---

<sup>281</sup> Crain, M. (2018). The limits of transparency: Data brokers and commodification. *New Media & Society*, 20(1), 88-104. <https://doi.org/10.1177/1461444816657096>.

<sup>282</sup> Wachter, S. (2018). Normative challenges of identification in the Internet of Things: Privacy, profiling, discrimination, and the GDPR. *Computer law & security review*, 34(3), 436-449. <https://doi.org/10.1016/j.clsr.2018.02.002>

boshqa talablardan ustun xarakterga ham ega emas. Ba'zi holatlarda, masalan, elektron marketing chaqiruvlari va xabarlari uchun rozilik talab qilinadi, ammo boshqa holatlarda boshqa qonun talablariga mos bo'lish lozim.

Ishlov berish ma'lumotlarni to'playotgan tashkilotning (yoki u ma'lumotlardan foydalana oladigan boshqalarning) qonuniy manfaatlari uchun zarur bo'lishi mumkin. Xususan, tashkilot o'z marketingini rejalashtirish uchun mijozlarni profillashtirish, firibgarlik yoki xizmatlardan noto'g'ri foydalanishning oldini olish hamda jismoniy yoki axborot texnologiyalari xavfsizligi kabi bir nechta qonuniy manfaatlarga ega bo'lishi mumkin. Biroq ishlov berish ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, erkinliklari yoki qonuniy manfaatlarga zarar keltiradigan kafolatsiz bo'lmasligi kerak.

GDPRga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish nazoratchi yoki uchinchi taraf tomonidan ko'zlangan qonuniy manfaatlar uchun zarur bo'lishi mumkin. Biroq bunday manfaatlar, ayniqsa, ma'lumotlar subyekti bo'lgan bolalarning asosiy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarga zid bo'lgan taqdirda, bunday ishlov berish istisno etiladi<sup>283</sup>.

Qonuniy manfaatlarga asoslangan ishlov berish ma'lumotlar subyektlarining manfaatlarga nisbatan mutanosib bo'lishi kerak va tashkilotlar bunday ishlov berishni boshlashdan oldin manfaatlar muvozanatini tekshirib chiqishlari talab etiladi<sup>284</sup>.

Bir qator hollarda Big Data kompaniyalarining qonuniy manfaatlari, jumladan, kreditga munosiblikni baholash, sug'urta firibgarligini aniqlash, kiberxavfsizlikni mustahkamlash kabi ishlov berish turlari mijozlar va jamiyat manfaatlari uchun zarur deb topilgan<sup>285</sup>.

Yaponiya Raqobat huquqi bo'yicha komissiyasi ham Big Data tahlilini amalga oshirishda kompaniyalarning "muqobil tijorat

---

<sup>283</sup> GDPR Article 6(1)(f).

<sup>284</sup> Article 29 Working Party. (2014). Opinion 06/2014 on the notion of legitimate interests of the data controller under Article 7 of Directive 95/46/EC. 844/14/EN, WP 217, 9 April 2014. [https://ec.europa.eu/justice/article-29/documentation/opinion-recommendation/files/2014/wp217\\_en.pdf](https://ec.europa.eu/justice/article-29/documentation/opinion-recommendation/files/2014/wp217_en.pdf)

<sup>285</sup> AQSh FTC "Big Data: imkoniyatmi yoki cheklov?" hisoboti. <https://www.ftc.gov/reports/big-data-tool-inclusion-or-exclusion-understanding-issues-ftc-report>

manfaatlari” mavjudligini e’tirof etgan. Masalan, kompaniya bozorni o’rganish yoki iste’molchilar talabini prognoz qilish maqsadida Big Data tahlilini qo’llashi mumkin<sup>286</sup>.

Rossiyada “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi qonunga ko’ra, kompaniyalar mijozlar qonuniy manfaatlarini ko’zlab, ma’lumotlarni ishlov berishlari mumkin. Bunday manfaatlar jumlasiga tovarlarga kafolat berish, servis xizmatlari ko’rsatish, iste’molchining roziligi bilan marketing tadqiqotlari o’tkazish kabilar kiradi<sup>287</sup>.

O’zbekiston qonunchiligida ham qonuniy manfaatlar asosida shaxsiy ma’lumotlarga ishlov berish nazarda tutilgan. “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonunning 18-moddasiga ko’ra, mulkdor va (yoki) operator yoki uchinchi shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun yoxud shaxsga doir ma’lumotlar subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilmasligi sharti bilan ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun bu ma’lumotlarga ishlov berish zarur bo’lganda, ishlov berishga yo’l qo’yiladi<sup>288</sup>.

Bizningcha, shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish shartlarini yanada aniqlashtirish va kengaytirish maqsadida “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonunning 18-moddasini quyidagi tahrirdagi 4-qism bilan to’ldirish maqsadga muvofiq: *“Davlat organlari va tashkilotlari zimmasiga qonun bilan yuklatilgan funktsiya va vakolatlarni bajarish uchun zarur bo’lgan hollarda shaxsga doir ma’lumotlarga ularning roziligisiz ishlov berilishi mumkin. Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov beruvchi subyekt (operator) yoki uchinchi shaxslarning qonuniy manfaatlarini ta’minlash uchun zarur bo’lgan hollarda roziliksiz ishlov berilishi mumkin, bundan shaxsga doir ma’lumotlar subyektlarining asosiy huquq va erkinliklari ustun bo’lgan hollar mustasno”*.

Biroq ushbu shartlarga javob berish uchun ishlov berish qonuniy manfaatlar uchun “zarur” bo’lishi kerak. Agar odamlarning

---

<sup>286</sup> Yaponiya Raqobat qo’mitasi hisoboti. <https://www.jftc.go.jp/en/pressreleases/yearly-2021/June/210625.html>

<sup>287</sup> <https://docs.cntd.ru/document/9005388>. Rossiya “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi qonuni, 16-modda.

<sup>288</sup> O’zbekiston Respublikasi qonuni, 18-modda. <https://lex.uz/docs/-2819025>

maxfiylikka kamroq ta'sir ko'rsatadigan qonuniy manfaatni amalga oshirishning boshqa yo'li mavjud bo'lsa, ishlov berish zarur deb hisoblanmaydi.

O'zining qonuniy manfaatlarini belgilagach, tashkilot ushbu manfaatlar bilan tegishli shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashi kerak. Shu bois mazkur shartga tayanishni istagan tashkilotlar shaxslarning maxfiylikiga qanday ta'sir ko'rsatishini alohida e'tiborga olishlari lozim.

Qonuniy manfaatlarga tayangan holda, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish ma'lumotlar subyektiga nisbatan yuqori xavf tug'dirmasligi va uning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini nomutanosib ravishda cheklamasligi kerak<sup>289</sup>.

Qonuniy manfaatlar sharti ma'lumotlar subyektlarining faol roziligini olishning muqobil yo'llaridan biri hisoblanadi. Agar tashkilot o'zining Big Data ishlov berishini qonuniylashtirishda qonuniy maqsadlarga tayanayotgan bo'lsa, u tegishli shaxslarning roziligini olishi shart emas, ammo subyektlarga nima qilayotganini adolatlilik talabiga muvofiq aytib borishi kerak.

Qonuniy manfaatlar sharti tashkilot uchun oson yo'l emas, balki bu ko'proq mas'uliyat olishni anglatadi. Rozilik shartida tashkilot o'z ishlov berishini adolatli va ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillariga mos kelishini ta'minlashi kerak bo'lsa-da, subyektlar ishlov berishga rozi bo'lish (yoki bo'lmaslik) uchun javobgardir, ishlov berish roziliksiz amalga oshirilmasligi mumkin. Aksincha, qonuniy manfaatlar sharti tashkilotga baholashni o'tkazish va odamlarning huquqlari hamda manfaatlarini hurmat qiladigan tarzda davom etish mas'uliyatini yuklaydi. Qonuniy manfaatlar asosida ishlov berish ma'lumotlar subyektiga ishlov berish haqida xabardor qilish va uni rad etish huquqini berish kabi himoya choralari ko'rishni talab qiladi<sup>290</sup>.

---

<sup>289</sup> Kamara, I., & De Hert, P. (2018). Understanding the balancing act behind the legitimate interest of the controller ground: A pragmatic approach. In *Cambridge handbook of consumer privacy* (pp. 321-352). Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781316831960.024>

<sup>290</sup> Kuner, C., Cate, F. H., Lynskey, O., Millard, C., Loideain, N. N., & Svantesson, D. J. B. (2019). Commentary on Article 21 GDPR. In *The EU General Data Protection Regulation (GDPR): A Commentary*. Oxford University Press.

Big Data kontekstida rozilik bilan bog'liq ba'zi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, qonuniy manfaatlar ishlov berish uchun muqobil asos bo'lishi mumkin, bu tijorat va ijtimoiy foyda hamda shaxslarning huquqlari va manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Rozilik ma'lumotlardan ba'zi maqsadlarda foydalanish uchun muhim bo'lsa-da, boshqalari uchun u mos kelmasligi mumkin. Bunda qonuniy manfaatlar sharti o'zining ajralmas muvozanat talabi bilan muqobil bo'lishi mumkin.

Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish, ma'lumotlar subyekti shartnoma tomonlaridan biri bo'lgan holatlarda, ushbu shartnomani bajarish uchun zarur bo'lishi mumkin. GDPR ham shartnomalar doirasida ishlov berishga nisbatan shunga o'xshash qoidani o'z ichiga oladi<sup>291</sup>. Masalan, biror kishi onlayn xarid qilganda, veb-sayt xaridni yakunlash uchun ularning ismi, manzili va kredit kartasi ma'lumotlarini ishlov berishi kerak bo'lgan holatni keltirish mumkin. Buning uchun maxsus rozilik talab qilinmaydi. Buni Big Data kontekstida qo'llashda muammo shundaki, ishlov berish "muhim" bo'lishi kerak. Big Data tahlili, uning tabiati bo'yicha, shunchaki mahsulot sotish yoki xizmat ko'rsatish uchun talab qilinadigan tahlil darajasidan yuqoriroq hisoblanadi. U ko'pincha dastlabki xizmatni ko'rsatishda yaratilgan ma'lumotlarni oladi va qayta maqsadlarda ishlatadi. Shunday qilib, Big Data tahlili shartnomani bajarish uchun zarur ekanligini ko'rsatish murakkab bo'lishi mumkin.

Shartnomaviy majburiyatlar asosida ishlov berish ma'lumotlar subyektiga kutilgan xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan cheklanishi va ma'lumotlar boshqa maqsadlarda foydalanilmasligi kerak<sup>292</sup>.

---

<sup>291</sup> GDPR Article 6(1) (b)

<sup>292</sup> Polčák, R., Svantesson, D., & Jerker, B. (2017). Information Sovereignty. Edward Elgar Publishing. <https://doi.org/10.4337/9781786439352>

### **3.3-§. Big Data tahlilida shaxsiy ma'lumotlarning huquqiy himoyasini ta'minlash omillari**

Big Data tahlili doirasida tamoyillar shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash, ma'lumotlardan foydalanishni qonuniy maqsadlarga muvofiq yo'lga qo'yish hamda ularning xavfsizligini kafolatlash uchun muhim ahamiyatga ega. Xususan, maqsadni cheklash tamoyili Big Data tahlili uchun to'siq yaratmaydi, lekin ishlov berish maqsadlarining mosligini baholashni talab qiladi. Ma'lumotlarni himoya qilishning maqsadni cheklash tamoyili ikki qismli testni nazarda tutadi: birinchidan, ma'lumotlar to'planadigan maqsad aniq va qonuniy bo'lishi kerak; ikkinchidan, agar ma'lumotlar boshqa biron-bir maqsadda qayta ishlansa, u dastlabki haqiqiy maqsadga mos bo'lishi kerak.

Maqsadni cheklash tamoyili Big Data tahlili kontekstida muammoli bo'lishi mumkin, chunki ma'lumotlardan kutilmagan va yangi yo'llar bilan foydalanish ko'pincha uning ajralmas qismi hisoblanadi<sup>293</sup>.

Ba'zilar Big Data maqsadni cheklash tamoyiliga qiyinchilik tug'diradi va bu tamoyil Big Data tahlilini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi, deb hisoblaydi. Bu Big Data tahlilini ma'lumotlarni ko'plab turli algoritmlarda tahlil qilish kutilmagan bog'liqliklarni ochib beradigan va ma'lumotlardan yangi maqsadlarda foydalanishga olib keladigan tasodifiy jarayon sifatida ko'radigan fikrni aks ettiradi.

Big Data tahlili shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishda "maqsadni o'zgartirish" tushunchasi bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltiradi va bu ma'lumotlardan foydalanish dastlabki maqsad doirasidan chiqib ketishi mumkinligini anglatadi<sup>294</sup>.

Keyingi ishlov berishning mos kelish-kelmasligini baholashda adolatlilik asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, bu yangi maqsadning tegishli shaxslarning maxfiyligiga qanday ta'sir qilishi va ularning shaxsiy ma'lumotlaridan bunday tarzda foydalanilishi haqida oqilona kutishlari doirasida bo'lishi lozimligini anglatadi. Agar yangi maqsad

---

<sup>293</sup> Wiese Schartum, D. (2016). Making privacy by design operative. *International Journal of Law and Information Technology*, 24(2), 151-175. <https://doi.org/10.1093/ijlit/eaw002>

<sup>294</sup> Zarsky, T. Z. (2016). Incompatible: The GDPR in the Age of Big Data. *Seton Hall L. Rev.*, 47, 995. <https://scholarship.shu.edu/shlr/vol47/iss4/2>

kutilmagan bo'lsa va u shaxslar haqida qarorlar qabul qilishni o'z ichiga olsa, ko'pgina hollarda tashkilot yangi maqsad asosida ishlov berish uchun ushbu shaxslardan qo'shimcha ravishda aniq rozilik olishi kerak bo'ladi.

Maqsadni cheklash tamoyili shaffoflik va hisobdorlikka ham bog'liq, chunki tashkilotlar ma'lumotlardan foydalanishdagi har qanday o'zgarishlarni ma'lumotlar subyektlariga xabar qilishlari va ularning huquqlarini ta'minlashlari kerak<sup>295</sup>.

Agar tashkilot Big Data tahlili uchun boshqa manbadan shaxsiy ma'lumotlarni sotib olayotgan bo'lsa, u holda tegishli tekshiruvni o'tkazishi zarur. Jumladan, yangi ishlov berish mazkur ma'lumotlar dastlab yig'ilgan maqsadga mos keladimi yoki yo'qligini baholashi, shuningdek, keyingi rozilikni olish yoki yangi maxfiylik bildirishnomasini taqdim etish zarurligini aniqlashi lozim.

Janubiy Koreyaning "Ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (PIPA)da ma'lumotlardan faqat oldindan e'lon qilingan va qonuniy maqsadlarda foydalanishga ruxsat beriladi<sup>296</sup>.

Singapurning "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (PDPA) ham ma'lumotlarni ularni yig'ish paytida belgilangan maqsaddagina foydalanishni talab qiladi. Maqsadni cheklash borasidagi qoidalar esa eng ishonchli va qat'iy deb tan olinadi<sup>297</sup>.

Shu o'rinda milliy qonunchiligimizda shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning har bir bosqichida maqsadni cheklash tamoyiliga amal qilish lozimligi aniq qilib belgilangan. Xususan, Qonunning 24-moddasiga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish yig'ilgan maqsadlarga zid bo'lmasligi kerak. Qo'shimcha maqsadlarda foydalanish (qonunda ruxsat etilgan holatlardan tashqari) uchun ma'lumot subyekting roziligi olinishi shart<sup>298</sup>.

Big Data tahlili ishlov berish maqsadi uchun ortiqcha shaxsiy ma'lumotlarni to'plashga olib kelishi mumkin. Tashkilotlar Big Data

---

<sup>295</sup> Vedder, A., & Naudts, L. (2017). Accountability for the use of algorithms in a Big Data environment. *International Review of Law, Computers & Technology*, 31(2), 206-224. <https://doi.org/10.1080/13600869.2017.1298547>

<sup>296</sup> [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG](https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG) – PIPA, Article 31, Paragraph 1

<sup>297</sup> Singapur qonuni, 20-modda. <https://sso.agc.gov.sg/Acts-Supp/26-2012/Published/20121220?DocDate=20121220>

<sup>298</sup> O'zbekiston Respublikasi qonuni, 24-modda. <https://lex.uz/docs/-2819025>

katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli shaxsiy ma'lumotlarni keragidan ortiq uzoq vaqt saqlashi mumkin.

Maqsadni cheklash tamoyiliga bevosita aloqador bo'lgan ma'lumotlarni minimallashtirish tamoyili ma'lumotlarni himoya qilishning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Chunki u ma'lumotlar subyektlari uchun xavflarni kamaytiradi va tashkilotlarning ma'lumotlarga egalik qilish mas'uliyatini minimallashtiradi<sup>299</sup>.

Ma'lumotlarni minimallashtirish konsepsiyasi tashkilotlar to'playdigan va qayta ishlaydigan ma'lumotlar miqdori va ularni saqlaydigan vaqt muddatini minimallashtirish kerakligini nazarda tutadi. GDPRda shaxsiy ma'lumotlar "adekvat, tegishli va ular qayta ishlana-digan maqsadlar uchun zarur bo'lgani bilan cheklanishi kerak"<sup>300</sup>, deyiladi.

Yaponiyaning "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni ham korxonalar faqat belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordagi shaxsiy ma'lumotlarni yig'ishi va ishlatishi kerakligini belgilaydi<sup>301</sup>.

Singapur ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligida ham ortiqcha ma'lumotlarni to'plash va saqlashni cheklashga oid talablar mavjud<sup>302</sup>.

Rossiyaning "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi federal qonunida ma'lumotlarni minimal yig'ish va ularni faqat ishlov berish maqsadlariga muvofiq hajmda saqlash prinsipi mustahkamlab qo'yilgan<sup>303</sup>.

O'zbekiston qonunchiligida ham ma'lumotlarni minimallashtirish tamoyili ma'lum darajada aks ettirilgan. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunda shaxsga doir ma'lumotlar bazasi mulkdor

---

<sup>299</sup> Gürses, S., Troncoso, C., & Diaz, C. (2011). Engineering privacy by design. *Computers, Privacy & Data Protection*, 14(3), 1-25. <https://software.imdea.org/~carmela.troncoso/papers/Gurses-CPDP11.pdf>

<sup>300</sup> GDPR Article 5(1)(c)

<sup>301</sup> Act on the Protection of Personal Information (Japan), Article 19 [https://www.ppc.go.jp/files/pdf/APPI\\_english.pdf](https://www.ppc.go.jp/files/pdf/APPI_english.pdf)

<sup>302</sup> Personal Data Protection Act (Singapore), Third schedule 1(c) <https://www.pdpc.gov.sg/Overview-of-PDPA/The-Legislation/Personal-Data-Protection-Act>

<sup>303</sup> Russian Federal Law on Personal Data, Article 5 [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_61801/d0fffd7d7c7686144072ac0c09cb774b70513bbe/5/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61801/d0fffd7d7c7686144072ac0c09cb774b70513bbe/5/)

va (yoki) operator, shuningdek, uchinchi shaxs tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarni bajarish uchun zarur hamda yetarli bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish yo'li bilan shakllantirilishi hamda o'zi vazifalarini bajarish uchun zarur va yetarli bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlar tarkibini tasdiqlashi kerakligi belgilab qo'yilgan<sup>304</sup>. Unga ko'ra, ishlov berish maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordagi ma'lumotlar to'planishi va ishlatilishi lozim.

Bundan tashqari, ma'lumotlarni maqsadli cheklash va minimallashtirish tamoyillarini mustahkamlash uchun "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 10-moddasini quyidagi mazmundagi to'rtinchi qism bilan to'ldirish maqsadga muvofiq: *"Ma'lumotlarga ishlov beruvchi (operator) shaxsga doir ma'lumotlarni faqat oldindan belgilangan, aniq va qonuniy maqsadlarda hamda ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan minimal hajmda to'plashi va ishlov berishi shart"*.

Aksincha, Big Data tahlili ko'pincha muayyan to'plamdagi imkon qadar keragidan ko'ra ko'proq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni minimallashtirish masalasi foydalaniladigan ma'lumotlar miqdori haqida emas, balki u ishlov berish maqsadi uchun zarurmi yoki ortiqchaligi haqidadir. Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyadagi tadbirkorlik bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda 72 % kompaniyalar vakillari ular keyinchalik ishlatmagan ma'lumotlarni to'plaganligi aniqlangan<sup>305</sup>. Ortiqcha ma'lumotlarni to'plash ma'lumotlarni himoya qilish masalasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu kompaniyalar uchun ular, haqiqatan ham, kerak bo'lgan ma'lumotlarni topish va ular ustida ishlashni qiyinlashtirishi ham mumkin.

Ma'lumotlarni minimallashtirish tamoyiliga amal qilmaslik tashkilotlar uchun huquqiy va moliyaviy xavflarni oshirishi mumkin, chunki u ma'lumotlarni himoya qilish qoidalarining buzilishiga olib keladi<sup>306</sup>.

---

<sup>304</sup> O'zbekiston Respublikasi qonuni, 10-, 11-modda. <https://lex.uz/docs/-2819025>

<sup>305</sup> Pure Storage. Big Data's big failure. The struggles businesses face in accessing the information they need. Pure Storage, December 2015. [http://info.purestorage.com/rs/225-USM-292/images/Big%20Data%27s%20Big%20Failure\\_UK%281%29.pdf?aliId=64921319](http://info.purestorage.com/rs/225-USM-292/images/Big%20Data%27s%20Big%20Failure_UK%281%29.pdf?aliId=64921319) Accessed 25 April 2016

<sup>306</sup> Rubinstein, I. S. (2013). Big Data: the end of privacy or a new beginning?. International Data Privacy Law, 3(2), 74-87. <https://doi.org/10.1093/idpl/ips036>

Big Data tahlilida foydalaniladigan ma'lumotlar manbalarining xilma-xilligi ham muhim omil hisoblanadi. Masalan, bunday tahlil odamlarning turmush tarzi bilan ularning kreditga layoqati o'rtasida kutilmagan bog'liqliklarni aniqlashi mumkin. Biroq bu har qanday mavjud ma'lumotni kredit xavfini baholash maqsadida ishlatish mumkin degan ma'noni anglatmaydi. Ma'lum bir bog'liqlikning mavjudligi o'zi bilan birga ma'lumotlarni yig'ish yoki ulardan foydalanishni oqlamaydi.

Shaxsiy ma'lumotlarni to'plashda proporsionallik prinsipiga amal qilish Big Data kontekstida ham muhim ahamiyat kasb etadi va tashkilotlar ma'lumotlar subyektlari to'g'risida faqat ishlov berish maqsadlari uchun kerakli ma'lumotlarni to'plashga majbur<sup>307</sup>.

Shaxsiy ma'lumotlar ishlov berilayotgan maqsad uchun zarur bo'lgan muddatdan uzoq saqlanmasligi kerak. Bu esa shaxslarning ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlaydi, shuningdek, ma'lumotlarni boshqarishda yaxshi amaliyotni aks ettiradi. Biroq Big Data dunyosida bu quyidagi ikki sababga ko'ra muammoli bo'lishi mumkin: birinchidan, ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlari doimiy ravishda ortib bormoqda va ularni saqlash narxi pasayib bormoqda. Jorj Daysonning so'zlariga ko'ra, "Big Data ma'lumotlarni saqlash narxi ularni tashlab yuborish narxidan past bo'lganda sodir bo'lgan narsa"<sup>308</sup>; ikkinchidan, Big Data tahlilining ulkan hajmdagi ma'lumotlarga ishlov berish qobiliyati ma'lumotlar nazoratchilarini odatiy tadbirkorlik maqsadlari uchun talab qilinadigan davr mobaynida tarixiy ma'lumotlarni uzoq muddatli saqlashga undashi mumkin.

AQShda sog'liqni saqlash tashkilotlari ma'lumotlarni faqat davolash maqsadlari uchun zarur muddatda saqlashlari kerak. Ba'zi shtatlar qonunlarida ma'lumotlarni saqlash muddatlari aniq belgilab qo'yilgan<sup>309</sup>.

"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunda shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash muddati ularni yig'ish va ularga ishlov berish

---

<sup>307</sup> Crawford, K., & Schultz, J. (2014). Big Data and due process: Toward a framework to redress predictive privacy harms. *BC L Rev.*, 55, 93. <http://lawdigitalcommons.bc.edu/bclr/vol55/iss1/4>

<sup>308</sup> Warner, Andrew. George Dyson seminar media. The Long Now Foundation, 28 March 2013. <http://blog.longnow.org/02013/03/28/george-dyson-seminar-media/> Accessed 25 April 2016.

<sup>309</sup> HIPAA Privacy Rule: Research, U.S. Department of Health & Human Services. <https://www.hhs.gov/hipaa/for-professionals/privacy/guidance/research/index.html>

maqsadiga erishish sanasi bilan belgilanishi, shuningdek, ushbu muddat ma'lumotlar subyekti o'z shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga bergan rozilik amal qiladigan davrdan oshib ketmasligi kerakligi belgilab qo'yilgan<sup>310</sup>.

Janubiy Koreya maxfiylik qonunida ma'lumotlarni yig'ish maqsadiga erishilgandan so'ng ularni o'chirib tashlash majburiyati belgilangan<sup>311</sup>.

Ma'lumotlar subyektlari bir necha holatlarda o'z ma'lumotlarini o'chirishni so'rash huquqiga ega. Jumladan, ma'lumotlar to'plangan maqsad uchun ortiq zarur bo'lmagan yoki ishlov berish rozilik asosida amalga oshirilgan va ma'lumotlar subyekti ushbu rozilikni qaytarib olganda qo'llanadi. Bu davlat sektoridan ko'ra, xususiy sektor uchun muammo hisoblanadi, davlat sektorida "unutilish huquqi" qonuniy majburiyat yoki rasmiy vakolatni amalga oshirish uchun ishlov berish zarur bo'lganda tatbiq etilmaydi. Xususiy sektor uchun agar u bir nechta turli tizimlar bo'ylab saqlanayotgan bo'lsa, kimningdir ma'lumotlarini topish va o'chirish amalda qiyin bo'lishi mumkin<sup>312</sup>.

Shuning uchun tashkilotlar dastlabki bosqichda ular nima uchun ma'lum ma'lumotlar to'plamlarini to'plash va ishlov berish kerakligini aniq aytib bera olishlari lozim. Ular ushbu ma'lumotlarga ishlov berish orqali nima o'rganishlari yoki nima qila olishlarini aniq bilishlari hamda shu bilan ma'lumotlarning tegishli va ortiqcha emasligiga, shu maqsad bilan bog'liq ekanligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Muammo – ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlarini aniqlash va qaysi ma'lumotlar tegishli bo'lishini belgilashda.

Shaxsiy ma'lumotlar aniq bo'ladi va zarur hollarda yangilanib turadi. Bu, bir tomondan, axborotni boshqarish nuqtayi nazaridan yaxshi amaliyot hisoblansa, boshqa tomondan, shaxs huquqlari bilan ham bog'liq: shaxslar noto'g'ri ma'lumotlari to'g'rilanishi

---

<sup>310</sup> "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, 2019-y, 10-, 19-moddalar. <https://lex.uz/docs/-4396419>

<sup>311</sup> Personal Information Protection Act of South Korea, Article 21. [https://elaw.kri.re.kr/eng\\_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG](https://elaw.kri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=53044&lang=ENG) -

<sup>312</sup> Becoming an analytics-driven organisation to create value. Ernst Young, January 2015. [http://www.ey.com/Publication/vwLUAssetsPI/Becoming\\_an\\_analytics\\_driven\\_organisati\\_on\\_to\\_create\\_value/\\$FILE/ey%20big%20data%20report\\_low-res.pdf](http://www.ey.com/Publication/vwLUAssetsPI/Becoming_an_analytics_driven_organisati_on_to_create_value/$FILE/ey%20big%20data%20report_low-res.pdf) Accessed 27 April 2016.

huquqiga ega. Aksincha, Big Data tahlili, odatda, qayta ishlangan ma'lumotlar hajmi juda katta bo'lganligi sababli "tartibsiz" (ya'ni noaniq) ma'lumotlarning ma'lum darajasini qabul qila oladi, deb qayd etiladi<sup>313</sup>. Noto'g'ri ism yoki manzil kabi ma'lum darajadagi "tartibsizlik" umumiy tendensiyalarni aniqlashda muammo bo'lmasligi mumkin. Ammo u muayyan shaxslarni profillashtirish uchun ishlov berishda ancha muammoli bo'lishi ehtimoli yuqori.

Ma'lumotlar sifati Big Data loyihalarining muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi va shuning uchun tashkilotlar ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash bo'yicha faol sa'y-harakatlar olib borishlari kerak<sup>314</sup>.

AQSh Raqobat federal komissiyasi (FTC)ga ko'ra, "kompaniyalar ma'lumotlarning aniqligi va to'liqligini ta'minlash uchun oqilona choralar ko'rishlari, noto'g'ri ma'lumotlar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirish va muammolarni bartaraf etish tizimlarini yaratishlari kerak"<sup>315</sup>.

Yaponiyaning "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni ma'lumotlar aniq va aktual bo'lishini ta'minlash, shuningdek, subyektga ularni to'g'rilash imkonini berish majburiyatini yuklaydi. Ma'lumotlarga ishlov berishning barcha bosqichlarida ularning sifati (aniqligi, ishonchligi)ni nazorat qilish talab etiladi<sup>316</sup>.

Janubiy Koreya qonunchiligi ham kompaniyalardan ma'lumotlarning aniqligi va yaxlitligini ta'minlash, shuningdek, zarur bo'lganda, ularni yangilash va to'g'rilashni talab qiladi<sup>317</sup>.

Rossiyada "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra, ma'lumotlarni to'playotgan va qayta ishlayotgan tashkilot "ularning aniqligi, yetariligi, dolzarbligi va ishonchliligi"ni ta'minlashi shart<sup>318</sup>.

---

<sup>313</sup> Mayer-Schönberger, Viktor and Cukier, Kenneth. Big Data. A revolution that will transform how we live, work and think. John Murray, 2013.

<sup>314</sup> Taleb, I., Serhani, M. A., & Dssouli, R. (2018). Big Data quality: A survey. In 2018 IEEE International Congress on Big Data (Big Data Congress) (pp. 166-173). IEEE. <https://doi.org/10.1109/BigDataCongress.2018.00029>

<sup>315</sup> FTC Report on Big Data, pages 28-29. <https://www.ftc.gov/reports/big-data-tool-inclusion-or-exclusion-understanding-issues-ftc-report>

<sup>316</sup> Act on the Protection of Personal Information, Article 19, Japan. <https://elaws.e-gov.go.jp/document?lawid=415AC0000000057>

<sup>317</sup> Personal Information Protection Act Enforcement Rules, Article 16, South Korea. [https://www.pipc.go.kr/np/en/sub01\\_2.do](https://www.pipc.go.kr/np/en/sub01_2.do)

<sup>318</sup> Federal Law on Personal Data, Article 19, Russia. [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_61801/ffc27964db1e9d3172bf9a69e48fedfcc7d6bdc/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61801/ffc27964db1e9d3172bf9a69e48fedfcc7d6bdc/)

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida ham "shaxsga doir ma'lumotlarning aniqligi, ishonchliligi" tamoyili mustahkamlab qo'yilgan<sup>319</sup>.

Big Data tahlilida ishlatilgan katta miqdordagi ma'lumotlar tufayli tashkilotlar uchun shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqiga rioya qilish qiyinroq bo'lishi mumkin.

Subyektlar o'zlariga doir qanday shaxsiy ma'lumotlar ishlov berilayotgani, qanday maqsadlarda ishlov berilayotgani va kimlarga oshkor qilinishi mumkinligini bilish huquqiga ega. Shuningdek, ular o'z shaxsiy ma'lumotlarini tashkil etuvchi ma'lumotlar nusxasini olish huquqiga, shuningdek, ma'lumot manbalari haqida ma'lumot olish huquqiga ega. Ushbu huquq faqat qonunchilikda belgilangan istisnolar bilan cheklanadi. Ma'lumotlar nazoratchilari subyektlarga ko'proq ma'lumot taqdim etishlari kerak. Masalan, ular shaxsiy ma'lumotlarni qancha muddat saqlashlari yoki buning mezonlarini tushuntirishlari zarur. Bundan tashqari, agar shaxs o'z so'rovini elektron tarzda yuborsa va so'rov beruvchi boshqacha ko'rsatmalar bermasa, ma'lumotlar nazoratchilari ma'lumotlarni "keng tarqalgan elektron shaklda" taqdim etishlari lozim.

AQShning "Har bir bola muvaffaqiyati to'g'risida"gi (ESSA) qonuni ota-onalarga farzandlari haqida to'plangan ma'lumotlar, ularning ishlatilish maqsadlari, kimga berilishi haqida xabardor bo'lish va so'rov asosida ma'lumotlar nusxasini olish huquqini beradi<sup>320</sup>.

Yaponiyaning "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni shaxslarga o'zlari haqida qanday ma'lumotlar saqlanayotgani, ularning manbalari, qanday maqsadda ishlatilishi, kimga berilishi haqida so'rov yuborish va 30 kun ichida javob olish huquqini kafolatlaydi<sup>321</sup>.

Shu kabi, Rossiya Federatsiyasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni fuqarolarga o'zlari haqidagi ma'lumotlarga

---

<sup>319</sup> Law of the Republic of Uzbekistan "On personal data", Article 5. <https://lex.uz/docs/-2819025>

<sup>320</sup> Every Student Succeeds Act (ESSA) parent and guardian rights provisions <https://studentprivacy.ed.gov/resources/every-student-succeeds-act-parent-and-guardian-rights-provisions>

<sup>321</sup> Act on the Protection of Personal Information, Articles 27-31, Japan [https://elaws.egov.go.jp/document?lawid=415AC0000000057\\_20220401\\_503AC0000000037](https://elaws.egov.go.jp/document?lawid=415AC0000000057_20220401_503AC0000000037)

kirish, ularning to'g'rilanishi yoki o'chirilishini so'rash huquqini beradi. Operator 30 kun ichida so'rovga javob berishi yoki rad etilishining sababini asoslashi kerak<sup>322</sup>.

Afsuski, qonunimizda "subyektning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishni vaqtincha to'xtatish va (yoki) ularni yo'q qilish uchun subyekt tomonidan hujjatlarni elektron tarzda berish imkoniyatini ta'minlashi<sup>323</sup>" nazarda tutilsa-da, o'zlari haqidagi ma'lumotlarga kirish, ularning to'g'rilanishi yoki o'chirilishini so'rash huquqi va so'rovga javob berish tartibi aniq belgilanmagan.

Biroq milliy Konstitutsiyamizning 31-moddasi 3-qismida "har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishi, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega"<sup>324</sup> ekanligi qayd etilib, ushbu huquqlar konstitutsiyaviy norma darajasida belgilanligini alohida qayd etish lozim. Ushbu konstitutsiyaviy normallarni yanada boyitib, subyektning ma'lumotlarga kirish, ularning to'g'rilanishi yoki o'chirilishini so'rash huquqi va so'rovni ko'rib chiqish tartibini Qonunning 30-moddasi 1-bandi bilan quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirish lozim:

*"Shaxsga doir ma'lumotlar subyekti o'z ma'lumotlarini to'g'rilash, to'ldirish, bloklash va yo'q qilish, shuningdek, ma'lumotlar o'chirilganligi yoki ular almashtirilganligi to'g'risida xabardor etilishni so'rash huquqiga ega".*

Big Data hajmi va xilma-xilligi, shuningdek, tahlilning murakkabligi ushbu majburiyatni bajarishni tashkilotlar uchun murakkablash-tirishi mumkin. Biroq bunday omillar yuridik majburiyatlarni e'tiborsiz qoldirish uchun asos bo'la olmaydi. Kirish huquqining mavjudligi tashkilotlarni ma'lumotlarni samarali boshqarishga majbur qiladi. Tashkilotlar yetarli darajadagi metama'lumotlarga, shaxs haqidagi barcha ma'lumotlarni aniqlash uchun so'rov yuborish imkoniyatiga

---

<sup>322</sup> Federal Law on Personal Data, Article 14, Russia [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_61801/d866f27bfc4fd272e03ec9497608d2f1c01c83ce/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_61801/d866f27bfc4fd272e03ec9497608d2f1c01c83ce/)

<sup>323</sup> Law of the Republic of Uzbekistan «On Personal Data», Articles 31 <https://lex.uz/docs/-5680038>

<sup>324</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 31-modda <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445421>

ega bo'lishlari, shuningdek, ular qayta ishlayotgan ma'lumotlarning, haqiqatan ham, anonimlashtirilganligi yoki hanuzgacha shaxsga bog'lanishi mumkinligini aniq bilishlari kerak.

Agar tashkilot turli xil ma'lumotlar manbalari, shu jumladan, tuzilmagan ma'lumotlardan foydalansa va/yoki sotib olsa, bir shaxs haqidagi barcha ma'lumotlarni taqdim etish qiyin bo'lishi mumkin. Bunday tashqari, kuzatilgan, hosila va taxminiy ma'lumotlardan foydalanishning ko'payishi, saqlanadigan ma'lumotlarning barchasi bevosita ma'lumotlar subyekti tomonidan taqdim etilmaganligini anglatadi. Biroq boshqa hollarda shaxs haqida saqlanadigan haqiqiy ma'lumotlar, hatto unga qo'llanadigan tahlillar murakkab va keng bo'lsa ham, zarur darajada keng yoki aniqlash qiyin bo'lmasligi mumkin.

Ba'zi tashkilotlar allaqachon ushbu ma'lumotlarni so'rov bo'yicha yoki onlayn tarzda, xavfsiz kirish orqali o'z mijozlariga taqdim etmoqda. AQShda ma'lumotlar brokeri Axiom odamlarga marketing maqsadlarida ular haqida saqlanadigan ma'lumotlar va ushbu ma'lumotlar manbalarini ko'rish imkonini beruvchi veb-portalga ega<sup>325</sup>. GDPRga ko'ra, imkon bo'lganda, nazoratchi ma'lumotlar subyektiga uning shaxsiy ma'lumotlariga to'g'ridan to'g'ri kirishni ta'minlaydigan xavfsiz tizimga masofadan kirishni taqdim etishi kerak.

Agar shaxsiy ma'lumotlar shu tarzda taqdim etilishi mumkin bo'lsa, bu tashkilotga o'zining ma'lumotlarni himoya qilish majburiyatlarini bajarishda yordam beradi. Bu, shuningdek, odamlarni ular haqida saqlanayotgan ma'lumotlar miqdori va turi haqida ishontirishga yordam berishi mumkin.

Ma'lumotlar sifati Big Data kontekstida axborot boshqaruvi mas'uliyatiga ega bo'lganlar uchun asosiy masala hisoblanadi.

Hisobdorlik tashkilotning shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish operatsiyalarining barcha jihatlariga taalluqlidir. Mashinalashgan o'rganish kabi Big Data tahlilining ba'zi turlarining o'sib borishi tufayli so'nggi vaqtlarda algoritmlarning roli, "algoritmik hisobdorlik" haqida ko'plab munozaralar bo'lmoqda<sup>326</sup>.

---

<sup>325</sup> <https://aboutthedata.com>

<sup>326</sup> Taneja, Hemant. The need for algorithmic accountability. TechCrunch, 8 September 2016. <https://techcrunch.com/2016/09/08/the-need-for-algorithmic-accountability/> Accessed 12 December 2016.

Algoritmik hisobdorlik masalasi nafaqat kamsituvchi natijalar, balki algoritmlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar shaffofligiga ham taalluqlidir<sup>327</sup>. Algoritmnlarni “qora quti” sifatida emas, balki tushuntirilishi va tekshirilishi mumkin bo‘lgan vositalar sifatida ishlab chiqish talab etiladi.

Mashinalashgan o‘rganish algoritmlarining avtonom va shaffof bo‘lmagan tabiati bois ular asosidagi qarorlar faqat keyinchalik, ya’ni shaxslar kamsitilgandan so‘nggina kamsituvchi sifatida aniqlanishi mumkin. Masalan, ProPublica AQShning ba’zi shtatlarida ayblanuvchilarning kelajakdagi jinoiy xatti-harakatlarini bashorat qilish uchun mashinalashgan o‘rganish vositasida ishlab chiqilgan 7000 ta “xavf ballari”ni tahlil qildi. Natijada oq tanli ayblanuvchilarga qaraganda qora tanli ayblanuvchilar deyarli ikki baravar ko‘p holatlarda kelajakdagi jinoyatchilar sifatida tasniflanishi orqali irqi bo‘yicha kamsitishni ko‘rsatdi<sup>328</sup>. Big Data tahlilchilari bunday qarorlarni dastlab qabul qilishning oldini olish uchun o‘zlarining mashinalashgan o‘rganish tizimlarida kamsitishni aniqlash yo‘llarini topishi zarur.

Algoritmik qarorlar noxolis profillashtirish yoki nuqsonli bog‘liqliklar tufayli xato bo‘lishi mumkin, bu esa shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishda aniqlik tamoyilining buzilishiga olib keladi. Algoritmlar o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlaydi va ularni keyinchalik real hayotdagi holatlarga tatbiq qiladi. Masalan, Google qidiruv tizimining avtomatik to‘ldirish funksiyasi foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnga asoslangan so‘zlarni taklif qiladi. Biroq bu qarorlar aniqlik nuqtayi nazaridan muammoli bo‘lishi mumkin. Avtomatik bog‘liqliklar Germaniya sudlarida ikki bor tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Birinchi holatda tadbirkor Google kompaniyasini uni “santologiya” va “firibgarlik” so‘zlari bilan bog‘lagani uchun sudga bergan. Ikkinchi holatda esa sobiq Germaniya prezidentining rafiqasi Google tomonidan uning ismini fohishabozlik xizmatlari bi-

---

<sup>327</sup> Lepri, B., Oliver, N., Letouzé, E., Pentland, A., & Vinck, P. (2018). Fair, transparent, and accountable algorithmic decision-making processes. *Philosophy & Technology*, 31(4), 611-627. <https://doi.org/10.1007/s13347-017-0279-x>

<sup>328</sup> Angwin, Julia. Make Algorithms Accountable. *The New York Times*, 1 August 2016. [http://www.nytimes.com/2016/08/01/opinion/make-algorithms-accountable.html?\\_r=1](http://www.nytimes.com/2016/08/01/opinion/make-algorithms-accountable.html?_r=1) Accessed 12 December 2016.

lan bog'laydigan so'zlarni taklif qilgani sababli da'vo arizasi bilan chiqqan. Nikolas Diakopoulos fikriga ko'ra, Big Data bilan bog'liq muammolardan biri – u bog'liqlikni asosiy vosita sifatida qabul qilishidir. Bog'liqlik, albatta, ma'lumotlar o'lchovlari orasida statistik aloqalarni yaratadi. Biroq “Bog'liqlik sababiyatni anglatmaydi” va odamlar ko'pincha bog'liqlikni noto'g'ri tarzda sababiy aloqa sifatida talqin qiladilar<sup>329</sup>.

Bog'liqlik va sababiyat o'rtasidagi farqni tushunish Big Data tahlilchilari uchun juda muhimdir, chunki ular xato xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin<sup>330</sup>. Shuning uchun Big Data loyihalarida sababiy xulosalar chiqarishda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi.

Ma'lumotlar sifati va axborotni boshqarish hisobdorlik tushunchasiga bog'liqdir. Ma'lumotlar sifati Big Datadan foydalanadigan tashkilotlar uchun asosiy masala hisoblanadi. Bu ko'pincha “to'rtinchi V” deb hisoblangan Big Data xususiyati bilan bog'liq: haqiqiylik yoki boshqacha qilib aytganda, ma'lumotlarning ishonchliligidir. Bunga, masalan, ma'lumotlar manbalari, ularning aniqligi, yetarlicha yangi ekanligi, qanchalik xavfsiz saqlanayotgani va undan qanday foydalanish mumkin bo'lgan cheklovlarni ko'rib chiqish kirishi mumkin.

Shuningdek, olimlar Big Data axborot xavfsizligini yaxshilash uchun ishlatilishi imkoniyatlarini alohida qayd etishadi. Juda katta miqdordagi ma'lumotlarni juda tez tahlil qilish qobiliyati Big Datani boshqa texnologiyalar bilan boshqarish uchun juda katta bo'lgan tarmoq trafigi, tranzaksiyalar va fayllarni tahlil qilish uchun ishlatish imkonini beradi. Tahlil shakllar va anomalialarni aniqlashi va xavfsizlik tahdidlarini tezda identifikatsiya qilishi mumkin.

---

<sup>329</sup> Diakopoulos, Nicholas. Accountability in algorithmic decision making. *Communications of the ACM* 59, no. 2 (2016): 56–62.

<sup>330</sup> Illari, P., & Russo, F. (2014). *Causality: Philosophical theory meets scientific practice*. OUP Oxford. <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199651436.001.0001>

## XULOSA

Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimi mavzusini tadqiq qilish natijasida bir qator ilmiy-nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid xulosalarga kelindi:

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Big Dataning ashyoviy shaklga ega emasligi uni moddiy ne'matlardan farqlasa, qiymatga egaligi va intellektual faoliyat mahsuli ekanligi nomoddiy ne'matlarga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, Big Data o'zining qator noyob xususiyatlari, jumladan, katta hajmi, tezkor sur'atlar bilan yaratilishi va yangilanib turishi, turli formatlardagi va shakllanmagan ma'lumotlarni qamrab olishi bilan moddiy va nomoddiy ne'matlardan farqlanadi. Bu esa Big Dataning huquqiy tabiati va rejimini belgilashda alohida yondashish lozimligini ko'rsatadi.

2. Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimini belgilash yuzasidan bir nechta yetakchi konsepsiya va nazariyalar ko'rib chiqilib, Big Data fenomenining murakkabligi va o'ziga xosligini inobatga olib, kompleks model yondashuvi ilgari surildi. Bu yondashuv qatlamli huquqlar tizimi (***Layered Rights Approach***), ma'lumotlar ishonchli boshqaruvi (***Data Trusteeship Concept***), litsenziyalash doirasi (***Licensing Systems***), nazorat qilinadigan ma'lumotlar oqimlari (***Data Sovereignty***), kuchaytirilgan maxfiylik kafolatlari (***Information Privacy Theory***), ochiq ma'lumotlar tashabbuslari (***Public Resource Theory***) va sui generis himoyani (***Sui Generis Database Rights***) o'z ichiga oladi. Ushbu elementlar ma'lumotlarning sezgirligiga qarab himoya darajasini belgilash, maxfiylikni ta'minlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish, milliy va xalqaro manfaatlar muvozanatini saqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ochiq ma'lumotlar almashinuvini qo'llab-quvvatlash va qimmatli ma'lumotlar bazalarini yaratishga investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan. Bu yondashuv Big Data sohasidagi huquqiy munosabatlarni kompleks tartibga solishga imkon beradi.

3. Big Dataning huquqiy maqomi va rejimini aniq belgilaydigan, Big Datani fuqarolik huquqi obyektiga sifatida tan oladigan va unga nisbatan mulk huquqi yoki mulkiy huquq masalalarini tartibga sola-

digan maxsus qonun hujjatlari hali biror-bir davlat tajribasida uchramasligi, faqatgina bu bo'yicha tashkiliy harakatlar olib borilayotganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, buning asosiy sababi Big Dataning yangi tushuncha ekanligi, o'ziga xos murakkab tuzilishi, uni moddiy va nomoddiy mulk obyektlari qatoriga kiritish qiyinligi bilan asoslandi. Biroq bugungi kunga kelib, Big Data va uning elementlarining huquqiy maqomini aniq belgilab beruvchi maxsus qonun hujjatini ishlab chiqish juda zarurligi tadqiqot davomida yanada ochib berildi. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqib, Big Data bilan faoliyat olib boruvchi tashkilotlarga **“soft law”**, ya'ni tavsiyaviy, namunaviy xarakterdagi huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan **Universal Big Data kodeksi konsepsiyasi** tadqiqot natijasi sifatida ishlab chiqildi.

4. Big Dataga nisbatan milliy qonunchiligimizdagi to'plamlar (ensiklopediyalar, antologiyalar, ma'lumotlar bazalari) va materiallarning tanlanganligi yoki joylashtirilganligiga ko'ra, ijodiy mehnat natijasi bo'lgan boshqa jamlanma asarlar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanishi haqidagi normaga tayangan holda, mualliflik huquqi qo'llanishi lozimligi, shu bilan birga, Big Dataning murakkab tuzilishi hamda ko'p mehnat va investitsiya talab etishini inobatga olgan holda, Big Dataga nisbatan mualliflik huquqi bilan birgalikda *sui generis* huquqini ham nazarda tutish lozimligi, Big Dataga nisbatan mualliflik huquqi va *sui generis* huquqini tatbiq etish orqali uning to'laqonli himoyasini ta'minlanishi asoslantirildi.

5. Tadqiqot davomida shu aniqlandiki, Big Data nafaqat an'anaviy shaxsiy ma'lumotlar, balki shaxsning xulq-atvori, qadriyatlari, ijtimoiy aloqalari, onlayn faoliyati, xarid odatlari kabi ko'plab jihatlarni ham qamrab oluvchi yangi turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu esa, o'z navbatida, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashga nisbatan yangicha yondashuvlar talab etadi. Milliy qonunchilikka shaxsiy ma'lumotlarning yangi turlarini kiritish, maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlar (*ijtimoiy, geolokatsiya, onlayn faoliyati* va boshqalar) doirasini kengaytirish hamda Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti va OECD yo'riqnomalari kabi ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, ushbu yangi toifadagi shaxsiy ma'lumotlar

uchun yuqori himoya standartlarini belgilash lozimligi asoslab berilib, tegishli takliflar berildi.

6. Big Data sohasidagi munosabatlarni tartibga solish nafaqat normativ qoidalar, balki *inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish, shaffoflik va hisobdorlik, ma'lumotlar sifati va xavfsizligi, kamsitishga yo'l qo'ymaslik* kabi prinsip va umuminsoniy qadriyatlar Big Dataga oid munosabatlarning asosini tashkil etishi lozimligi haqidagi xulosaga kelindi. Tadqiqot davomida milliy qonunchilikda axloqiy me'yorlarni huquqiy normalarga integratsiya qilish asoslantrildi.

7. Natijalarni umumlashtirib aytganda, Big Dataning huquqiy maqomini belgilash, ma'lumotlar xavfsizligi va sifatini nazorat qilish, sohaga investitsiyalarni jalb etish, kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda maqsadli dasturlar ishlab chiqish talab etiladi. O'zbekiston sharoitida ham "Raqamli iqtisodiyot" milliy dasturi doirasida Big Data sohasini rivojlantirish, institutsional asoslarini mustahkamlash va infratuzilmasini yaratishga oid choralar kompleksini belgilash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

## **II. Qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi IV bo'limini, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunni Big Datani intellektual mulk obyekti sifatida ifodalovchi o'zgartirishlar bilan to'ldirish taklif etiladi.

2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1031-moddasi 1-bandi to'rtinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish:

"Big Data, elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari".

3. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi birinchi qismi o'n beshinchi xatboshisi hamda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi" Qonunning 4-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisini quyidagi jumla bilan to'ldirish:

*"Big Data - bu raqamli texnologiyalar yordamida turli manbalardan yig'ilgan, an'anaviy usullar bilan ishlov berish, saqlash va tahlil qilish imkoniyatidan ortiq bo'lgan, yuqori tezlikda o'sib borayotgan va xilma-xil tuzilmaga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plami"*.

4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini sui generis huquqi institutiga bag'ishlangan **60<sup>1</sup>-bob. Sui generis huquqi** deb nomlangan yangi bob bilan to'ldirish taklif etiladi. Xususan, ushbu bob doirasida ma'lumotlar bazasi yaratishda sezilarli darajadagi sarmoya kiritilgan va uning tarkibi, tizimlashtirish va taqdim etish shakli o'ziga xoslik kasb etgan hollarda ma'lumotlar bazasiga sui generis huquqi vujudga kelishi, sui generis huquqi ma'lumotlar bazasidan butunlay yoki uning sezilarli qismidan nusxa ko'chirish yoki qayta ishlatishdan himoya qilishi kabi normalar o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

5. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 4-moddasidagi *"shaxsga doir ma'lumotlar"* tushunchasini yanada aniqlashtirish va kengaytirish maqsadida 4-moddasi ikkinchi xatboshini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

*"Shaxsga doir ma'lumotlar – shaxsning biometrik ma'lumotlari, sog'lig'i va fiziologik holati haqidagi ma'lumotlar, genetik ma'lumotlari, geolokatsiya ma'lumotlari, shaxsning onlayn faoliyati va raqamli izi bilan bog'liq ma'lumotlar hamda shaxsni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini beruvchi har qanday ma'lumot"*.

6. Adolatlilik va shaffoflik tamoyillarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi va uchinchi xatboshilari bilan to'ldirish lozim:

*"Adolatlilik va kamsitishga yo'l qo'ymasligi;" "qonuniylik, shaffoflik va oqilonalik (oqilona kutish) tamoyillariga muvofiq amalga oshirishi"*.

7. Ma'lumotlarni maqsadli cheklash va minimallashtirish tamoyillarini mustahkamlash uchun "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasini quyidagi mazmundagi to'rtinchi qism bilan to'ldirish:

*"Ma'lumotlarga ishlov beruvchi (operator) shaxsga doir ma'lumotlarni faqat oldindan belgilangan, aniq va qonuniy maqsadlarda hamda ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan minimal hajmda to'plashi va ishlov berishi shart"*.

8. Big Data tahlilida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun maxsus kafolatlar va mexanizmlarni nazarda tutuvchi quyidagi

mazmundagi “Big data tahlilida ma’lumotlarga ishlov berish usullari” to’g’risidagi 16<sup>1</sup>-modda bilan to’ldirish:

*“Big Data texnologiyalarini qo’llab, shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish ushbu qonun talablariga qat’iy rioya etilgan holda, qo’shimcha kafolatlar asosida, shu jumladan, ma’lumotlarni anonimlashtirish, psevdonimlashtirish, kriptografik himoyalash va boshqa zamonaviy usullar qo’llangan holda amalga oshirilishi mumkin”.*

9. Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish shartlarini aniqlashtirish va kengaytirish maqsadida “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonunning 18-moddasini quyidagi tahrirdagi 4-qism bilan to’ldirish:

*“Davlat organlari va tashkilotlari zimmasiga qonun bilan yuklatilgan funksiya va vakolatlarni bajarish uchun zarur bo’lgan hollarda shaxsga doir ma’lumotlarga ularning roziligisiz ishlov berilishi mumkin. Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov beruvchi subyekt (operator) yoki uchinchi shaxslarning qonuniy manfaatlarini ta’minlash uchun zarur bo’lgan hollarda roziliksiz ishlov berilishi mumkin, bundan shaxsga doir ma’lumotlar subyekting asosiy huquq va erkinliklari ustun bo’lgan hollar mustasno”.*

10. “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonunning 30-moddasi 1-bandini quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi bilan to’ldirish lozim:

*“Shaxsga doir ma’lumotlar subyekti o’z ma’lumotlarini to’g’rilash, to’ldirish, bloklash va yo’q qilish, shuningdek, ma’lumotlar o’chirilganligi yoki ular almashtirilganligi to’g’risida xabardor etilishni so’rash huquqiga ega”.*

11. Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish va profillashtirish jarayonlarida shaxsiy ma’lumotlar himoyasini ta’minlash maqsadida “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonunning 25-moddasini quyidagi mazmundagi 5-qism bilan to’ldirish:

*“Faqat avtomatlashtirilgan ishlov berish asosida, shu jumladan, profillash natijalariga ko’ra, shaxsga doir qarorlar qabul qilish taqiqlanadi. Ushbu qoida quyidagi hollarga nisbatan qo’llanmaydi: qaror ma’lumotlar subyekti bilan tuzilgan shartnoma ijrosi uchun zarur bo’lsa yoki ma’lumotlar subyekti aniq va ochiq rozilik bildirgan bo’lsa; qaror qonun hujjatlari bilan ruxsat etilgan bo’lsa va*

*ma'lumotlar subyektining huquq va erkinliklarini himoya qilishning tegishli choralari nazarda tutilgan bo'lsa".*

12. Subyektning maxsus maxfiy ma'lumotlariga nisbatan himoya choralari kuchaytirib, unga qo'shimcha kafolatlar berishga xizmat qilgan quyidagi mazmundagi taklif "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasi uchinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan:

*"Subyektning shaxsini aniqlash uchun foydalaniladigan biometrik va genetik ma'lumotlarga faqat mazkur subyektning roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, bundan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ro'yobga chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish, ijro ishini yuritish bilan bog'liq hollar mustasno, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishlov berilishi mumkin".*

13. Shaxsga oid ma'lumotlarga o'zboshimchalik bilan ishlov berishga yo'l qo'ymaslik va shaxsga oid ma'lumotlar ishonchli huquqiy himoya qilinishini ta'minlashga zamin bo'lib xizmat qilgan quyidagi mazmundagi taklif "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasi ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi ishlab chiqilishida foydalanilgan:

*"Mulkdor va (yoki) operator qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda subyektning o'z shaxsiga doir ma'lumotlariga ishlov berish uchun roziligi olinganligi dalilini taqdim etishi lozim".*

14. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi hamda "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlardan "mulkdor" atamasini chiqarib tashlash hamda uni "nazoratchi" tushunchasi bilan almashtirish zarur. Bu Big Data elementlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish va ularni himoya qilishda yagona yondashuvni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu qonunlarda "ma'lumotlar nazoratchisi" tushunchasiga ta'rif berish va uning huquqiy maqomini belgilash lozim. Masalan, quyidagi normani kiritish mumkin: *"Ma'lumotlar nazoratchisi – ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari va vositalarini belgilaydigan, shuningdek, ma'lumotlarning qonuniyligi, sifati va xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs".*

Bunda "nazoratchi"ning huquq va majburiyatlari, javobgarligi masalalari ham aniq belgilab berilishi zarur.

15. Tadqiqotchi tomonidan berilgan takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 570-son qarori bilan tasdiqlangan "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risida"gi nizom ishlab chiqilishida inobatga olingan. Xususan:

– **5-bandi o'ninchi xatboshisi** ishlab chiqilishida:

*"Hamma foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar – subyektning roziligi bilan erkin foydalanilishi mumkin bo'lgan yoki maxfiylikka rioya etishga doir talablar tatbiq etilmaydigan ma'lumotlar". (Ushbu normani, shuningdek, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning "4-modda. Asosiy tushunchalar" qismiga kiritish maqsadga muvofiq).*

– **7-bandi birinchi xatboshisini** ishlab chiqishda:

*"Shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligiga tahdidlar – ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz, shu jumladan, tasodifiy kirish natijasida shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish, yo'q qilish, nusxalash, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar va omillar yig'indisi".*

– **14-bandini** ishlab chiqishda:

*"Ma'lumotlar bazalarida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularni himoya qilishning 4-darajasini ta'minlash uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:*

- *ma'lumotlar bazalari joylashgan binolarning xavfsizlik rejimini tashkil etish, ushbu binolarga kirish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarning nazoratsiz kirishi yoki ushbu binolarda qolishining oldini olish;*
- *shaxsga doir ma'lumotlar mavjud bo'lgan moddiy jismlar xavfsizligini ta'minlash; ma'lumotlar bazalarida ishlov berilayotgan shaxsga doir ma'lumotlarga kirish, ularning xizmat (mehnat) vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan shaxslar ro'yxatini belgilaydigan hujjatni mulkdor va (yoki) operator rahbari tomonidan tasdiqlash;*
- *shaxsga doir ma'lumotlarni mavjud tahdidlardan himoya qilish, zarurat bo'lganda, axborot xavfsizligi sohasidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini baholash tartibidan o'tgan axborot xavfsizligi vositalaridan foydalanish.*

### **III. Amaliy taklif va tavsiyalar**

1. Davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida Big Data texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunda quyidagi jihatlar hisobga olinishi zarur:

- turli sohalarda Big Data texnologiyalarini faol qo'llash, ma'lumotlar almashinuvi va tahlilini yaxshilash;
- Big Data bilan ishlovchi kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalarida tegishli yo'nalishlar ochish;
- ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bo'yicha yuqori standartlar belgilash va ularning ijrosini ta'minlash;
- innovatsion g'oyalarni Big Data asosida amalga oshirish, venchur investitsiyalar jalb qilishni rag'batlantirish;
- ma'lumotlar sifati va ishonchliligini oshirish, ma'lumotlarni anonimlashtirish va zaxiralash tizimi hamda boshqa usul va vositalarni joriy etish.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektlar Big Data texnologiyalarini qo'llashda shaffoflik, hisobdorlik va javobgarlik tamoyillariga amal qilishlari zarur. Tadqiqot ko'rsatadiki, xususan:

- ma'lumotlarni to'plash va ishlatishning maqsadlari hamda shartlari oshkor etilishi;
- ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini ta'minlash, ularning roziligini olish mexanizmlari yaratilishi;
- ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash, ulardan noqonuniy foydalanishning oldini olish;
- ma'lumotlar bilan bog'liq faoliyat ustidan ichki va tashqi nazorat o'rnatish kerak.

3. Fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari Big Data texnologiyalarining joriy etilishi, ulardan foydalanish va nazorat qilishda faol ishtirok etishlari lozim. Bunda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

- aholining Big Data borasidagi huquqiy savodxonligini oshirish, ijobiy va salbiy jihatlari to'g'risida xabardorlikni yuksaltirish;
- ma'lumotlar sohasidagi qonunchilikni ishlab chiqish va qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, ekspertlar va manfaatdor tomonlar muloqotini yo'lga qo'yish;

- ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va faoliyat ustidan nodavlat nazoratni amalga oshirish, shaffoflikni ta'minlash.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ilg'or tajribalarni o'rganish Big Data sohasi rivojida muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot yakunlari bo'yicha shu maqsadda:

- ma'lumotlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'yish;

- ma'lumotlar xavfsizligi va sifatiga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish;

- davlatlar va kompaniyalar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish, xalqaro ilmiy va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

5. Big Data texnologiyalaridan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy muammolarni o'rganish, ularning oqibatlarini yumshatish choralarini ishlab chiqish zarur. Tadqiqot davomida aniqlangan ba'zi muammolar, xususan, madaniyat va diniy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, diskriminatsiyaning oldini olish kabi masalalar doimo e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Buning uchun Big Data loyihalarining ijtimoiy ekspertizasini o'tkazish, ularning ijtimoiy oqibatlari monitoringini yo'lga qo'yish va etika qo'mitalarini tuzish kabi choralar ko'rish lozim.

Bundan tashqari, tadqiqot xulosalariga ko'ra, Big Data sohasining institutsional asoslarini mustahkamlash uchun bu boradagi davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan vakolatli organlar tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Yuqoridagi taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini Big Data fenomeni bilan bog'liq yangi huquqiy munosabatlarni to'liq qamrab olish va samarali tartibga solishga xizmat qiladi. Ularning qabul qilinishi Big Data ishtirokchilarining intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, ular o'rtasidagi manfaatlar balansi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda sohada halol raqobat muhitini yaratishga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80-b. 31-m.

2. O'zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2003-yil, 560-II-son, 3-, 20-moddalar.

3. O'zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002-yil, 439-II -son, 3-4, 6-moddalar.

4. O'zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida”gi 1060-XII-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 2002-y., 4-5-son, 6-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil, 28-29-son, 260-modda.

6. O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2019-y., 03/19/547/3363-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2015-y., 80-, 81-, 98-, 169-, 1042-, 1043-, 1059-moddalar.

8. O'zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2022-yil, 792-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, PF-6079, 05.10.2020.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4996-son Qarori, 17.02.2021.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5234-son Qarori, 04.08.2021.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi "Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4168-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 570-son qarori bilan tasdiqlangan "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risida"gi nizom.

14. Yevropa Ittifoqining "Ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida"gi 96/9/EC-sonli Direktivasi.

15. Yevropa Ittifoqining 2016/679-sonli "Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti" (GDPR).

16. Yevropa Ittifoqining 2004/48/EC-sonli "Intellectual mulk huquqlari bo'yicha direktiva"si.

17. Yevropa Ittifoqining "Ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risidagi Direktivasi" (96/9/EC).

18. BMTning "Ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik to'g'risidagi qonunchilik bazasi".

19. OECD "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va transmilliy oqimini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar".

20. APEC Maxfiylik Asoslari (Privacy framework).

21. APEC Chegaralararo Maxfiylik Qoidalari (CBPR).

22. Yevropa Kengashining "Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda ishlashda jismoniy shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiyasi.

23. WIPO xalqaro shartnomalari.

24. AQShning "Tijorat siri to'g'risida"gi qonuni (Defend Trade Secrets Act).

25. AQShning "Ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (Privacy Act of 1974).

26. AQShning "Elektron kommunikatsiyalarni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (Electronic Communications Privacy Act of 1986).

27. AQShning "Har bir bola muvaffaqiyati to'g'risida"gi qonuni (Every Student Succeeds Act – ESSA).

28. AQShning "Adolatli kredit hisoboti to'g'risida"gi qonuni (Fair Credit Reporting Act).

29. Kaliforniya shtatining “Kaliforniya iste’molchini himoya qilish to’g’risida”gi qonuni (CCPA).
30. Yaponiyaning “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to’g’risida”gi qonuni (2003).
31. Xitoy Xalq Respublikasining “Kiberxavfsizlik to’g’risida”gi qonuni (2017).
32. Xitoy Xalq Respublikasining “Ma’lumotlar xavfsizligi to’g’risida”gi qonuni (2021).
33. Xitoy Xalq Respublikasining “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to’g’risida”gi qonuni (2021).
34. Rossiya Federatsiyasining “Axborot, axborot texnologiyalari va axborot himoyasi to’g’risida”gi Federal qonuni (2006).
35. Rossiya Federatsiyasining “Shaxsiy ma’lumotlar to’g’risida”gi Federal qonuni (2006).
36. Rossiya Federatsiyasining “Tijorat siri to’g’risida”gi qonuni (2014).
37. Janubiy Koreya Respublikasining “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to’g’risida”gi qonuni (PIPA).
38. Singapur Respublikasining “Shaxsiy ma’lumotlar to’g’risida”gi qonuni (PDPA).
39. AQSh Federal savdo komissiyasining “Adolat Big Data: algoritmlar, diskriminatsiya va maxfiylik” yo’riqnomasi.
40. AQSh Federal Savdo Komissiyasining “Ma’lumotlarni adolatli ishlatish tamoyillari” (Fair Information Practice Principles).
41. ENISA “Big Data xavfsizligi bo’yicha qo’llanma”.
42. NIST “Big Data xavfsizligi bo’yicha qo’llanma”.
43. UN/CEFACT standartlari.
44. Janubiy Koreyaning “Big Data maxfiyligi to’g’risida”gi qonun loyihasi.

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to’plamlar**

45. Acquisti, A., Brandimarte, L., & Loewenstein, G. (2015). Privacy and human behavior in the age of information. *Science*, 347(6221), 509-514.
